“ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI”

mavzusidagi Respublika ko’p tarmoqli, ilmiy KONFERENSIYA



#23

2026

TAHRIRIYAT A'ZOLARI

Berdialiev A. f.f.d., prof.
Nurullaeva Sh.U. ped.f.d., prof.
Tursunov K.Sh. ped.f.d., prof.
Babadjanova D. tarix.f.d., prof.
Ernazarova G.O. ped.f.d., prof.
Abduraximova D.A. ped.f.d., prof.
Madumarov T.T. yur.f.d., prof.
Mirzayeva C.P. fil.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Xolliyev A.E. bio.f.d., prof.
Yuldashev M.M. fil.f.d., prof.
Salaeva M.S. psi.f.n., dotsent
Salayeva M.S. ped.f.d., prof.
Tojiboyeva M.A. fil.f.d., dotsent
Sabirova N.E. fil.f.d., dotsent
Norboyeva U.T. bio.f.d., dotsent
Yarmatov R.B. ped.f.d., dotsent
Egamberdiyeva N.A. tarix.f.d., dotsent
Achilov N.K. fil.f.d., dotsent
Imomova G.M. fil.f.n., dotsent
Zakirova H.R. f.f.n., dotsent
Tuhtahujaev H.B. ped.f.f.d., dotsent, TFA Akademik
Bakiyev Z.A. ped.f.n., dotsent
Razzakov H.K. tex.f.n., f.f.d., dotsent
Ortikov O.A. tex.f.f.d., dotsent
Djuraeva M.Y. f.f.f.d.
Nabikhodjaev A.A. iqt.f.n., dotsent
Otadjanova M.O. f.f.d.
Tajibaeva M.A. fil.f.d., dotsent
Hasanov A.M. fil.f.f.d
Kholmurodov A.E. fiz.m.f.d., dotsent
Aripov O.A. iqt.f.d., dotsent
Safarova U.A. fil.f.d., dotsent

Mas'ul kotib: ***M.Yusupov***

THE JOURNAL OF
INTEGRATED EDUCATION AND RESEARCH
ISSN: 2181-3558

ILMIY TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR, NAZARIY VA AMALIY STRATEGIYALAR TADQIQI

№ 23-SONLI RESPUBLIKASI KO'P TARMOQLI, ILMIY KONFERENSIYA
2026-YIL

RESEARCH OF SCIENTIFIC RESEARCH, INNOVATION, THEORETICAL AND PRACTICAL STRATEGIES

23th REPUBLIC OF MULTIFIELD SCIENTIFIC CONFERENCE
2026

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QITISH METODIKASI (6-SINF INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI DARSLIGI MISOLIDA)

Pardayeva Dilfuza Najmiddin qizi
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Axborot texnologiyalari kafedrasi o'qituvchisi
Email: dilfuzzz1995@gmail.com
ORCID: 0009-0006-7901-7914

Annotatsiya. Mazkur maqolada umumta'lim maktablarining 6-sinf informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish metodikasi yoritilgan. O'quvchilarda algoritmik fikrlash, raqamli savodxonlik va axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishda AI asosidagi o'quv vositalarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda sun'iy intellekt texnologiyalarini dars jarayoniga integratsiya qilish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasi va darsga bo'lgan qiziqishini oshirish yo'llari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, 6-sinf informatika, o'qitish metodikasi, raqamli savodxonlik, algoritmik fikrlash.

Аннотация. В статье рассматривается методика обучения учащихся общеобразовательных школ с использованием технологий искусственного интеллекта на примере учебника информатики и информационных технологий для 6 класса. Анализируются дидактические возможности AI-технологий в формировании алгоритмического мышления, цифровой грамотности и информационной компетентности учащихся. Результаты исследования показывают эффективность внедрения технологий искусственного интеллекта в учебный процесс.

Ключевые слова: искусственный интеллект, информатика 6 класс, методика обучения, цифровая грамотность.

Abstract. This article examines the methodology of teaching general education school students using artificial intelligence technologies, based on the 6th-grade Informatics and Information Technologies textbook. The didactic potential of AI tools in developing students' algorithmic thinking, digital literacy, and information competence is analyzed. The study substantiates methods for integrating AI technologies into lessons to enhance learning outcomes and student engagement.

Keywords: artificial intelligence, 6th grade informatics, teaching methodology, digital literacy.

Kirish. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim tizimida yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Umumta’lim maktablarida informatika fanini o‘qitish jarayonida sun’iy intellekt elementlaridan foydalanish o‘quvchilarda zamonaviy raqamli ko‘nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, 6-sinf bosqichi o‘quvchilarda algoritmik fikrlash va axborot texnologiyalariga qiziqishni shakllantirishda muhim davr hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida raqamli ta’limni rivojlantirish, maktablarda informatika fanini zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Shu bois, sun’iy intellekt texnologiyalariga asoslangan o‘qitish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi – 6-sinf informatika va axborot texnologiyalari darslarini sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish metodikasini ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslashdir.

Material va metodlar. Tadqiqot umumta’lim maktablarining 6-sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan tajriba-sinov ishlari asosida tashkil etildi. Tadqiqotda darslik va o‘quv dasturlarini tahlil qilish, pedagogik tajriba va kuzatish, interfaol va sun’iy intellekt asosidagi mashg‘ulotlarni tashkil etish, so‘rovnoma va testlar orqali bilimlarni baholash hamda natijalarni statistik tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Tajriba jarayonida jami 50 nafar o‘quvchi qatnashgan 2 ta 6-sinf ishtirok etdi. 6-sinf informatika darslarida sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bir nechta yo‘nalishda amalga oshirildi. Avvalo, algoritmik fikrlashni rivojlantirish bo‘yicha o‘quvchilar vizual dasturlash muhiti (Scratch, Blockly) asosida algoritmlar tuzish bilan shug‘ullanishdi va AI yordamida xatolar aniqlanib, ularga tavsiyalar berildi. Shuningdek, moslashtirilgan (adaptiv) o‘qitish tamoyili asosida sun’iy intellekt o‘quvchining bilim darajasiga mos topshiriqlarni taklif qildi va individual o‘rganish tezligini hisobga oldi. Interfaol baholash jarayonida AI asosidagi testlar va avtomatik baholash tizimi orqali o‘quvchilarga tezkor teskari aloqa taqdim etildi. Bundan tashqari, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish doirasida o‘quvchilar ma’lumotlarni izlash, saralash va tahlil qilishni o‘rgandilar hamda sun’iy intellekt yordamida misollar va vizual tushuntirishlardan foydalandilar. Shu tariqa, tadqiqot jarayonida sun’iy intellekt texnologiyalari o‘quvchilarning algoritmik fikrlashini rivojlantirish, individual o‘qitish, interfaol baholash va axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida qo‘llanildi.

Natijalar va muhokama. Tajriba-sinov ishlari natijasida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi:

AI texnologiyalaridan foydalangan sinflarda o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish darajasi 24–27% ga oshdi.

O‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va faolligi sezilarli darajada kuchaydi.

Algoritmik masalalarni mustaqil yechish ko‘nikmalari rivojlandi.

O‘quvchilar raqamli texnologiyalardan ongli va maqsadli foydalanishni o‘rgandilar.

Natijalar sun’iy intellekt asosida tashkil etilgan darslar an’anaviy usullarga nisbatan samaraliroq ekanligini ko‘rsatdi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

Sun’iy intellekt texnologiyalari 6-sinf informatika darslarining samaradorligini oshiradi.

AI asosidagi metodika o‘quvchilarda algoritmik fikrlash va raqamli savodxonlikni rivojlantiradi.

Moslashtirilgan o‘qitish o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishga yordam beradi.

Tajriba natijalari bilimlarni o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshganini ko‘rsatdi.

O‘qituvchilarning AI texnologiyalari bo‘yicha metodik tayyorgarligini kuchaytirish zarur. Kelgusidagi istiqbollar: Mazkur metodikani 5–9-sinflar informatika darslariga joriy etish, sun’iy intellekt elementlarini bosqichma-bosqich o‘qitish hamda milliy darsliklar mazmunini AI texnologiyalariga moslashtirish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullayeva Z. (2021). Informatika fanini o‘qitish metodikasi. Toshkent.
2. Karimov A. (2020). Raqamli pedagogika asoslari.
3. Mirziyoyev Sh.M. (2017). Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent.
4. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. (2022). Informatika va axborot texnologiyalari fan dasturi (6-sinf).
5. OECD. (2021). Digital Education Outlook.
6. UNESCO. (2022). Artificial Intelligence in Education.

МУНТАЗАМ ТАЗЙИҚ ВА ЗЎРАВОНЛИК ҚУРБОНЛАРИНИ ЖАМИЯТГА ҚАЙТА ИНТЕГРАЦИЯ ҚИЛИШДА ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИ ФАОЛИЯТИНИНГ ИЛМИЙ-ҲУҚУҚИЙ ВА ИЖТИМОИЙ ТАЛҚИНИ

Абдуғафаров Аббос Равшан ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти кафедраси ўқитувчиси, капитан.

Эшдавлатов Иноят Акбарович
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 3-босқич курсанти.

Annotatsiya. Ушбу мақолада мунтазам тазйиқ ва зўравонликка дучор бўлган шахсларни жамиятга қайта интеграция қилиш жараёни профилактика инспекторлари фаолияти мисолида таҳлил қилинади. Мақолада зўравонлик қурбонларини реинтеграция қилишнинг криминологик, ижтимоий-психологик ва ҳуқуқий асослари очиб берилиб, профилактика инспекторларининг индивидуал ёндашувга асосланган фаолиятининг аҳамияти илмий жиҳатдан ёритилади. Шунингдек, ижтимоий реабилитация ва мослаштириш жараёнида мавжуд муаммолар ҳамда уларни бартараф этиш бўйича илмий-амалий таклифлар баён этилган.

Калит сўзлар: реинтеграция, зўравонлик қурбонлари, профилактика инспектори, индивидуал профилактика, ижтимоий ҳимоя, психологик ёрдам, ҳуқуқий кафолат.

Annotation. In this article, the process of reintegration of persons subjected to constant harassment and violence into society is analyzed using the example of the activities of prevention inspectors. The article reveals the criminological, socio-psychological, and legal foundations of the reintegration of victims of violence, and scientifically illuminates the significance of the activities of prevention inspectors based on an individual approach. Also, existing problems in the process of social rehabilitation and adaptation and scientific and practical proposals for their elimination are described.

Keywords: reintegration, victims of violence, prevention inspector, individual prevention, social protection, psychological assistance, legal guarantee.

Ҳозирги глобаллашув шароитида жамиятда ижтимоий зиддиятлар, оилавий муаммолар ва иқтисодий қийинчиликлар ортиши билан бирга тазйиқ ва зўравонлик ҳолатлари ҳам кўпайиб бормоқда. Мазкур салбий ижтимоий ҳодиса шахснинг ҳуқуқ ва эркинликларини чеклаш билан бир қаторда, унинг жамиятдан узоқлашувига, ижтимоий фаоллигининг пасайишига сабаб бўлади.

Шу нуқтаи назардан, зўравонлик қурбонларини жамиятга қайта интеграция қилиш масаласи илмий-амалий жиҳатдан долзарб аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикасида инсон ҳуқуқларини таъминлаш, тазйиқ ва зўравонликнинг олдини олиш ҳамда жабрланувчиларни қўллаб-қувватлашга қаратилган ҳуқуқий механизмлар изчил такомиллаштириб келинмоқда. Ушбу жараёнда профилактика инспекторлари зўравонлик қурбонлари билан бевосита иш олиб борувчи асосий субъект сифатида намоён бўлади.

Реинтеграция тушунчаси зўравонлик ёки тазйиқ оқибатида ижтимоий муносабатлардан четлашган шахсни жамият ҳаётига қайта жалб этиш жараёнини англатади. Илмий адабиётларда реинтеграция ижтимоий реабилитация ва ижтимоий мослаштириш тушунчалари билан узвий боғлиқ ҳолда талқин этилади.

Зўравонлик қурбонларини реинтеграция қилишда қуйидаги омиллар муҳим ҳисобланади:

- шахснинг руҳий ҳолатини барқарорлаштириш;
- ҳуқуқий ҳимоя ва адолатли муҳитни таъминлаш;
- ижтимоий алоқаларни тиклаш;
- иқтисодий мустақилликка эришиш.

Ушбу омилларнинг самарали амалга оширилиши кўп жиҳатдан профилактика инспекторларининг касбий маҳорати ва ташкилий фаолиятига боғлиқ.

Профилактика инспекторларининг зўравонлик қурбонлари билан ишлашдаги асосий хусусияти индивидуал ёндашув ҳисобланади. Ҳар бир жабрланувчи шахснинг ёши, жинси, ижтимоий мақоми, руҳий ҳолати ва оилавий шароити инобатга олиниб, алоҳида профилактик ва реабилитация режаси ишлаб чиқилади.

Индивидуал ёндашув қуйидаги йўналишларда намоён бўлади:

- шахсий суҳбатлар орқали муаммони чуқур ўрганиш;
- хавф даражасини баҳолаш ва ҳимоя чораларини белгилаш;
- тегишли мутахассислар (психолог, шифокор, ижтимоий ходим) билан ҳамкорлик;
- реинтеграция жараёни устидан мунтазам назорат.

Ижтимоий-психологик қўллаб-қувватлашнинг аҳамияти.

Зўравонлик қурбонларининг аксариятида узоқ муддатли руҳий зиёнлар сақланиб қолади. Шу сабабли ижтимоий-психологик қўллаб-қувватлаш реинтеграция жараёнининг асосий таркибий қисми ҳисобланади. Профилактика инспекторлари психологик хизматлар билан ҳамкорликда

жабрланувчилар учун маслаҳатлар, тренинглар ва реабилитация машғулотларини ташкил этади.

Психологик ёрдам қуйидаги мақсадларга хизмат қилади:

- қўрқув ва ишончсизликни камайтириш;
- ижтимоий фаолликни ошириш;
- мустақил қарор қабул қилиш қобилиятини шакллантириш.

Ҳуқуқий кафолатлар ва профилактика инспекторининг ҳимоя функцияси.

Зўравонлик қурбонларини ҳимоя қилишда ҳуқуқий кафолатлар муҳим ўрин тутади. Профилактика инспекторлари жабрланувчиларга ҳимоя ордерларини расмийлаштириш, уларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини тушунтириш, суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар билан ўзаро ҳамкорлик қилиш орқали ҳуқуқий ҳимояни таъминлайди.

Мазкур фаолият зўравонликнинг такрорланиш хавфини камайтиришга ва жабрланувчининг ҳуқуқий онгини оширишга хизмат қилади.

Жабрланувчи шахснинг иқтисодий мустақиллиги унинг жамиятга тўлақонли қайта кириб келишида ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Шу боис профилактика инспекторлари бандлик органлари билан ҳамкорликда ишга жойлашиш, касбга қайта тайёрлаш ва ижтимоий нафақалар масалаларида амалий ёрдам кўрсатади.

Зўравонлик қурбонларини реинтеграция қилиш кўп соҳали ҳамкорликни талаб этади. Ички ишлар органлари, маҳалла, соғлиқни сақлаш, таълим ва нодавлат нотижорат ташкилотлари ўртасидаги мувофиқлашган фаолият ушбу жараён самарадорлигини оширади.

Амалиётда профилактика инспекторларининг зўравонлик қурбонлари билан ишлашида кадрлар етишмаслиги, психологик хизматлар қамровининг чекланганлиги каби муаммолар мавжуд. Уларни бартараф этиш учун:

- профилактика инспекторларининг малакасини ошириш;
- реабилитация марказлари фаолиятини кенгайтириш;
- илмий асосланган дастурларни жорий этиш таклиф этилади.

Хулоса. Зўравонлик қурбонларини жамиятга қайта интеграция қилишда профилактика инспекторларининг роли беқиёсдир. Уларнинг индивидуал, комплекс ва инсонпарварликка асосланган фаолияти жамиятда ижтимоий адолат ва барқарорликни таъминлашга хизмат қилади. Мазкур йўналишни илмий жиҳатдан такомиллаштириш ва амалиётга татбиқ этиш зўравонлик ҳолатларининг олдини олишда самарали натижалар беради.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: 2023.

2. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Қонуни.
4. Криминология. Дарслик / Муаллифлар жамоаси. – Т.: TDYU, 2022.
5. Ижтимоий иш ва реабилитация назарияси: илмий қўлланма. – Т.: 2021.
6. Ўрақов Ж. Р. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситаларининг ўрни //innovative achievements in science 2024. – 2025. – т. №.40. – с. 48-51.
7. Baxramovich B. A. Et al. Profilaktika inspektorining jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarni oldini olishda hamkorligi //innovation in the modern education system. – 2025. – т. 6. – №. 52. – с. 304-307.
8. Rustamalievich, O‘raqov Jasur. "Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda toifalanishining tartibi va uning huqubuzarliklarni oldini olishdagi ahamiyati." innovation in the modern education system 6.52 (2025): 299-303.
9. Rustamalievich, O‘raqov Jasur. "Profilaktika inspektorining probatsiya xizmati bilan xamkorligi." innovation in the modern education system 6.52 (2025): 308-312.
10. Ўрақов Ж. Р. Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш ва амалга оширишнинг муаммолари //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 44-50.

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ МУНТАЗАМ ТАЗЙИҚ ВА ЗЎРАВОНЛИККА УЧРАГАН ШАХСЛАРГА НИСБАТАН ИЖТИМОИЙ РЕАБИЛИТАЦИЯ ВА ИЖТИМОИЙ МОСЛАШТИРИШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ МАСАЛАЛАРИ

Ўрақов Жасур Рустамалиевич
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти кафедраси ўқитувчиси, майор.

Эшдавлатов Иноят Акбарович
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 3-босқич курсанти.

Annotatsiya. Мазкур мақолада профилактика инспекторларининг мунтазам тазйиқ ва зўравонликка учраган шахсларга нисбатан ижтимоий реабилитация ва ижтимоий мослаштириш чора-тадбирларини амалга оширишдаги ўрни, вазифалари ҳамда фаолиятининг илмий-амалий жиҳатлари таҳлил қилинган. Шунингдек, зўравонлик оқибатида жабр кўрган шахсларнинг ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш, уларни жамиятга қайта интеграциялашда профилактика инспекторларининг мувофиқлаштирувчи роли, идоралараро ҳамкорлик ва комплекс ёндашувнинг аҳамияти ёритилган. Мақолада ижтимоий реабилитация ва мослаштириш механизмларини такомиллаштириш бўйича илмий асосланган хулоса ва таклифлар илгари сурилади.

Калит сўзлар: профилактика инспектори, зўравонлик, тазйиқ, ижтимоий реабилитация, ижтимоий мослаштириш, ҳимоя ордери, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси.

Annotation. This article analyzes the role, tasks, and scientific and practical aspects of the activities of prevention inspectors in the implementation of measures for social rehabilitation and social adaptation of persons subjected to constant harassment and violence. It also highlights the coordinating role of prevention inspectors in protecting the rights and interests of victims of violence, their reintegration into society, the importance of interdepartmental cooperation and an integrated approach. The article puts forward scientifically based conclusions and proposals for improving the mechanisms of social rehabilitation and adaptation.

Keywords: prevention inspector, violence, harassment, social rehabilitation, social adaptation, protection order, crime prevention.

Жамиятда инсон ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлаш, айниқса зўравонлик ва тазйиққа учраган шахсларни ҳимоя қилиш давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Оилавий-маиший зўравонлик, ижтимоий муҳитдаги тазйиқ, психологик босим каби ҳолатлар нафақат жабрланувчи шахснинг руҳий ва жисмоний ҳолатига, балки бутун жамият барқарорлигига салбий таъсир кўрсатади. Шу нуқтаи назардан, профилактика инспекторларининг мунтазам тазйиқ ва зўравонликка учраган шахслар билан ишлашдаги фаолияти, айниқса уларни ижтимоий реабилитация қилиш ва жамиятга мослаштириш бўйича чора-тадбирларни самарали ташкил этиши долзарб аҳамият касб этади.

Мунтазам тазйиқ ва зўравонлик деганда шахсга нисбатан доимий равишда жисмоний, руҳий, иқтисодий ёки жинсий босим ўтказиш тушунилади. Бундай ҳолатлар кўпинча оилада, меҳнат жамоаларида ёки маҳалла муҳитида кузатилади. Зўравонлик натижасида жабрланувчи шахсда қўрқув, ишончсизлик, депрессия, ижтимоий четланиш ҳолатлари шаклланади.

Илмий тадқиқотлар шуни кўрсатадики, мунтазам зўравонликка учраган шахслар аксар ҳолларда ўз муаммосини мустақил ҳал этиш имкониятига эга эмас. Шу сабабли давлат органлари, хусусан ички ишлар органлари тизимида фаолият юритувчи профилактика инспекторлари ушбу тоифадаги шахсларни аниқлаш, ҳимоя қилиш ва қўллаб-қувватлашда асосий субъект сифатида иштирок этади. Профилактика инспекторлари ҳудудда ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга ошириш билан бир қаторда, ижтимоий хавфли ҳолатда бўлган шахслар билан индивидуал ишлашни ташкил этади. Улар мунтазам тазйиқ ва зўравонликка учраган шахсларни аниқлаш, ҳимоя ордерларини қўллаш, тегишли давлат ва жамоат институтлари билан ҳамкорлик қилиш орқали комплекс чора-тадбирларни амалга оширади.

Инспекторларнинг мазкур йўналишдаги асосий вазифалари қуйидагилардан иборат:

- зўравонлик ҳолатларини ўз вақтида аниқлаш ва ҳуқуқий баҳолаш;
- жабрланувчиларнинг шахсий хавфсизлигини таъминлаш;
- тиббий, психологик ва ҳуқуқий ёрдам кўрсатиш учун мутасадди идораларга йўналтириш;
- реабилитация ва мослаштириш жараёнида мониторинг олиб бориш.

Ижтимоий реабилитация – бу зўравонлик оқибатида зарар кўрган шахснинг жисмоний, руҳий ва ижтимоий ҳолатини тиклашга қаратилган чора-тадбирлар тизимидир. Профилактика инспекторлари мазкур жараёнда мувофиқлаштирувчи ҳамда назорат қилувчи вазифани бажаради.

Реабилитация ва мослаштириш тушунчасини биз ижтимоий реабилитация қилиш ва ижтимоий мослаштириш таълимоти орқали ўрганамиз. Реабилитация лотин тилидан “rehabilitation” тиклаш; ҳуқуқбузар ва жабрланганларни ҳимоя қилиш тўғрисида таълимот ҳисобланади. Ижтимоий реабилитация қилиш ва ижтимоий мослаштириш алохида, мустақил йўналишда бўлган, яъни ҳуқуқбузарликдан жабрланганлар ва жазони ижро этиш муассасасидан озод қилинган шахсларни ўрганувчи таълимот сифатида ўрганилади. Чунки бу таълимот асосан ҳуқуқбузарликдан жабрланганлар ва жазонт ижро этиш муассасасидан озод қилинган шахсларни ўрганувчи ва уларга психологик, биологик, педагогик, ижтимоий ҳусусиятлари, муносабатлари, жиноят содир этилишидан олдин ва ундан кейинги жараёнда тутган ўрнини ўрганиб чиқади ва илмий жихатдан асосланган хулосаларни ишлаб чиқиб, жиноятларни профилактика қилиш фаолиятида кенг кўламда қўлланилиши учун тадбиқ этилади. Ижтимоий реабилитация қилиш ва ижтимоий мослаштириш нафақат ҳуқуқбузарликдан жабрланганлар ва жазони ижро этиш муассасасидан озод қилинган шахсларни ўрганади, балки, бахтсиз ходиса, табиий офат, уруш, геноцид ва бошқа холатлар оқибатида юзага келган жабрланишларни ўз ичига олади.

Ижтимоий реабилитация қуйидаги йўналишларни ўз ичига олади:

- психологик реабилитация – руҳий барқарорликни тиклашга қаратилган индивидуал ва гуруҳли машғулотлар;
- тиббий реабилитация – зарур ҳолларда даволаш муассасаларига йўлланма бериш;
- ҳуқуқий реабилитация – шахснинг бузилган ҳуқуқларини тиклаш ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш;
- ижтимоий қўллаб-қувватлаш – вақтинчалик турар жой, моддий ёрдам ва бандликка кўмаклашиш.

Ижтимоий мослаштириш реабилитация жараёнининг мантиқий давоми бўлиб, шахснинг жамиятга тўлақонли қайта кириб келишини таъминлайди. Бу босқичда профилактика инспекторлари маҳалла институти, бандлик органлари, таълим муассасалари ва нодавлат нотижорат ташкилотлари билан ҳамкорлик қилади.

Ижтимоий мослаштиришнинг асосий шакллари қуйидагилардан иборат:

- касбга йўналтириш ва қайта тайёрлаш курсларига жалб этиш;
- ижтимоий фаолликни оширишга қаратилган жамоат ишларида иштирок эттириш;
- оилавий муносабатларни соғломлаштириш бўйича профилактик суҳбатлар;

●қайта зўравонлик хавфини камайтириш мақсадида профилактик назорат.

Мунтазам тазйиқ ва зўравонликка учраган шахсларга нисбатан самарали ижтимоий реабилитация ва мослаштириш чора-тадбирларини амалга ошириш комплекс ёндашувни талаб этади. Бу жараёнда ички ишлар органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти, соғлиқни сақлаш, таълим, меҳнат ва ижтимоий ҳимоя органлари ўртасидаги ҳамкорлик муҳим аҳамиятга эга.

Хулоса. Профилактика инспекторларининг мунтазам тазйиқ ва зўравонликка учраган шахсларга нисбатан ижтимоий реабилитация ва ижтимоий мослаштириш чора-тадбирларини амалга оширишдаги фаолияти жамиятда инсон ҳуқуқларини таъминлаш ва ижтимоий барқарорликни мустаҳкамлашда муҳим аҳамият касб этади. Ушбу фаолиятни такомиллаштириш профилактика инспекторларининг касбий салоҳиятини ошириш, идоралараро ҳамкорликни кучайтириш ва илмий асосланган ёндашувларни жорий этишни талаб этади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Қонуни.
4. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – тараққиёт ва фаровонлик гарови. – Т.: Ўзбекистон, 2021.
5. Криминология ва ҳуқуқбузарликлар профилактикаси: дарслик / Муаллифлар жамоаси. – Т.: TDYU нашриёти, 2022.
6. Ўрақов Ж. Р. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситаларининг ўрни //innovative achievements in science 2024. – 2025. – т. №.40. – с. 48-51.
7. Baxramovich B. A. Et al. Profilaktika inspektorining jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarni oldini olishda hamkorligi //innovation in the modern education system. – 2025. – т. 6. – №. 52. – с. 304-307.
8. Rustamalievich, O‘raqov Jasur. "Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda toifalanishining tartibi va uning huqubuzarliklarni oldini olishdagi ahamiyati." innovation in the modern education system 6.52 (2025): 299-303.
9. Rustamalievich, O‘raqov Jasur. "Profilaktika inspektorining probatsiya xizmati bilan xamkorligi." innovation in the modern education system 6.52 (2025): 308-312.

10. Ўрақов Ж. Р. Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш ва амалга оширишнинг муаммолари //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 44-50.

ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАР ПРОФИЛАКТИКАСИ СОҲАСИДА МУВОФИҚЛАШТИРИШ ФАОЛИЯТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Ўрақов Жасур Рустамалиевич
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти кафедраси ўқитувчиси, майор.

Исақов Мухаммадрасул Муроджон ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 3-босқич курсанти.

Аннотация. Мазкур мақолада ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида мувофиқлаштириш фаолиятининг назарий-ҳуқуқий асослари, уни амалга оширишдаги долзарб муаммолар ҳамда ушбу соҳани такомиллаштиришга қаратилган илмий-амалий таклифлар таҳлил қилинган. Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини таъминлашда давлат органлари, маҳаллий ҳокимият, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар ва фуқаролик жамияти институтлари ўртасидаги ўзаро ҳамкорликни кучайтириш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган. Мақолада хорижий тажриба таҳлили асосида миллий қонунчилик ва амалиётни такомиллаштириш йўллари асослаб берилган.

Калит сўзлар: ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, мувофиқлаштириш фаолияти, профилактика субъектлари, жамоат хавфсизлиги, идоралараро ҳамкорлик, маҳалла институти.

Annotation. This article analyzes the theoretical and legal foundations of coordination activities in the field of crime prevention, current problems in its implementation, and scientific and practical proposals aimed at improving this area. In the Republic of Uzbekistan, special attention is paid to strengthening cooperation between state bodies, local authorities, law enforcement agencies, and civil society institutions in ensuring the prevention of offenses. The article substantiates ways to improve national legislation and practice based on the analysis of foreign experience.

Keywords: crime prevention, coordination activities, prevention subjects, public safety, interagency cooperation, mahalla institute.

Ҳозирги глобаллашув ва ижтимоий муносабатлар жадал ривожланаётган шароитда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш масаласи давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Айниқса, ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда турли давлат органлари, маҳаллий ҳокимият органлари, жамоат ташкилотлари ҳамда фуқаролик жамияти институтлари ўртасидаги мувофиқлаштириш фаолияти самарадорлиги ҳал қилувчи аҳамият касб этади.

Ўзбекистон Республикасида сўнгги йилларда профилактика фаолиятини институционал жиҳатдан такомиллаштириш, уни илмий асосда ташкил этиш ҳамда субъектлар ўртасидаги ҳамкорликни кучайтиришга қаратилган кенг кўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Бироқ амалиёт шуни кўрсатадики, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида мувофиқлаштириш механизмининг етарлича аниқ ва самарали ишламаётган жиҳатлари ҳам мавжуд. Шу боис мазкур мақолада ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида мувофиқлаштириш фаолиятининг назарий-ҳуқуқий асослари, амалдаги муаммолари ва уни такомиллаштириш йўллари илмий-амалий жиҳатдан таҳлил қилинади.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасида мувофиқлаштириш фаолияти тушунчаси ва унинг аҳамияти

Ҳуқуқбузарликлар профилактикасида мувофиқлаштириш фаолияти деганда, профилактика субъектларининг мақсад, вазифа ва ваколатларини ўзаро мувофиқлаштириш, уларнинг ҳаракатларини бир-бирига боғлаш ҳамда такрорланиш ёки ваколатлар тўқнашувининг олдини олишга қаратилган бошқарув фаолияти тушунилади. Мувофиқлаштириш фаолиятининг асосий мақсади – ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этишда комплекс ёндашувни таъминлашдир. Бу эса:

- профилактика тадбирларининг тизимлилиги;
- ахборот алмашинувининг самарадорлиги;
- ресурслардан оқилона фойдаланиш;
- масъулиятнинг аниқ тақсимланиши каби омиллар орқали намоён бўлади.

Мувофиқлаштириш самарали йўлга қўйилмаган шароитда эса профилактика чора-тадбирлари эпизодик тус олади, давлат органлари фаолиятида параллеллик ва формализм кучаяди, натижада ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда кутилган самарага эришилмайди.

Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини мувофиқлаштиришнинг ҳуқуқий асослари, Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини мувофиқлаштиришнинг ҳуқуқий

асослари, аввало, Конституция қоидалари, соҳавий қонунлар, Президент фармон ва қарорлари ҳамда Вазирлар Маҳкамасининг норматив-ҳуқуқий ҳужжатларида мустаҳкамланган.

Хусусан, «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонунда профилактика субъектлари, уларнинг ваколатлари ва ўзаро ҳамкорлик асослари белгилаб берилган. Ушбу қонунда ички ишлар органлари профилактика соҳасида мувофиқлаштирувчи асосий субъект сифатида эътироф этилган бўлиб, бошқа давлат органлари ва ташкилотлари билан ҳамкорликда иш олиб бориши назарда тутилган.

Шунингдек, Президентнинг жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини кучайтиришга қаратилган қатор фармон ва қарорларида ҳудудий даражада мувофиқлаштириш кенгашларини ташкил этиш, маҳалла институти ролини ошириш ҳамда идоралараро ахборот алмашинувини йўлга қўйиш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

Бироқ ҳуқуқий асослар мавжудлигига қарамасдан, уларни амалга ошириш механизми ҳамиша ҳам етарлича самарали эмаслиги кузатилмоқда.

Мувофиқлаштириш фаолиятидаги мавжуд муаммолар, Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида мувофиқлаштириш фаолиятини амалга оширишда қуйидаги асосий муаммоларни кўрсатиш мумкин:

Биринчидан, профилактика субъектлари ўртасида ваколатларнинг аниқ чегараланмаганлиги. Айрим ҳолларда бир хил вазифалар бир нечта органлар томонидан амалга оширилади ёки, аксинча, муайян вазифалар «масъулиятсиз зона»да қолиб кетади.

Иккинчидан, идоралараро ахборот алмашинувининг етарлича йўлга қўйилмаганлиги. Электрон маълумотлар базалари ўртасида интеграциянинг паст даражада эканлиги профилактика тадбирларини режалаштириш ва таҳлил қилишда қийинчиликлар туғдиради.

Учинчидан, мувофиқлаштириш фаолиятининг кўп ҳолларда формал тус олиши. Йиғилишлар ва кенгашлар ўтказилишига қарамасдан, уларда қабул қилинган қарорлар ижроси устидан самарали назорат механизми мавжуд эмас.

Тўртинчидан, маҳалла ва жамоат ташкилотларининг профилактика жараёнига тўлиқ жалб этилмаганлиги.

Ҳолбуки, айнан ушбу институтлар аҳоли билан бевосита ишлаш имкониятига эга бўлиб, ҳуқуқбузарликларнинг илдиз сабабларини аниқлашда муҳим аҳамият касб этади. Хорижий тажриба ва унинг аҳамияти, ривожланган хорижий давлатлар тажрибаси шуни кўрсатадики, ҳуқуқбузарликлар профилактикасида мувофиқлаштириш фаолиятини самарали ташкил этишда

марказлашган бошқарув билан бир қаторда маҳаллий даражада мустақиллик ва жавобгарликни ошириш муҳим ҳисобланади.

Масалан, айрим Европа давлатларида профилактика соҳасида ягона миллий стратегия ишлаб чиқилиб, уни амалга ошириш учун турли соҳавий органлар ўртасида аниқ индикаторлар ва ҳисобдорлик тизими жорий этилган. Шунингдек, ахборот технологияларидан фойдаланган ҳолда «эрта огоҳлантириш» механизмлари ишлаб чиқилган бўлиб, бу ҳуқуқбузарлик хавфини олдиндан аниқлаш имконини беради.

Ушбу тажрибаларни миллий ҳуқуқий тизимимизга мослаштирган ҳолда жорий этиш мувофиқлаштириш фаолияти самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида мувофиқлаштириш фаолиятини такомиллаштириш йўллари, юқоридаги таҳлиллардан келиб чиққан ҳолда, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида мувофиқлаштириш фаолиятини такомиллаштириш бўйича қуйидаги таклифларни илгари суриш мумкин:

Биринчидан, профилактика субъектларининг ваколатларини қайта кўриб чиқиш ва уларни аниқ регламентлаштириш зарур. Бу вазифаларнинг такрорланиши ва масъулиятнинг ноаниқлигини бартараф этади.

Иккинчидан, идоралараро ахборот алмашинувининг ягона электрон платформасини жорий этиш мақсадга мувофиқ. Ушбу платформа орқали профилактика ҳолати, хавф гуруҳлари ва амалга оширилаётган чора-тадбирлар ҳақида тезкор маълумот олиш имкони яратилади.

Учинчидан, мувофиқлаштириш кенгашлари фаолиятини натижавийликка йўналтириш лозим. Қабул қилинган қарорлар ижроси бўйича аниқ муддатлар, масъуллар ва баҳолаш мезонлари белгиланиши шарт.

Тўртинчидан, маҳалла институти ва жамоатчилик назоратини кучайтириш орқали профилактика тадбирларининг ижтимоий самарадорлигини ошириш мумкин.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида мувофиқлаштириш фаолиятини такомиллаштириш давлатнинг жамоат хавфсизлигини таъминлашга қаратилган стратегик вазифаларидан бири ҳисобланади. Мазкур фаолиятни илмий асосда ташкил этиш, ҳуқуқий механизмларни такомиллаштириш ҳамда замонавий ахборот технологияларини жорий этиш орқали ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда барқарор ва узоқ муддатли натижаларга эришиш мумкин.

Шу маънода, профилактика соҳасида мувофиқлаштириш фаолиятини ривожлантириш нафақат ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, балки бутун жамиятнинг ҳамкорликдаги масъулияти сифатида қаралиши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2023.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги Қонуни.
3. Ўзбекистон Республикасининг «Хотин-қизларни тазйиқ ва зўравонликдан ҳимоя қилиш тўғрисида»ги Қонуни.
4. Ички ишлар органлари фаолиятини мувофиқлаштириш масалалари бўйича илмий мақолалар тўплами. – Т.: 2020–2024.
5. Хорижий давлатларда жиноятчиликнинг олдини олиш амалиёти: қиёсий-ҳуқуқий таҳлил. – Илмий журнал мақолалари тўплами.
6. Ўрақов Ж. Р. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситаларининг ўрни //innovative achievements in science 2024. – 2025. – т. №.40. – с. 48-51.
7. Baxramovich B. A. Et al. Profilaktika inspektorining jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbuzarliklarni oldini olishda hamkorligi //innovation in the modern education system. – 2025. – т. 6. – №. 52. – с. 304-307.
8. Rustamalievich, O‘raqov Jasur. "Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda toifalanishining tartibi va uning huqubuzarliklarni oldini olishdagi ahamiyati." *innovation in the modern education system* 6.52 (2025): 299-303.
9. Rustamalievich, O‘raqov Jasur. "Profilaktika inspektorining probatsiya xizmati bilan xamkorligi." *innovation in the modern education system* 6.52 (2025): 308-312.
10. Ўрақов Ж. Р. Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликлар профилактикасини ташкил этиш ва амалга оширишнинг муаммолари //Journal of new century innovations. – 2023. – Т. 21. – №. 4. – С. 44-50.

ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ ФЕРМЕРСКИХ ХОЗЯЙСТВ ПЕРЕДОВЫХ СТРАНАХ И МЕРЫ ПО ВНЕДРЕНИЮ В УСЛОВИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

У.Р.Сиддиков
Самостоятельный исследователь
Тел. 90-951-72-75
u_siddiqov@mail.ru

Аннотация. В статье рассматриваются современные тенденции развития фермерских хозяйств в зарубежных странах, их структурная трансформация, роль государственной поддержки и кооперативных форм организации производства. На основе данных ФАО, ОЭСР, Евростата и национальных статистических органов выявлены ключевые факторы укрупнения фермерских хозяйств, усиления кооперативно-интеграционных связей и повышения устойчивости аграрного сектора. Особое внимание уделено анализу проводимых в Республике Узбекистан реформ в сфере поддержки фермерства и развитию сельскохозяйственной кооперации. Статья содержит обзор существующих научных дискуссий по вопросам концентрации земельных ресурсов, эффективности государственных субсидий и кооперативного механизма, а также формулирует предложения по совершенствованию институциональной среды функционирования фермерских хозяйств с учетом международного опыта.

Ключевые слова: фермерские хозяйства, аграрный сектор, государственная поддержка, кооперация, аграрные реформы, продовольственная безопасность, Республика Узбекистан.

Annotatsiya. Maqolada xorijiy mamlakatlarda fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari, ularning tuzilma jihatidagi transformatsiyasi, davlat tomonidan ko‘rsatiladigan qo‘llab-quvvatlash va ishlab chiqarishni kooperativ shakllarda tashkil etish roli ko‘rib chiqilgan. FAO, OECD, Eurostat va milliy statistika organlarining ma’lumotlari asosida fermer xo‘jaliklarining kengayishi, kooperativ-integratsion aloqalarning mustahkamlanishi va qishloq xo‘jaligi sektorining barqarorligini oshirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan. Maxsus e’tibor O‘zbekiston Respublikasida fermerlikni qo‘llab-quvvatlash va qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish sohasida olib borilayotgan islohotlarni tahlil qilishga qaratilgan. Maqolada shuningdek, yer resurslarini kontsentratsiyalash, davlat subsidiyalarining samaradorligi va kooperativ mexanizmlar bo‘yicha mavjud ilmiy munozaralar ko‘rib chiqilgan va xalqaro tajribani inobatga olgan holda fermer xo‘jaliklarini samarali faoliyat

yuritishi uchun institutsional muhitni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: fermer xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi sektori, davlat qo‘llab-quvvatlashi, kooperatsiya, agrar islohotlar, oziq-ovqat xavfsizligi, O‘zbekiston Respublikasi.

Abstract. The article examines current trends in the development of farming enterprises in foreign countries, their structural transformation, as well as the role of state support and cooperative forms of production organization. Based on data from FAO, the OECD, Eurostat, and national statistical authorities, the study identifies key factors contributing to the enlargement of farming enterprises, the strengthening of cooperative and integration linkages, and the enhancement of sustainability in the agricultural sector. Particular attention is paid to the analysis of ongoing reforms in the Republic of Uzbekistan aimed at supporting farming activities and developing agricultural cooperation. The article also provides an overview of existing academic debates on land concentration, the effectiveness of state subsidies, and cooperative mechanisms, and formulates recommendations for improving the institutional environment for the functioning of farming enterprises, taking into account international experience.

Keywords: farming enterprises, agricultural sector, state support, cooperation, agrarian reforms, food security, Republic of Uzbekistan.

Фермерские хозяйства выступают одной из наиболее эффективных организационно-экономических форм производства сельскохозяйственной продукции и играют ключевую роль в обеспечении продовольственной безопасности государств[1]. Международная практика подтверждает, что фермерский уклад способствует устойчивому развитию сельских территорий, занятости населения и рациональному использованию земельных ресурсов[2]. При этом, как отмечают мировые аналитики, различие между мелкими, средними и крупными хозяйствами требует дифференцированной государственной политики и поддержки[3]. Согласно данным журнала *World Development*, около 70 % всех ферм имеют площадь менее 2 гектаров и управляют лишь 7% сельскохозяйственных земель, в то время как 1% крупнейших хозяйств с площадью более 50 гектаров контролируют более 70% мировых сельхозугодий, при этом более 20% этих земель сосредоточено в хозяйствах площадью свыше 1 тыс. гектаров[4]. Такие данные иллюстрируют глобальный процесс концентрации земельных ресурсов, который обсуждается в научной литературе как фактор повышения производительности и одновременно как источник социального неравенства[5]. По мнению некоторых исследователей, концентрация земель позволяет улучшить финансовую

устойчивость крупных хозяйств и внедрять инновационные технологии, тогда как другие авторы указывают на риск сокращения возможностей для мелких фермеров и локальных сообществ[6].

Семейные фермерские хозяйства сохраняют доминирующее положение в мировом сельском хозяйстве. По данным ФАО, в мире насчитывается более 600 млн семейных фермерских хозяйств, которые используют 70–80% сельхозугодий и производят около 80% продовольствия по стоимостному выражению[2]. В то же время эксперты подчеркивают, что в условиях глобализации и растущих цен на ресурсы семейные фермеры сталкиваются с проблемой выживания на рынке, что обусловливает необходимость институциональной поддержки и кооперации[7].

В последние годы наблюдается тенденция укрупнения фермерских хозяйств в странах с развитой экономикой. В США число хозяйств сократилось с более чем 2 млн в 2017 г. до 1,8 млн в 2022 г., при этом средняя площадь фермы увеличилась с 178 до 187 гектаров, а 1% крупнейших хозяйств производят почти 40% товарной продукции[3]. В Канаде численность фермерских хозяйств снизилась на 40% по сравнению с 1981 г., средняя площадь увеличилась до 332 гектаров, а в ЕС количество хозяйств уменьшилось с 14,4 до 9,1 млн единиц[4]. Как отмечают ученые, укрупнение повышает экономическую устойчивость, снижает удельные издержки и способствует росту экспортного потенциала[8]. Вместе с тем ведутся дискуссии о социальной стоимости укрупнения: с одной стороны, крупные хозяйства эффективнее используют ресурсы и технологии, с другой – происходит сокращение занятости мелких фермеров, что требует корректировки государственной политики[9].

Государственная поддержка является критическим инструментом устойчивого функционирования фермерских хозяйств. В странах ЕС субсидии достигают 45–70% стоимости продукции, в Норвегии – около 60%, в Японии и Финляндии – до 70%, в России – 3,5%. В США расходы на фермерские хозяйства в расчете на единицу продукции на 30% выше, чем в других секторах, в Канаде компенсируются до 25% расходов фермеров[5]. Согласно данным ОЭСР, в 2020–2022 гг. совокупный объем государственной поддержки в 54 странах достиг 851 млрд долл., из которых 518 млрд долл. – прямое субсидирование, 333 млрд долл. – меры регулирования цен[6]. Полемика в научной литературе касается степени эффективности таких субсидий: одни авторы считают, что они стимулируют инновации и стабильность доходов, другие указывают на искажение рыночных сигналов и зависимость фермеров от государства[10].

Кооперативно-интеграционные формы объединения хозяйств играют важную роль в повышении конкурентоспособности и устойчивости сектора. Кооперативы позволяют участникам совместно владеть и управлять ресурсами, аккумулировать капитал, снижать риски и обеспечивать доступ к технологиям и рынкам[6]. Крупнейшие примеры – финская Valio, новозеландская Fonterra, немецкая DMK, американская Dairy Farmers of America и нидерландская FrieslandCampina – демонстрируют, что кооперативы повышают эффективность производства и сбыта продукции[7]. В ЕС кооперативы объединяют до 80% хозяйств и производят 60% продовольствия, в США – около 30%, в Японии – до 90%, в Скандинавии – до 80%[7]. Исследователи подчеркивают, что эффективность кооперации зависит от организационных структур, прозрачности управления и наличия правовой базы[11].

В Республике Узбекистан проводится постепенная реформа системы поддержки фермерских хозяйств. С 2018 г. введены субсидии на электроэнергию для насосов и оросительных скважин, программы поддержки водосберегающих технологий и частичного возмещения стоимости сельхозтехники. Развитие кооперативного движения находится на начальной стадии: зарегистрировано 38 кооперативов, функционирует лишь часть из них. Международный опыт позволяет утверждать, что расширение кооперативного механизма способствует объединению ресурсов, инвестициям в инфраструктуру, внедрению технологий и повышению конкурентоспособности[11]. В этой связи актуально принятие новой редакции Закона «О сельскохозяйственном кооперативе», направленного на формирование устойчивой правовой и экономической основы кооперации, что будет способствовать росту роли фермерских хозяйств в экономике и обеспечению продовольственной безопасности страны.

Таким образом, анализ зарубежного опыта и текущих реформ в Узбекистане показывает, что устойчивое функционирование фермерских хозяйств достигается через сочетание процессов укрупнения, государственной поддержки и кооперативного объединения. Научная дискуссия подтверждает необходимость балансирования экономической эффективности и социальной справедливости, что должно быть отражено в дальнейшей государственной политике в аграрном секторе.

Список литературы

1. FAO. The State of Food and Agriculture. Rome: FAO, 2022.

2. OECD. Agricultural Policy Monitoring and Evaluation. Paris: OECD Publishing, 2023.
3. OECD. Monitoring and Evaluation of Agricultural Policy 2023. Paris: OECD Publishing, 2023.
4. USDA. Census of Agriculture 2022. Washington, DC, 2023.
5. Eurostat. Farm Structure Survey. Luxembourg, 2022.
6. World Development. Land inequality and agricultural productivity. 2021.
7. International Cooperative Alliance; FAO. Agricultural Cooperatives and Rural Development. Rome, 2020.
8. Carter M.R., Barrett C.B. The Economics of Farm Size. World Development, 2017.
9. Deininger K. Land Policies for Growth and Poverty Reduction. Oxford University Press, 2011.
10. Swinnen J.F.M., Squicciarini P. Public Policies and Farm Performance. Food Policy, 2012.
11. Bijman J., et al. Agricultural Cooperatives in Europe: Governance and Performance. Agricultural Economics, 2012.

ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ФОҲИШАЛИК БИЛАН ШУҒУЛЛАННИШНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА УМУМИЙ ВА МАХСУС ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ҚЎЛЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШ ФАОЛИЯТИ

Ўрақов Жасур Рустамалиевич
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти кафедраси ўқитувчиси, майор.

Абдурасулов Темурбек Шавкат ўғли
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 3-босқич курсанти.

Аннотация. Мазкур мақолада ички ишлар органлари тизимида фаолият юритувчи профилактика инспекторларининг фоҳишалик билан шуғулланишни олдини олишда умумий ва махсус профилактика чора-тадбирларини қўллаш амалиёти илмий-назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил қилинган. Фоҳишаликнинг ижтимоий хавфли ҳодиса сифатида жамият маънавий-ахлоқий муҳити, жамоат тартиби ҳамда аҳоли хавфсизлигига салбий таъсири очиб берилган. Шунингдек, профилактика инспекторларининг ҳуқуқий мақоми, ваколатлари, ҳамкорлик механизмлари ва индивидуал профилактика усуллари ёритилган. Мақолада қонунчилик ва амалиёт таҳлили

асосида профилактика фаолиятини такомиллаштиришга қаратилган илмий хулоса ва амалий таклифлар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: профилактика инспектори, фоҳишалик, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси, умумий профилактика, махсус профилактика, индивидуал профилактика, ички ишлар органлари.

Ҳозирги глобаллашув шароитида жамиятда маънавий-ахлоқий барқарорликни таъминлаш, аҳолининг ҳуқуқий онги ва маданиятини юксалтириш давлат сиёсатининг муҳим устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Шу нуқтаи назардан, ижтимоий салбий ҳодисалардан бири бўлган фоҳишалик билан шуғулланишнинг олдини олиш масаласи алоҳида долзарблик касб этмоқда.

Фоҳишалик жамиятда жамоат тартиби, аҳоли соғлиги ва маънавий муҳитга жиддий таҳдид солувчи омил сифатида намоён бўлади. Унинг кенгайиши кўп ҳолларда ишсизлик, ижтимоий тенгсизлик, оилавий муаммолар, ҳуқуқий онгнинг пастлиги ва маънавий тарбиядаги бўшлиқлар билан боғлиқ бўлади. Мазкур ҳолат фоҳишаликнинг олдини олишда фақат жазо чоралари эмас, балки комплекс профилактика механизмларини қўллаш зарурлигини тақозо этади.

Ўзбекистон Республикасида ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда ички ишлар органлари, айниқса профилактика инспекторлари етакчи субъектлардан бири ҳисобланади. Уларнинг фаолияти ҳудудда ҳуқуқбузарликларни барвақт аниқлаш, сабаб ва шарт-шароитларни бартараф этиш ҳамда хавф гуруҳидаги шахслар билан манзилли ишлашга қаратилган.

Фоҳишалик – шахснинг моддий манфаат эвазига жинсий хизмат кўрсатиши билан боғлиқ бўлган ижтимоий салбий ҳодиса бўлиб, у жамиятнинг умумэътироф этилган ахлоқ нормаларига зид ҳисобланади. Ушбу ҳодиса кўпинча бошқа ҳуқуқбузарлик ва жиноятлар, жумладан одам савдоси, гиёҳвандлик воситаларининг ноқонуний айланмаси, уюшган жиноятчилик билан узвий боғлиқ ҳолда намоён бўлади.

Фоҳишаликнинг тарқалиши аҳоли ўртасида соғлом турмуш тарзига салбий таъсир кўрсатиб, жамиятда ижтимоий кескинликни кучайтиради. Шу сабабли мазкур ҳодисанинг олдини олиш ҳуқуқий, ижтимоий ва маънавий таъсир чораларининг уйғун тизимини талаб этади.

Умумий профилактика фоҳишалик билан шуғулланишга олиб келувчи сабаб ва шарт-шароитларни бартараф этишга қаратилган чора-тадбирлар мажмуасини ўз ичига олади. Профилактика инспекторлари томонидан амалга ошириладиган умумий профилактика қуйидаги асосий йўналишларда намоён бўлади:

– аҳоли ўртасида ҳуқуқий тарғибот ва тушунтириш ишларини тизимли равишда ташкил этиш;

– ёшлар ва хотин-қизлар ўртасида маънавий-ахлоқий тарбияни кучайтиришга қаратилган тадбирлар ўтказиш;

– таълим муассасалари, маҳалла фуқаролар йиғини ва жамоат ташкилотлари билан ҳамкорликда профилактик учрашувлар ташкил этиш;

– оммавий ахборот воситалари орқали фоҳишаликнинг салбий ижтимоий ва ҳуқуқий оқибатларини ёритиш.

Умумий профилактика доирасида профилактика инспектори ҳудуддаги криминоген вазиятни таҳлил қилади, хавфли омилларни аниқлайди ва уларни бартараф этиш бўйича тегишли субъектлар билан ҳамкорликда чоралар кўради.

Махсус профилактика фоҳишалик билан шуғулланишга мойил бўлган ёки бевосита ушбу ҳуқуқбузарликни содир этаётган шахсларга нисбатан қўлланилади. Мазкур йўналишда профилактика инспекторларининг фаолияти қуйидагиларда ифодаланади:

– профилактик ҳисобга олинган шахслар билан якка тартибда суҳбатлар ўтказиш;

– уларнинг ижтимоий-руҳий ҳолатини ўрганиш ва тегишли ташкилотларга йўналтириш;

– меҳнат билан бандликка кўмаклашиш ва ижтимоий реабилитация чораларини кўриш;

Аннотация. В данной статье на примере деятельности выдающегося представителя джадидского движения Махмудходжи Бехбуди рассматриваются вопросы формирования национальной идентичности. Анализируется социально-политическое и культурное положение народов Туркестана в период российской колониальной политики, практика национального угнетения и просветительская борьба джадидов против нее. Идеи Бехбуди о просвещении, национальном единстве, самосознании и

независимости раскрываются на основе исторических источников, а также обосновывается их актуальность в условиях современных пропаганды.

Ключевые слова: джадидизм, Махмудходжа Бехбуди, национальная идентичность, колониализм, национальное сознание, просвещение.

Abstract. This article analyzes the issues of national identity formation through the activities of Mahmudhoja Behbudi, one of the prominent figures of the Jadid movement. The study examines the socio-political and cultural conditions of the peoples of Turkestan during the period of Russian colonial rule, the policy of national discrimination, and the educational and ideological struggle of the Jadids. Behbudi's ideas on education, national unity, self-awareness, and independence are analyzed based on historical sources, highlighting their relevance in countering modern external propaganda.

Keywords: Jadidism, Mahmudhoja Behbudi, national identity, colonialism, national consciousness, enlightenment.

Kirish. Mamlakatimiz mustaqil davlat sifatida tarix sahnasiga chiqqaniga qariyb 35 yil bo‘ldi. Bu davr mobaynida mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan murakkab, ammo muhim taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tdi. Eng asosiysi, o‘z konstitutsiyaviy tuzumi, suvereniteti va milliy manfaatlariga asoslangan mustaqil yo‘lni tanladi. Biroq mustaqillik faqat hujjatlar bilan emas, balki uni doimiy ravishda himoya qilish, anglash va mustahkamlash bilan yashaydi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonning axborot makonida xavotirli holatlar tobora ko‘zga tashlanmoqda. Xususan, Rossiya ommaviy axborot vositalari va ayrim siyosiy-ideologik doiralarga yaqin shaxslar tomonidan Markaziy Osiyo, jumladan O‘zbekiston suvereniteti va hududiy yaxlitligiga nisbatan ochiq yoki bilvosita tahdidli chaqiriqlar yangramoqda. Bu chaqiriqlar “xavfsizlik”, “ta’sir doirasi”, “tarixiy hududlar” kabi tanish propagandistik iboralar bilan o‘ralgan bo‘lsa-da, ularning mohiyati bir mustaqil davlatlar irodasini inkor etishdir. Turli xil jamoat, media va ko’zga ko’ringan shaxslarning bayonotlari tasodifiy fikrlar emas, balki Rossiya propagandasining sinovdan o‘tgan usullaridan biri sifatida ko‘rilmoqda. Avval axborot maydonida g‘oya tashlanadi, jamoatchilik reaksiyasi kuzatiladi, so‘ngra zaruratga qarab u “shaxsiy fikr” deya yumshatiladi yoki yangi bosqichga olib chiqiladi. Ayni shu ssenariy Ukrainaga qarshi urushdan oldin ham yillar davomida qo‘llanilgani bugun hammaga ayon. Shu bois bugungi tahdid tanklar bilan emas, avvalo so‘z, efir va ekranlar orqali kirib kelmoqda. Axborot makonidagi bunday tajovuzlarga befarq qarash suverenitetga beparvo qarash bilan barobardir. Mustaqillikni asrash bugun nafaqat chegaralarda, balki onglarimizda ham kurash olib borishni talab qilmoqda.

Asosiy qism. Qirq yil davom etgan bosqinchilik urushi mahalliy xalqning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotini butunlay izdan chiqardi. Xonlik va amirliklar

davrida iqtisodiy nochor yashagan, ijtimoiy ongi va madaniy darajasi faqat nadomat tuyg'ularini uyg'otadigan tub ahvol mustamlakachilik tufayli tanazzulga yuz tutdi. Bu xol nafaqat madaniy va ijtimoiy jihatdan o'sish, balki kundalik ro'zg'or ebratishni ham mushkul ishga aylangan. Mustamlaka hukumat olib borgan ijtimoiy-siyosiy hayotni faqatgina og'irlashtirgan. "Tong oldidan" filmi, shuningdek, Abdulla Qahhorning "Tomoshabog'" hikoyasida Toshkent va boshqa shaharlarda bunyod etilgan madaniyat va istirohat bog'lariga mahalliy xalq vakillari kiritilmagani tasvirlangan. Rus bo'lmaganlar gubernatorlikdagi bal va boshqa rasmiy marosimlarga yaqin yo'latilmagan. Toshkent markazidagi sobiq chor tomoshabog'ining oldida esa "Sartam i sobakam vxod zapreshchayetsya" ("Sartlar va itlarga kirish taqiqlanadi") yozuvi osig'liq turgan.[1]. Bu kabi mahalliy xalqni kamsitishga qaratilgan juda ko'p misollar bor. Asosiy ko'chalarda milliy kiyimda yurish mumkin emasligi, transportlarda mahallliy aholi uchun maxsus o'rindiqsiz joy ajratilgani va hakozo.[2] Lekin bu xunrezliklarga qarshi chiqa olish uchun xalq tayyor emas edi. Moziyga nazar solsak, tarixning istalgan vaqtida jamiyatni isloh qiluvchi, yetaklovchi shaxslar sahnaga kelgan. Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy muommolarni yechish, til muhofazasi, milliylikni saqlash uchun bel bog'laganlarni xal "jadidlar" deb atadi. Jadidlar bu yangi tashkil topgan faoliyat emas, shu paytgacha mavjud masalalarni yangi shaklda namoyon bo'lishi edi. Jadidlarning asosiy maqsadi ta'lim va tarbiyani atrofdagi Ovro'paga moslashtirish emas balki, Ovro'pa madaniyatini o'rganib uni milliy madaniyatga xizmat qildirish edi. Ziyo Ko'kalpga ko'ra: zamonaviy-lashkok degani ovro'paliklar kabi zirxlilar, avtomobillar va uchoqlar yasash va ularni ishlata bilishdir, zamonaviylashmoq suratda va ko'rinishda bir xil bo'lish degani emas" degan fikrlarni aytadi. [3] Turkistondagi jadidchilik mohiyati ham Ko'kalp so'zlari ma'nosining ifodasi edi. Aynan milliy o'zlikni va tilni asrabgina mustaqillikdek ne'matga erishish mumkinligi g'oyalari yetakchisi Mahmudxo'ja Behbudiy edi. Ilk maqolasidayoq kommunistik mafkurani keskin rad etgan, "hayoliy", "bu toifaga qo'shulmoq biz, musulmonlar uchun nihoyatda zararlik" deb yozgan edi "Xayrul umuri avsatuxo – "Ishlarning yaxshisi o'rtachasidir" nomli Xurshid gazetasining 1906-yilgi 6-sonida. Shuningdek, o'zlikni anglashni muhim deb biladi. "Qabilasining ismini va yeti otasining otini bilmaydurg'onlarni "markuk" derlar" deb yozadi "Sart so'zi majhuldir" nomli maqolasida[4]. Shu o'rinda tarix fanlari doktori Hamid Ziyoyevning "Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash" kitobiga murojaat

[1] Rustam Sharipov, *Turkiston jadidchilik harakati tarixidan*, Toshkent, "O'qituvchi", 2002-yil, 11-bet.

[2] *Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.* T., «Universitet», 1999, 13–14-betlar.

[3] Ziyo Ko'kalp, "Turklashmoq-islomlashmoq",1974, 14-15 bet

[4] Dunyodan xabardor ma'rifatparvar", N.Nomozova "Tanlangan asarlar" 18.01.2017

etish o‘rinlidir. “Rus hukumati, Turkiston o‘lkasini uch qismga bo‘lgan holda mustamlaka bo‘g‘uvida ushlab turardi. O‘lkani bu tarzda parchalashdan maqsad o‘zbeklar, tojiklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar va qoraqalpoqlarning birdamligiga va katta bir oilaga birlashishlariga yo‘l qo‘ymaslikdan iborat edi. Xuddi shu maqsadni ko‘zlagan holda bosqinchilar milliy nizo urug‘larini sochib turdilar[5]. Mustamlaka hokimiyatdan uzluksiz bosim va ta’qiblarga qaramasdan Vatan taqdiri kun tartibiga qo’yilgan 1917-yilning 16-23-aprel kunlari Toshkentda bo’lib o’tgan Turkiston musulmonlarining 150 vakildan iborat qurultoyida nutq so’zlaydi. Millatni o’zaro ixtiloflardan voz kechishga, buyuk maqsad yo’lida birlasishga, ittifoq bo’lishga chaqirdi. Xuddi shu ixtilofimiz sababli “mustamlakot qoidasi ila bizni idora eturlar” deb ochiq aytdi.[6] Volterning fikriga ko’ra “Insoniyat uchun katta jasorat ko’rsatgan insongina buyuk bo’lishi mumkin.” Matboutdagi har bir yozgan mulohazasi uchun taraqqiyparvarlar qatl qilinayotgan bir vaqtda “Haq olinur, berilmas” maqolasida qozoq qardoshlarimizni birlikka chaqiradi. Ushbu keltirilgan fikrlar Behbudiyni milliy ongni va o’zlikni saqlashni birinchi o’ringa qo’ygan jadidlarimizdan ekanini ko’rsatadi.

Xulosa. Behbudiy mustamlakachilikka qarshi kurashning eng samarali yo‘li qurol emas, balki ilm, tafakkur va iqtisodiy mustaqillik ekanini ta’kidlagan edi. Bugun Rossiya propagandasiga qarshi eng muhim chora sifatida ta’limni kuchaytirish, malakali kadrlar tayyorlash zarurati aynan shu behbudiyona fikrning zamonaviy talqinidir. Agar yoshlar faqat bir davlat mehnat bozoriga qaram bo‘lib qolsa, bu siyosiy bosim uchun qulay vositaga aylanadi. Behbudiy esa millat taraqqiyotini kasb, bilim va dunyoqarash kengligi bilan bog‘lagan. Xorijlik shaxslarning O‘zbekiston suverenitetiga qarshi ochiq bayonotlariga huquqiy va diplomatik javob berish masalasida ham Behbudiy aniq pozitsiyada bo‘lgan: milliy sha’n va davlat manfaatlari doim himoya qilinishi shart. Jimlik - rozilik emas, balki zaiflik belgisi sifatida qabul qilinishini u yaxshi anglagan. Demak, bugun oldimizda turgan vazifa - Behbudiy aytganidek, “uyg‘onish”. Axborot xurujlariga befarq bo‘lmaslik, mustaqillikni faqat bayramlarda emas, har kuni fikr, bilim va siyosiy hushyorlik bilan himoya qilishdir. Aks holda, jadidlar ogohlantirgan tarixiy xatolar yana takrorlanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rustam Sharipov, Turkiston jadidchilik harakati tarixidan, Toshkent, “O’qituvchi”, 2002-yil https://in-academy.uz/index.php/cajei/article/download/11355/8131/8191

[5] Rustam Sharipov, *Turkiston jadidchilik harakati tarixidan*, Toshkent, “O’qituvchi”, 2002-yil, 12-13-bet.

[6] Mahmudxo’ja Behbudiy,”Yoshlar nashriyot uyi”, 2022, 20-21-betlar

2. Toshkent Davlat Sharqshunoslik univeristeti jadidshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi "Mahmudxo'ja Behbudiy ilmiy-adabiy merosini o'rganishning dolzarb masalalari" mavzusidagi davra suhbati.materiallari https://aps.tsuos.uz/storage/users/137/books/FfVWGZMYvUXaoKiGaYoHVHjvvsWxmnpztNAZsgl5.pdf
3. Boymirza Hayit, Turkistonda jadidchilik va uning tugatilishi https://kh-davron.uz/kutubxona/jadidlar-kutubxona/boymirza-hayit-turkistonda-jadidchilik-va-uning-tugatilishi.html
4. Begali Qosimov, M.Behbudiy, "Tanlangan asarlar" 1999. https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/19-yanvar-buyuk-marifastchi-mahmudxoja-behbudiy-1875-1919-tugilgan-kun.html
5. Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalari https://kh-davron.uz/yangiliklar/mahmudxoja-behbudiy-maqolalar.html

ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ САБАБ ВА ШАРТ-ШАРОИТЛАРНИ БАРТАРАФ ЭТИШ ФАОЛИЯТИ

Боборахимов Аброр Баҳрамович
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти кафедраси катта ўқитувчиси, майор.

Эсиргапов С.А.
Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 3-босқич 308-гуруҳ курсанти.

Аннотация. Ушбу илмий мақолада ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш фаолиятининг назарий-ҳуқуқий асослари, криминологик мазмуни ҳамда амалиётда қўлланилиши масалалари илмий таҳлил этилган. Муаллиф ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи ижтимоий, иқтисодий, маънавий-ахлоқий, ҳуқуқий ва ташкилий омилларни тизимли равишда очиб беради. Шунингдек, ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларини аниқлаш, уларни бартараф этишга қаратилган умумий, махсус ва якка тартибдаги профилактика чора-тадбирларининг самарадорлиги баҳоланади. Мақолада ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, давлат ва нодавлат ташкилотлари, маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органлари ҳамда фуқаролик жамияти институтларининг ўзаро ҳамкорлиги муҳим аҳамият касб этиши асослаб берилган. Тадқиқот натижалари ҳуқуқбузарликлар

профилактикаси фаолиятини такомиллаштиришга доир илмий хулоса ва амалий таклифлар билан бойитилган.

Калит сўзлар: ҳуқуқбузарлик, сабаб ва шарт-шароитлар, профилактика, криминологик омиллар, ижтимоий муҳит, ҳуқуқий тартиб, профилактика субъектлари.

Ҳозирги глобаллашув шароитида жамият тараққиёти, фуқаролар хавфсизлиги ва ҳуқуқий тартиботни таъминлаш масалалари давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади. Бу жараёнда ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, айниқса уларнинг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш фаолияти алоҳида аҳамият касб этади. Зеро, ҳуқуқбузарлик оқибатлари билан курашишдан кўра, уни келтириб чиқараётган омилларни барвақт аниқлаш ва бартараф этиш самаралироқ ҳисобланади.

Ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш фаолияти нафақат ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар, балки барча давлат органлари, жамоат ташкилотлари ҳамда фуқароларнинг ўзаро ҳамкорлигини талаб қиладиган комплекс ижтимоий-ҳуқуқий жараёндир.

1. Ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитлари тушунчаси

Криминология фанининг асосий вазифаларидан бири ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларини аниқлашдан иборат. Сабаблар — муайян ҳуқуқбузарликнинг содир этилишига бевосита таъсир кўрсатувчи омиллар бўлса, шарт-шароитлар эса мазкур сабабларнинг амалга ошишига имконият яратувчи ижтимоий муҳит элементларидир.

Илмий адабиётларда ҳуқуқбузарликларнинг сабаблари қуйидаги гуруҳларга ажратилади:

ижтимоий-иқтисодий сабаблар;

маънавий-ахлоқий омиллар;

ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият даражаси;

ташкилий-бошқарув камчиликлари;

шахснинг индивидуал-психологик хусусиятлари.

2. Ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи ижтимоий омиллар

Жамиятдаги ижтимоий тенгсизлик, ишсизлик, камбағаллик, таълим ва тарбия тизимидаги муаммолар ҳуқуқбузарликларнинг асосий ижтимоий сабабларидан ҳисобланади. Айниқса, ёшлар ўртасида ҳуқуқий билимларнинг етарли эмаслиги ва ижтимоий назоратнинг сусайиши ҳуқуқбузарлик ҳолатларининг ортишига олиб келади.

Оила институтидаги муаммолар, носоғлом муҳит, болалар тарбиясига етарли эътибор қаратилмаслиги ҳам ҳуқуқбузарликларнинг шаклланишига салбий таъсир кўрсатади.

3. Ҳуқуқий омиллар ва ҳуқуқий маданиятнинг ўрни

Ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданият даражаси жамиятда қонунга итоаткорликни таъминловчи асосий омиллардан бири ҳисобланади. Қонунчиликдаги бўшлиқлар, ҳуқуқ нормаларининг амалда тўлиқ ишламаслиги, аҳоли ўртасида ҳуқуқий ахборотнинг етарли даражада тарқатилмаслиги ҳуқуқбузарликларни келтириб чиқарувчи шарт-шароитлардан ҳисобланади.

4. Ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш фаолиятининг субъектлари

Мазкур фаолиятни амалга оширишда қуйидаги субъектлар иштирок этади:

- ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар;
- давлат бошқаруви органлари;
- маҳаллий давлат ҳокимияти ва ўзини ўзи бошқариш органлари;
- таълим муассасалари;
- нодавлат нотижорат ташкилотлари ва жамоат бирлашмалари.

Уларнинг ўзаро ҳамкорлиги ҳуқуқбузарликларнинг олдини олишда муҳим аҳамият касб этади.

5. Профилактика чора-тадбирларининг турлари

Ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этишда умумий, махсус ва якка тартибдаги профилактика чора-тадбирлари қўлланилади. Умумий профилактика аҳолининг кенг қатламларига қаратилган бўлса, махсус профилактика муайян ижтимоий гуруҳлар билан ишлашни назарда тутади. Якка тартибдаги профилактика эса ҳуқуқбузарлик содир этиш эҳтимоли юқори бўлган шахсларга нисбатан амалга оширилади.

6. Амалиётдаги муаммолар ва уларни бартараф этиш йўллари

Амалиёт таҳлили шуни кўрсатадики, айрим ҳолларда профилактика чора-тадбирлари тизимли равишда амалга оширилмайди, субъектлар ўртасидаги ҳамкорлик етарли даражада йўлга қўйилмаган. Шу боис, ахборот алмашинувини кучайтириш, рақамли технологиялардан фойдаланиш ва жамоатчилик иштирокини ошириш зарур.

Хулоса. Хулоса қилиб айтганда, ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этиш фаолияти жамиятда қонун устуворлигини таъминлашнинг муҳим шарти ҳисобланади. Ушбу фаолиятни самарали ташкил этиш учун комплекс ёндашув, барча субъектларнинг ҳамкорлиги ва

ҳуқуқий маданиятни оширишга қаратилган тизимли чора-тадбирлар амалга оширилиши лозим. Илмий таҳлиллар асосида ишлаб чиқилган амалий таклифлар ҳуқуқбузарликлар профилактикаси самарадорлигини оширишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Боборахимов А. Б. Ички ишлар органлари ва фуқароларнинг ўзини-ўзи бошқариш органлари ҳамкорлигини “Хавфсиз маҳалла” тамойили асосида самарали ташкил этиш механизмлари //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 19. – №. 1. – С. 99-107.
2. Боборахимов А. Б. Ички ишлар органлари профилактика инспекторларининг “Сурункали алкоголизм, гиёҳвандлик ёки заҳарвандликка мубтало бўлган шахслар”ни мажбурий даволашга юбориш фаолияти //O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. – 2023. – Т. 2. – №. 23. – С. 334-338.
3. Боборахимов А., Қавомов А. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасида “Ижтимоий профилактика” тушунчаси ва уни амалга оширишдаги чора-тадбирлар тизими //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 34-38.
4. Ўрақов Ж. Р. Ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда оммавий ахборот воситаларининг ўрни //innovative achievements in science 2024. – 2025. – т. №.40. – с. 48-51.
5. Rustamalievich, O‘raqov Jasur. "Mahallalarni kriminogen vaziyatidan kelib chiqqan holda toifalanishining tartibi va uning huqubuzarliklarni oldini olishdagi ahamiyati." innovation in the modern education system 6.52 (2025): 299-303.
6. Rustamalievich, O‘raqov Jasur. "Profilaktika inspektorining probatsiya xizmati bilan xamkorligi." innovation in the modern education system 6.52 (2025): 308-312.

ANEKDOT MATNLARIDA IMPLIKATURANING PRAGMATIK FUNKSIYALARI VA KULGI MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna
Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
Xorijiy tillar kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: ruzmatova_gulnara@mail.ru
Orcid: 0009-0004-4414-3385

Annotatsiya. Mazkur tezisda anekdot matnlarida kulgi mexanizmining pragmatik asoslari H. P. Graysning kommunikativ niyat va implikatura nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda anekdotlarda aytilgan ma’no va ko‘zlangan ma’no o‘rtasidagi nomuvofiqlik kulgining asosiy manbai sifatida talqin qilinadi. Lingvopragmatik tahlil natijalari anekdotlarda kulgi bevosita ochiq mazmunda emas, balki adresat tomonidan inferensiya yo‘li bilan tiklanadigan yashirin ma’noda – implikaturada shakllanishini ko‘rsatdi. Grays maksimlarining ongli buzilishi kulgi mexanizmini yuzaga keltiruvchi asosiy omil sifatida belgilandi. Tadqiqot davomida anekdotlarda kinoyaviy, tanqidiy, sarkastik va paradoksal implikatura turlari aniqlanib, ularning kommunikativ niyat bilan uzviy bog‘liqligi asoslab berildi. Natijalar anekdotlarni nafaqat ko‘ngilochar matn, balki ijtimoiy baho beruvchi va kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi murakkab pragmatik birlik sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Keywords: anekdot diskursi, kulgi mexanizmi, implikatura, kommunikativ niyat, pragmatika, Grays nazariyasi, nutq aktlari, inferensiya

Kirish. G. Grays nutqni oddiy axborot uzatish jarayoni emas, balki kommunikativ ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan ongli faoliyat sifatida talqin qiladi. Uning yondashuvida nutq akti, illokutiv kuch kabi terminlardan ko‘ra, “ma’no” va “niyat” tushunchalari markaziy o‘rin egallaydi. Graysga ko‘ra, so‘zlovchi gapirayotganda shunchaki so‘zlar ketma-ketligini hosil qilmaydi, balki adresatda muayyan fikr, xulosa yoki harakatni yuzaga keltirishni maqsad qiladi.[4] Demak, kommunikatsiya jarayoni so‘zlovchining ichki niyati va tinglovchining ushbu niyatni anglashiga asoslanadi.

Anekdot matnlarida Grays ta’kidlagan ushbu niyat–ma’no munosabati ayniqsa yorqin namoyon bo‘ladi. Chunki anekdotlarda kulgi ko‘pincha ochiq ifodalangan mazmunda emas, balki aytilmagan, ammo anglashilishi zarur bo‘lgan implikaturada mujassamlashadi. So‘zlovchi ataylab mantiqiy, axloqiy yoki kommunikativ kutilmalarni buzadi, tinglovchi esa ushbu buzilish ortidan yashirin ma’noni topishga majbur bo‘ladi. Kulgi aynan mana shu “anglab yetish ongiy lahzasi”da yuzaga keladi.[5]

Tinglovchi esa aytilgan gap ortidagi niyatni anglab, yashirin ma’noni kashf etadi va natijada kulgi effekti yuzaga keladi. Demak, anekdotlarda kommunikatsiya

“so‘zlash – tushunish – anglash – kulish” zanjiri asosida amalga oshadi. Shu bois anekdot diskursini Grays yondashuvi asosida tahlil qilish implikaturaning kulgi mexanizmini shakllantirishdagi hal qiluvchi o‘rnini ilmiy asosda ochib berish imkonini beradi.

METODLAR VA ADABIYOTLAR TAHLILI. Tadqiqotning bosh metodik asosi H. P. Grays tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ niyat va implikatura nazariyasidir. Bu metod asosida:

- anekdotlarda aytilgan ma’no va ko‘zlangan ma’no farqlanadi;

- kulgi yuzaga keladigan joy aynan implikatura hosil bo‘ladigan nuqta sifatida belgilanadi;

- Grays maksimlarining (miqdor, sifat, munosabat, uslub) buzilishi kulgi mexanizmining asosiy omili sifatida tahlil qilinadi.

Anekdotlarda nutq harakatlari faqat axborot berish emas, balki ijtimoiy, emotsional va kognitiv ta’sir ko‘rsatish vazifasini bajaradi. Shu bois tadqiqotda:

1) Sshifferning inferensial yo‘lga yo‘naltirilgan niyat nazariyasi;[7]

2) Bach va Harnishning kommunikativ aktlar tasnifi (assertivlar, direktivlar, ekspressivlar va b.) asos qilib olinadi.[2]

Bu metod orqali anekdotlarda: masxara qilish, kinoya, soxta maqtov, yashirin haqorat, mantiqiy paradoks kabi nutq aktlarining qanday kommunikativ niyat asosida qurilishi aniqlanadi. Tadqiqotda anekdot matnlaridan olingan misollar tavsiflanadi, semantik-pragmatik jihatdan sharhlanadi, implikatura turlari bo‘yicha guruhlanadi (kinoyaviy, tanqidiy, paradoksal, sarkastik). Bu metod orqali kulgi mexanizmining lingvistik modeli ishlab chiqiladi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, anekdot matnlarida kulgi asosan aytilgan ma’no (literal) bilan ko‘zlangan yashirin ma’no (implicature) o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan yuzaga keladi. Bunda Grays ta’kidlaganidek, so‘zlovchi tinglovchini “oddiy ma’no”dan tashqariga olib chiqadigan kommunikativ niyatni yashirin tarzda beradi va tinglovchi uni inferensiya orqali “topib oladi”.



Rasm 1. [6] *Rasm 2.[6]*

Anekdot matnlarining lingvopragmatik tahlili H. P. Graysning kommunikativ niyat va implikatura nazariyasiga tayangan holda amalga oshirildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, anekdotlarda kulgi bevosita aytilgan mazmunda emas, balki aynan adresat tomonidan inferensiya asosida tiklanadigan yashirin ma’noda – implikaturada shakllanadi.

Rasm 1. Anekdot matnlarida aytilgan ma’no (what is said) va ko‘zlangan ma’no (what is meant) o‘rtasida tizimli nomuvofiqlik mavjud. Masalan, “Finlandiya prezidenti O‘zbekistonga oddiy reys bilan uchib keldi. Eshmat qo‘shni ko‘chadagi novvoyxonaga Malibusida bordi” tipidagi anekdotlarda yuzaki mazmun neytral xabar ko‘rinishiga ega. Biroq implikatura darajasida ijtimoiy kinoya yuzaga chiqadi: yuqori maqom egalari kamtarlik ko‘rsatgani holda, oddiy shaxsning dabdabaga berilishi tanqid qilinadi. Bu yerda kulgi munosabat (relevance) va uslub (manner) maksimlarining ongli buzilishi orqali hosil qilinadi.

Rasm 2.da Graysning kommunikativ niyat va implikatura nazariyasi asosida tahlil qilinganda, kulgi bevosita aytilgan mazmunda emas, balki adresat tomonidan inferensiya yo‘li bilan tiklanadigan yashirin ma’noda yuzaga chiqishi aniqlanadi. Matnda bola mashhur shaxsni tanimasligi, otasining esa uni tanib murojaat qilishi orqali kutilgan ijtimoiy norma buziladi. Natijada avlodlar o‘rtasidagi axborot tafovuti va “mashhurlik” tushunchasining nisbiyligi kinoyaviy implikatura orqali ifodalanadi. Nutq yuzaki qatlamda oddiy xabar ko‘rinishiga ega bo‘lsa-da, uning haqiqiy kommunikativ vazifasi ijtimoiy baho berish va kinoya uyg‘otishdan iborat. Grays maksimlarining ongli buzilishi adresatni yashirin xulosaga olib keladi va aynan shu nuqtada kulgi mexanizmi ishga tushadi.

Anekdot matnlarida kommunikativ niyat ochiq axborot berishga emas, balki adresatda kognitiv siljish (kutilgan interpretatsiyadan chekinish), emotsional reaksiya va ijtimoiy baholash hosil qilishga yo‘naltirilgani aniqlandi. Schiffer ta’kidlagan inferensial modelga muvofiq, adresat kulgini bevosita gapdan emas, balki kontekst, fon bilim va mantiqiy xulosalar orqali mustaqil tiklaydi. Bu esa anekdotni yuqori darajada pragmatik birlik sifatida belgilaydi.

Tahlil natijalariga ko‘ra, anekdotlarda implikaturalar quyidagi asosiy turlarga ajratildi:

- kinoyaviy implikatura (ijtimoiy rol va maqomni masxaralash);
- tanqidiy implikatura (ijtimoiy muammolarni kulgi orqali ochish);
- sarkastik implikatura (ochiq mantiqiy zidlik asosida);
- paradoksal implikatura (kutilgan normaning buzilishi orqali).

Natijada anekdot matnlarida kulgi mexanizmi quyidagi lingvistik model asosida shakllanishi aniqlashtirildi:

kommunikativ niyat → maksim buzilishi → implikatura → kognitiv nomuvofiqlik → kulgi.

Umuman olganda, anekdotlar nafaqat ko‘ngilochar matn, balki ijtimoiy baho beruvchi, tanqidiy fikrni bilvosita ifodalovchi va adresat tafakkurini faollashtiruvchi murakkab pragmatik birlik hisoblanadi.

MUHOKAMA VA XULOSA. H. P. Graysning kommunikativ niyat va implikatura nazariyasi anekdot diskursiga to‘liq tatbiq etish mumkinligini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, anekdotlarda kulgi oddiy semantik zidlik emas, balki so‘zlovchining ongli kommunikativ strategiyasi natijasidir. Bu holat Graysning “ma’no niyatga asoslanadi” degan tezisini amaliy material asosida tasdiqlaydi.

Tezisda kulgi mexanizmining markazida implikatura turishini ko‘rsatdi. So‘zlovchi Grays maksimlarini ataylab buzish orqali tinglovchini literal ma’nodan yashirin xulosaga yo‘naltiradi. Bu jarayon Sshiffer ta’riflagan inferensial modelga mos bo‘lib, kulgining faqat emotsional emas, balki kognitiv hodisa ekanini ko‘rsatadi.

Aniqlangan implikatura turlari (kinoyaviy, tanqidiy, sarkastik, paradoksal) anekdotlarning ko‘p qatlamli pragmatik tabiatini ochib berdi. Anekdotlarda assertiv shakl ostida yashiringan ekspressiv va baholovchi nutq aktlari ustunligi kuzatildi. Demak, ularning haqiqiy vazifasi axborot berish emas, balki ijtimoiy tanqid va kinoya ifodalashdir.

Natijalar anekdot diskursida kognitiv nomuvofiqlik muhim omil ekanini ko‘rsatdi: norma buzilishi implikatura orqali to‘ldiriladi va aynan shu jarayon kulgi effektini yuzaga keltiradi. Shu bois anekdotlar zamonaviy diskursda ijtimoiy baho beruvchi pragmatik fenomen sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Attardo, S. Linguistic Theories of Humor. — Berlin; New York: Mouton de Gruyter, 1994. — 398 p.
2. Bach, K., Harnish, R. M. Linguistic Communication and Speech Acts. — Cambridge, MA: MIT Press, 1979. — 344 p.
3. Dynel, M.Pragmatics and Humour. — Amsterdam: John Benjamins Publishing Company, 2009. — 250 p.
4. Grice, H. P. Logic and Conversation // Cole P., Morgan J. (eds.). Syntax and Semantics. Vol. 3: Speech Acts. — New York: Academic Press, 1975. — P. 41–58.

5. Grice, H. P. Studies in the Way of Words. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. — 406 p.
6. https://t.me/trolluz/13412
7. Schiffer, S. Meaning. — Oxford: Clarendon Press, 1972. — 202 p.

METAPHOR IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Umbarova Yulduz Kulsaxatovna
1st course master student, Termez State University, Uzbekistan
E-mail: yulduz.umbarova.1@gmail.com
Phone: +998990758468

Annotation. In this thesis, the concept of "metaphor in English and Uzbek languages" is first explored as an object of linguistics in a communicative environment. The formation of metaphor in both languages is highlighted.

Key words: Metaphor, types of metaphor, cognitive metaphor, English, Uzbek, comparative linguistics.

Metaphor is a linguistic and cognitive phenomenon that occupies a significant position in linguistics, serving to convey one concept or phenomenon through another. Using metaphor, complex ideas are conveyed in a straightforward and engaging way. In contemporary linguistics, metaphor is viewed not merely as a literary tool but also as a crucial aspect of human cognition. Metaphors are categorized based on different attributes. The most prevalent categories encompass lexical metaphor, literary (stylistic) metaphor, and cognitive metaphor. Metaphors embedded in the language are deeply ingrained and frequently employed in ordinary conversation. In contrast, literary metaphors are mainly used to convey the author's unique writing style within literary works.

Metaphor, as a fundamental linguistic and cognitive device, allows speakers and writers to convey abstract concepts through more familiar or concrete terms. It transcends mere stylistic ornamentation, shaping how individuals perceive, interpret, and communicate complex ideas. In literature, everyday speech, and academic discourse, metaphors function as a bridge between thought and expression, providing insight into cultural values, social norms, and cognitive patterns of a linguistic community.

Comparative studies of metaphors in different languages reveal not only linguistic diversity but also cultural specificity. In English, metaphors often reflect Western conceptual frameworks, emphasizing individualism, time, and spatial orientation. Conversely, in Uzbek, metaphors are deeply intertwined with historical, social, and environmental experiences unique to Central Asia, frequently drawing

upon nature, folklore, and communal life. Exploring metaphorical expressions across these two languages thus provides a window into both universal cognitive mechanisms and culturally conditioned ways of understanding the world.

This study aims to examine the structure, usage, and cultural significance of metaphors in English and Uzbek. By analyzing examples from literary texts, proverbs, and everyday communication, it highlights similarities and differences in conceptualization, demonstrating how language both shapes and reflects human thought. Such comparative insights are invaluable for linguists, translators, and educators, as they illuminate the intricate relationship between language, cognition, and culture.

Cognitive metaphors show how people grasp abstract ideas through their experiences in the world, during the act of perceiving it. Metaphors are expressed in diverse ways in both English and Uzbek languages. In English, metaphors like «Time is money» and «Life is a journey» convey the ideas of time and life using economic and movement-related imagery. Despite the absence of metaphors in Uzbek, these expressions convey a person’s inner emotions, moral qualities, and social connections. These metaphors are intricately tied to the people’s mindset and cultural beliefs. The comparative analysis reveals that certain metaphors, grounded in universal human experiences, manifest similarly across both languages. Consequently, metaphors reflecting cultural-national traits vividly illustrate the intrinsic link between language and culture. Consequently, examining metaphors in English and Uzbek is of utmost significance for translation, language education, and cross-cultural interaction.

Metaphors serve as a vital tool in shaping human thought, communication, and cultural expression. The comparative analysis of metaphors in English and Uzbek demonstrates both universal cognitive mechanisms and language-specific, culturally embedded conceptualizations. While English metaphors often reflect individualistic, time-oriented, and spatial frameworks, Uzbek metaphors draw heavily upon nature, folklore, and communal experiences, revealing a deep connection between language and the socio-cultural environment.

Through the examination of literary texts, proverbs, and everyday expressions, it becomes evident that metaphors are not merely decorative language features but essential instruments for transmitting knowledge, values, and worldviews. Understanding these linguistic devices in both languages enhances cross-cultural communication, translation accuracy, and the appreciation of the cognitive and cultural dimensions of language.

Ultimately, the study underscores the importance of recognizing metaphor as a bridge between thought and expression, demonstrating that language is both a mirror

and a mold of human cognition. Comparative investigations like this highlight the richness of linguistic diversity while offering insights into the universal ways humans conceptualize their experiences.

References

1. Lakoff, G., & Johnson, M. (1980). Metaphors we live by. Chicago: University of Chicago Press.
2. Lakoff, G. (1993). The contemporary theory of metaphor. In A. Ortony (Ed.), Metaphor and thought (2nd ed., pp. 202–251). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Kövecses, Z. (2010). Metaphor: A practical introduction (2nd ed.). Oxford: Oxford University Press.
4. Black, M. (1962). Models and metaphors: Studies in language and philosophy. Ithaca, NY: Cornell University Press.
5. Richards, I. A. (1936). The philosophy of rhetoric. Oxford: Oxford University Press.
6. Ortony, A. (Ed.). (1993). Metaphor and thought (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
7. Charteris-Black, J. (2004). Corpus approaches to critical metaphor analysis. Basingstoke: Palgrave Macmillan.
8. Goatly, A. (1997). The language of metaphors.

O‘ZBEKISTON VA AFG‘ONISTONNING SIYOSIY VA IQTISODIY MUNOSABATLARI: TARIXIY TAHLIL

Aripov Dilshod Ne’matovich
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti o ‘qituvchisi
E-mail: dilshod.aripov@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0002-2463-7228

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekiston va Afg‘onistonning siyosiy va iqtisodiy aloqalarini tarixiy nuqtai nazardan tahlil qiladi. Tadqiqot O‘zbekistonning Afg‘onistondagi geosiyosiy va iqtisodiy manfaatlari, transport va energetika sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, mintaqaviy xavfsizlik va terrorizmga qarshi birgalikdagi kurashni o‘rganadi. Maqola ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo-sotiq, transport yo‘llari, energetika resurslari va etnik aloqalar tarixini yoritadi hamda kelajakdagi hamkorlik istiqbollarini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Afg‘oniston, siyosiy aloqalar, iqtisodiy hamkorlik, transport koridorlari, energetika, terrorizmga qarshi kurash, tarixiy tahlil.

Аннотация. Статья анализирует политические и экономические отношения между Узбекистаном и Афганистаном в историческом контексте. Исследование охватывает геополитические и экономические интересы Узбекистана в Афганистане, сотрудничество в транспортной и энергетической сферах, а также совместные усилия по обеспечению региональной безопасности и борьбе с терроризмом. Статья освещает торговые отношения, транспортные маршруты, энергетические ресурсы и этнические связи двух стран, а также перспективы их будущего сотрудничества.

Ключевые слова: Узбекистан, Афганистан, политические отношения, экономическое сотрудничество, транспортные коридоры, энергетика, борьба с терроризмом, исторический анализ.

Abstract. This article analyzes the political and economic relations between Uzbekistan and Afghanistan in a historical context. The study examines Uzbekistan’s geopolitical and economic interests in Afghanistan, cooperation in transport and energy sectors, as well as joint efforts in regional security and counter-terrorism. The research highlights trade relations, transportation routes, energy resources, and ethnic connections between the two countries and outlines prospects for future collaboration.

Keywords: Uzbekistan, Afghanistan, political relations, economic cooperation, transport corridors, energy, counter-terrorism, historical analysis.

Markaziy Osiyoning geosiyosiy xaritasi ko‘plab tarixiy, madaniy va iqtisodiy aloqalar bilan belgilangan. Shu jihatdan O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar mintaqaning barqarorligi va rivoji uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tarix davomida ikki mamlakat o‘rtasida siyosiy va iqtisodiy aloqalar doimo mavjud bo‘lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi turli davrlardagi siyosiy holatlar, xalqaro vaziyat va mintaqaviy strategiyalar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ushbu maqola O‘zbekiston va Afg‘onistonning siyosiy va iqtisodiy munosabatlarini tarixiy kontekstdan tahlil qilish, zamonaviy holatni baholash va kelajak istiqbollarini aniqlashni o’z oldiga maqsad qilib qo’ygan.

O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi aloqalar asosan etnik, madaniy va iqtisodiy o‘xshashliklar bilan belgilanadi. Tarix davomida Afg‘oniston shimoliy hududlarida o‘zbeklar, tojiklar va turkmanlar yashab, O‘zbekiston bilan madaniy va tijorat aloqalarini davom ettirgan. Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekiston Afg‘oniston bilan chegara hududlarini nazorat qilib, iqtisodiy va transport loyihalarida muhim rol o‘ynagan. 1979–1989-yillarda Afg‘onistonga sovet qo‘shinlarining kirishi o‘sha davrda o‘zbeklar va boshqa etnik guruhlarning holati, shuningdek, iqtisodiy hamkorlik jarayonlarini murakkablashtirdi. Shu bilan birga, Afg‘onistondagi sovet davri loyihalari, xususan, energetika va transport sohasida amalga oshirilgan tashabbuslar, kelajakdagi O‘zbekiston-Afg‘oniston aloqalari uchun zamin yaratdi [1].

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng, mamlakat Afg‘oniston bilan diplomatik munosabatlarni qayta tikladi va strategik hamkorlikni rivojlantirishga intildi. Bu davrda O‘zbekiston shimoliy Afg‘oniston orqali mintaqaviy savdo yo‘llarini rivojlantirish, energetika resurslarini almashish va transport koridorlarini kengaytirish imkoniyatlarini ko‘rdi. Ayniqsa, 2000-yillarning boshlarida Afg‘onistondagi tinchlik jarayoni O‘zbekistonni mintaqaviy hamkorlik uchun qulay maydonga aylantirdi.

O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar bir necha asosiy yo‘nalishda shakllangan: diplomatik aloqalar, mintaqaviy xavfsizlik va terrorizmga qarshi hamkorlik. O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan chegaradosh davlat sifatida strategik pozitsiyasi mintaqaviy barqarorlikni ta’minlash va transchegaraviy xavf-xatarlarni kamaytirish nuqtai nazaridan muhimdir. 2016-yildan buyon yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan O‘zbekiston-Afg‘oniston diplomatik va iqtisodiy hamkorlikda yangi sahifaga kirdi. Shu davrda bir qator yuqori darajadagi uchrashuvlar o‘tkazilib, bir qator investitsiya va savdo kelishuvlari imzolandi. Bu kelishuvlar O‘zbekistonning Afg‘oniston bilan transport, energetika va savdo sohalarida hamkorligini mustahkamladi [2].

Siyosiy aloqalar shuningdek, mintaqaviy xavfsizlikka qaratilgan tashabbuslar bilan bog‘liq. O‘zbekiston Afg‘onistondagi barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash, terrorizm va ekstremizm tahdidlarini kamaytirish, transchegaraviy jinoyatchilik va giyohvand moddalar kontrabandasiga qarshi kurashda Afg‘oniston bilan yaqin hamkorlik qiladi. Shu maqsadda, ikki mamlakatning xavfsizlik idoralari o‘rtasida muntazam muloqot va maslahatlar olib boriladi.

Iqtisodiy hamkorlik O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlarining eng faol yo‘nalishidir. Transport va tranzit imkoniyatlari, savdo-sotiq va investitsiya loyihalari iqtisodiy aloqalarni mustahkamlaydi. Eng muhim loyihalardan biri – Trans-Afg‘on temir yo‘li bo‘lib, u Afg‘onistonni Markaziy Osiyo va Janubiy

Osiyoga bog‘laydi. Shuningdek, Hirot–Mozori-Sharif temir yo‘li va boshqa transport koridorlari O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasida savdo hajmini oshirish imkonini beradi.

Ikki davlat munosabatlarida energetika sohasidagi hamkorlik muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Afg‘onistonga elektr energiyasi, tabiiy gaz va boshqa resurslarni yetkazib beradi, bu esa Afg‘oniston iqtisodiyotining uzluksiz ishlashini ta’minlaydi [3].

Shuningdek, O‘zbekiston Afg‘oniston orqali Hindiston va Eron portlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, Chabahar porti va boshqa strategik yo‘llardan foydalanish orqali mintaqaviy savdoni rivojlantirishni maqsad qilgan. Bu tashabbuslar ikki mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini birlashtiradi va mintaqaviy integratsiyani kuchaytiradi.

Afg‘onistonning shimoliy hududlarida 3,7–6,1 milliondan ortiq o‘zbek millatiga mansub aholi yashaydi, bu esa ularni dunyodagi ikkinchi katta o‘zbek populyatsiyasi qiladi. Shu bilan birga, Afg‘onistonda o‘zbek tili mahalliy darajada ishlatiladi va O‘zbekiston bilan madaniy aloqalarni mustahkamlaydi. Madaniy va etnik bog‘liqlik ikki mamlakat o‘rtasida ishonch va o‘zaro hurmatni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi [4].

2016–2024-yillarda O‘zbekiston va Afg‘oniston munosabatlarida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu davr mobaynida bir qator iqtisodiy va siyosiy kelishuvlar amalga oshirildi. Bu kelishuvlarning maqsadi ikki mamlakat o‘rtasidagi savdo hajmini oshirishdan iboratdir. Shuningdek, O‘zbekiston Afg‘oniston orqali transport va tranzit yo‘llarini rivojlantirishni davom ettirmoqda. Bu orqali Afg‘onistonni Markaziy Osiyo va Hindiston, Eron kabi janubiy bozorlarga ulash imkoniyatlari kengayadi. Zamonaviy transport loyihalari, jumladan Trans-Afg‘on temir yo‘li va Chabahar porti orqali tranzit imkoniyatlari ikki mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Terrorizm va ekstremizmga qarshi hamkorlik ham dolzarb masala hisoblanadi. Ikkala davlat ham mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, transchegaraviy tahdidlarni kamaytirish va terroristik guruhlar faoliyatiga qarshi birgalikda choralar ko‘rishni maqsad qilgan [5].

Umuman aytganda, O‘zbekiston va Afg‘onistonning siyosiy va iqtisodiy munosabatlari tarixan boy va murakkab bo‘lib, ularni shakllantirishda madaniy, etnik, geosiyosiy va iqtisodiy omillar muhim rol o‘ynagan. Bugungi kunda ikki mamlakat o‘rtasidagi hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarilgan bo‘lib, transport, energetika, savdo-sotiq va xavfsizlik sohalarida muhim tashabbuslar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar nafaqat ikki mamlakatning, balki butun Markaziy Osiyo va Janubiy

Osiyo mintaqasining barqarorligi va rivoji uchun muhim ahamiyatga ega. Tarixiy ildizlar va zamonaviy tashabbuslar asosida bu hamkorlik kelajakda yanada mustahkamlanishi kutilmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mir G‘ulom Muhammad G‘ubor. Afg‘oneston dar masire torix. - Kobul.: Markaze enqelobe nashr, 1399. – S. 324.
2. Rasanayagam A. Afghanistan. A Modern History. - London & New York, 2002. – 301 p.
3. Safoyev S.S. Markaziy Osiyoning geosiyosati. - Toshkent: Patent press, 2005. - 160 b.
4. Акмалов Ш. О некоторых аспектах военно-политической обстановки в Афганистане. //Востоковедение. №1-2.2008. - С. 13.
5. Бобокулов И.И. Афганская трансформация: приоритеты и ключевые проблемы / Центральная Азия и Кавказ, Том 16, Выпуск 2, 2013.

MARKAZIY OSIYODA XAVFSIZLIK VA O‘ZBEKISTON-AFG‘ONISTON SIYOSIY HAMKORLIGI

Aripov Dilshod Ne’matovich
Termiz davlat universiteti Tarix fakulteti o‘qituvchisi
E-mail: dilshod.aripov@gmail.com
Orcid: https://orcid.org/0009-0002-2463-7228

Annotatsiya. Ushbu maqola Markaziy Osiyoda xavfsizlikning zamonaviy muammolari va O‘zbekiston hamda Afg‘oniston o‘rtasidagi siyosiy hamkorlikni tahlil qiladi. Maqolada hududiy barqarorlik, chegara xavfsizligi, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash, shuningdek, ikki davlatning diplomatik va iqtisodiy aloqalari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston-Afg‘oniston mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikdagi strategik manfaatlarini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, xavfsizlik, O‘zbekiston-Afg‘oniston hamkorligi, terrorizm, ekstremizm, chegara xavfsizligi, diplomatiya, mintaqaviy barqarorlik.

Аннотация. В статье анализируются современные проблемы безопасности в Центральной Азии и политическое сотрудничество между Узбекистаном и Афганистаном. Рассматриваются вопросы региональной стабильности, охраны границ, борьбы с терроризмом и экстремизмом, а также дипломатические и экономические связи двух стран. Исследование подчеркивает стратегические интересы Узбекистана и Афганистана в области региональной безопасности и сотрудничества.

Ключевые слова: Центральная Азия, безопасность, сотрудничество Узбекистан–Афганистан, терроризм, экстремизм, охрана границ, дипломатия, региональная стабильность.

Annotation. This article analyzes contemporary security challenges in Central Asia and the political cooperation between Uzbekistan and Afghanistan. It examines regional stability, border security, counter-terrorism and extremism efforts, as well as the diplomatic and economic relations between the two countries. The study highlights the strategic interests of Uzbekistan and Afghanistan in regional security and cooperation.

Keywords: Central Asia, security, Uzbekistan-Afghanistan cooperation, terrorism, extremism, border security, diplomacy, regional stability.

O‘zbekiston va Afg‘oniston umumiy chegaraga ega bo‘lib, chuqur madaniy aloqalarga ham ega. Afg‘oniston shimolida taxminan 3,7-6,1 million o‘zbek yashaydi, bu dunyoda O‘zbekistondan keyin ikkinchi yirik o‘zbek aholisi markazi hisoblanadi. Afg‘onistonda o‘zbek tilining mahalliy lahjalari ham mavjud bo‘lib, ular alifbosida farq bo‘lishiga qaramay, O‘zbekistonda so‘zlashiladigan o‘zbek tilida gaplashadi. XXI asrda Afg‘oniston tashqi siyosatida O‘zbekiston bilan aloqalar ijobiy o‘zgarishlarga duch kelgan. Afg‘oniston Tashqi ishlar vazirligi va rasmiylarining O‘zbekiston bilan aloqalarni kengaytirishga doir bir nechta yig‘ilishlari Afg‘oniston vakillarining O‘zbekiston bilan hamkorlikni rivojlantirishga qat’iy niyatini ko‘rsatadi. O‘zbekiston rasmiylarining ijobiy bayonotlari va shu bilan birga yuqori darajali delegatsiya safarlari O‘zbekistonning ham Afg‘oniston bilan aloqalarni kengaytirishga qiziqishini namoyon qiladi. Ushbu yo‘nalishlar ikki davlat bir-biriga hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirishga intilayotganini ko‘rsatadi [1].

O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi Afg‘onistonning eng qudratli qo‘shnisi bo‘lib, Afg‘oniston bilan ko‘plab etnik, madaniy va umumiy manfaatlarga ega. Markaziy Osiyo davlatlari orasida O‘zbekiston tashqi siyosatini belgilash va amalga oshirishda boshqa davlatlarga nisbatan mustaqil harakat qilish imkoniga ega bo‘lgan.

O‘zbekiston va Afg‘oniston qo‘shni va do‘st davlat sifatida bir qator hamkorlik imkoniyatlariga ega. Ushbu imkoniyatlar tranzit-savdo, iqtisodiy, terrorizm va giyohvand moddalar bilan kurash kabi sohalarda mavjud.

Tranzit-savdo va iqtisodiy imkoniyatlar ikki davlat uchun eng muhim hisoblanadi. Shu yo‘nalishda ikki tomonlama kelishuvlar, masalan, temir yo‘l loyihalari va portlarni qurish hamda yangilash, ikki davlat uchun muhim masalalardan biridir [2].

O‘zbekiston orqali Xitoy va boshqa davlatlarning Ipak yo‘li bilan bog‘lanishi ikki davlat o‘rtasidagi eng muhim savdo va tranzit imkoniyatlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan Afg‘onistonning O‘zbekiston orqali Xitoyga temir yo‘l orqali ulanishi, Ipak yo‘li yoki boshqa iqtisodiy dasturlar doirasida bo‘lsin, ikki davlat manfaatlarini kengaytirishi mumkin.

Bundan tashqari, Afg‘oniston beshta davlatni o‘z ichiga olgan temir yo‘l loyihasini O‘zbekiston bilan bog‘lashi mumkin. Ushbu besh davlat loyihasida Afg‘oniston, Xitoy, Tojikiston, Turkmaniston va Eron ishtirok etadi. O‘zbekistonning loyihada ishtiroki loyihani moliyaviy mustahkamlash bilan birga, Afg‘onistonga Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa O‘zbekiston uchun tranzit markazi sifatida rol o‘ynash imkonini beradi [3].

O‘zbekiston quruqlik bilan o‘ralgan davlat bo‘lib, dengiz bilan aloqaga chiqish uning uzoq muddatli rejalaridan biridir. Afg‘oniston esa O‘zbekistonning dengizga chiqishidagi eng muhim tranzit darvozalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, Eron va Pokistondagi ikkita muhim port orqali dengizga ulanish O‘zbekiston uchun yaxshiroq savdo va tranzit sharoitlarini yaratadi. Xususan, O‘zbekistonning Chabahar portiga Afg‘oniston orqali ulanishi Afg‘oniston, Eron, Hindiston va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini kengaytirishi mumkin.

O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi boshqa hamkorlik imkoniyatlari terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashishdir. Garchi bu ko‘pincha hamkorlikni cheklovchi omil sifatida qaralsa-da, qiyinchiliklarni imkoniyatga aylantirish davlatlar tashqi siyosatidagi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Giyohvand moddalar kontrabandasiga qarshi kurash ikki davlat o‘rtasida muhim masala bo‘lib kelgan, ammo bu borada yetarli hamkorlik bo‘lmagan. Shu sababli, giyohvand moddalar kontrabandasiga qarshi birgalikda kurashish ikki davlat uchun asosiy muhokama masalalaridan biridir [4].

Ko‘p tomonlama hamkorlik doirasida Shanxay Hamkorlik Tashkiloti ikki davlat uchun ijobiy hamkorlik imkoniyatlarini yaratadi. Terrorizm tahdidi mintaqada chuqur qatlamlarda mavjud bo‘lib, uni ikki tomonlama hal qilish qiyin. Shu sababli, ko‘p tomonlama hamkorlik O‘zbekiston va Afg‘oniston uchun terrorizmga qarshi yanada samarali natijalar berishi mumkin. Afg‘onistonning Shanxay Hamkorlik Tashkilotida doimiy ishtiroki terrorizmga qarshi hamkorlikni kengaytiradi. O‘zbekistonning Afg‘onistonning tashkilotga doimiy a’zo bo‘lishini qo‘llab-quvvatlashi esa birgalikdagi kurashni kuchaytiradi.

Umuman aytganda, O‘zbekiston va Afg‘oniston o‘rtasidagi munosabatlar geografik yaqinlik, umumiy madaniy va etnik aloqalar hamda iqtisodiy manfaatlar asosida rivojlanmoqda. Afg‘oniston shimolida yashovchi o‘zbeklar, ikki davlatni tabiiy qo‘shni va madaniy jihatdan bog‘lovchi unsur sifatida xizmat qiladi. Tarixiy

jarayonlar, xususan Sovet Ittifoqi davridagi aralashuvlar va keyingi siyosiy o‘zgarishlar ikki mamlakat aloqalariga ta’sir qilgan bo‘lsa-da, Shavkat Mirziyoyev rahbarligi ostida O‘zbekistonning mintaqaviy siyosati va Afg‘oniston bilan hamkorlikni kengaytirish sa’y-harakatlari munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqmoqda [5].

Savdo, tranzit va energetika sohalaridagi hamkorlik, xususan Afg‘oniston orqali Markaziy Osiyoni Hindiston, Eron va Xitoy bilan bog‘lash imkoniyatlari, ikki davlat uchun iqtisodiy manfaatlarni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, terrorizm, ekstremizm va narkotik moddalar kontrabandasiga qarshi birgalikdagi kurash ham xavfsizlikni ta’minlash va mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi.

Hozirgi vaziyatda O‘zbekiston-Afg‘oniston aloqalari, o‘zaro ishonch va manfaatlar uyg‘unligi asosida rivojlanmoqda. Investitsiya va savdo kelishuvlari, diplomatik tashabbuslar va strategik loyihalar ikki davlatni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va xavfsizlik sohalarida ham yaqindan bog‘lamoqda. Shu bilan birga, mavjud risklar – siyosiy barqarorlikning pastligi, xavfsizlik tahdidlari va mintaqaviy ziddiyatlar – munosabatlarni chuqurlashtirishda e’tiborga olinishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston-Afg‘oniston hamkorligi Markaziy Osiyo mintaqasida barqarorlik, xavfsizlik va iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim omil bo‘lib, ikki tomonlama manfaatlar va mintaqaviy integratsiya uchun keng imkoniyatlarni yaratmoqda.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Mir G‘ulom Muhammad G‘ubor. Afg‘oneston dar masire torix. - Kobul.: Markaze enqelobe nashr, 1399. – S. 324.
2. Rasanayagam A. Afghanistan. A Modern History. - London & New York, 2002. – 301 p.
3. Rashidov R. Loyya Jirg‘a - afg‘on xalqi irodasini ifoda etuvchi demokratik institut sifatida / Demokratlashtirish va inson huquqlari. Ilmiy-ma’rifiy jumal. 3 (67) - 2015. – B. 54-60.
4. Runion, M.L. The History of Afghanistan. - London: Greenwood Press, 2007. – 155 p.
5. The 2009 Presidential and Provincial Council Elections in Afghanistan. Final report of National Democratic Institute (NDI). – Washington, DC. 2010

TASHQI IQTISODIY FAOLIYATDA SAMARADORLIK: BOJXONA HUDUDIDAN TASHQARIDA QAYTA ISHLASH REJIMINING AFZALLIKLARI

Tursunboyev ShohizamonShoyadbek o’g’li

Andijon viloyati bojxonaboshqarmasa
katta inspektori
e-mail:shohizamon2105@gmail.com
Telefon:+998934416683

Annotatsiya. Ushbu maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatda samaradorlikni oshirishda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimining o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Mazkur bojxona rejimi tadbirkorlarga mahalliy tovarlarni xorijda qayta ishlash, ta’mirlash va modernizatsiya qilish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, yuqori texnologiyalardan foydalanish hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Maqolada ushbu rejimning moliyaviy, texnologik va ma’muriy afzalliklari ilmiy asosda yoritilgan hamda uning eksport salohiyatini oshirishdagi roli ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Tashqi iqtisodiy faoliyat, bojxona rejimi, qayta ishlash, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash, eksport, bojxona imtiyozlari, raqobatbardoshlik.

Аннотация. В статье анализируется роль и значение таможенного режима переработки за пределами таможенной территории в повышении эффективности внешнеэкономической деятельности. Данный режим предоставляет предпринимателям возможность временно вывозить отечественные товары за границу для переработки, ремонта или модернизации с последующим возвратом с существенными таможенными льготами. Особое внимание уделяется финансовым, технологическим и административным преимуществам режима, а также его влиянию на повышение экспортного потенциала и конкурентоспособности национальной продукции.

Ключевые слова: внешнеэкономическая деятельность, таможенный режим, переработка, переработка за пределами таможенной территории, экспорт, таможенные льготы, конкурентоспособность.

Abstract. This article examines the role and significance of the outward processing customs regime in enhancing the efficiency of foreign economic activity. The regime allows domestic goods to be temporarily exported for processing, repair, or modernization abroad and re-imported with significant customs benefits. The study highlights the financial, technological, and administrative advantages of this customs procedure and emphasizes its importance in increasing export potential and improving the competitiveness of national products in international markets.

Keywords: Foreign economic activity, customs regime, outward processing, customs benefits, export potential, competitiveness.

Bugungi kunda O`zbekiston iqtisodiyotining jadal rivojlanishi va mahalliy tadbirkorlarning jahon bozoriga integrasiyalashuvi bojxona sohasidagi

qulayliklardan unumli foydalanishni taqozo etmoqda. Ana shunday samarali mexanizmlardan biri - bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimining qo`llanilishidir.

Iqtisodiy mohiyat va imkoniyatlar. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimi tadbirkorlarga mahalliy tovarlarni xorijga vaqtincha olib chiqib, u erda texnik ishlov berish, ta’mirlash yoki modernizasiya qilish imkonini beradi. Bu jarayonda eng muhim jihat - tovarlar qayta ishlangandan so`ng respublikaga olib kirilayotganda bojxona to`lovlari bo`yicha beriladigan salmoqli imtiyozlardir.

Rejimning tadbirkor uchun 5 ta asosiy afzalligi:

Moliyaviy xarajatlarni optimallashtirish: Odatda, tovar import qilinganda bojxona to`lovlari uning to`liq qiymatidan hisoblanadi. Biroq ushbu rejimda tovar qayta ishlab olib kirilganida, bojxona boji va soliqlar faqatgina xorijda amalga oshirilgan xizmat qiymatidan (qo`shilgan qiymatdan) olinadi. Bu esa ishlab chiqarish tannarxini sezilarli darajada pasaytiradi.

Yuqori texnologiyalarga cheklovsiz kirish: Agar mahalliy korxonada murakkab xom ashyoni qayta ishlash yoki noyob uskunani sozlash uchun texnik imkoniyat etishmasa, ushbu rejim eng maqbul echimdir. Tadbirkor tovarni dunyoning istalgan nuqtasidagi zamonaviy texnologiyalar yordamida tayyor mahsulotga aylantirib qaytib olib kelishi mumkin.

Mahsulot raqobatbardoshligini oshirish: Xorijdagi innovasion echimlar va sifat standartlari asosida ishlov berilgan tovarlar jahon bozorida yuqori baholanadi. Bu mahalliy brendlarning xalqaro maydonda o`z o`rnini topishiga zamin yaratadi.

Kafolatli ta’mirlashda mutlaq imtiyoz: Agar tovar (masalan, ishlab chiqarish dastgohi) kafolat muddati davomida xorijda bepul ta’mirlanishi lozim bo`lsa, ushbu rejim ostida tovarni qaytarib olib kirishda hech qanday bojxona to`lovlari undirilmaydi.Bu korxonalarni kutilmagan moliyaviy yo`qotishlardan himoya qiladi.

Ma’muriy qulayliklar: Tovarlarni ushbu rejim ostida olib chiqishda eksport bojxona bojlari qo`llanilmaydi. Shuningdek, qayta ishlash jarayoni bir necha oydan ikki yilgacha (qonunchilikda belgilangan muddatlarda) davom etishi mumkinligi tadbirkorga o`z ish rejasini moslashtirish uchun etarli vaqt beradi.

Xulosa. Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimi - bu faqatgina bojxona prosedurasi emas, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun texnologik yangilanish va iqtisodiy tejamkorlik instrumentidir. Ushbu imkoniyatdan to`g`ri foydalanish korxonalarning eksport salohiyatini oshirish va ishlab chiqarish zanjirini zamonaviylashtirishda muhim bo`g`in bo`lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi. – Toshkent, 2023.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashqi savdo va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirishga oid qarorlari.
3. Karimov I.A. Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
4. Xudoyberdiyev B.X. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish. – Toshkent, 2020.
5. World Customs Organization. Revised Kyoto Convention on the Simplification and Harmonization of Customs Procedures.
6. Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International Economics: Theory and Policy. – Pearson Education, 2021.

YOSHLAR O'RTASIDA KIBERJINOYATLARNI OLDINI OLISH VA UNGA QARSHI KURASHISH

Ibodov Xurshid Ikrom o’g’li
O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti

Iminov Abdurasul Abdulatipovich
O’zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi kafedrasi boshlig’i, matematika va fizika fanlari nomzodi,dotsent

Annotatsiya. Maqolada yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashish chora-tadbirlari tahlil etilgan. Yoshlar jinoyatchiligining xususiyati aniqlanadi, uning sabablari ochib beriladi, unga ta'sir etuvchi misollar keltiriladi. Yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish yo'nalishlariga alohida to'xtalib o'tildi. Yoshlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishning dolzarb muammolari ochib berildi.

Kalit so'zlar: voyaga etmaganlar, yoshlar jinoyati, profilaktika choralari, huquqbuzarliklar profilaktikasi, umumiy profilaktika, maxsus tadbirlar, pedagogik tadbirlar.

Yoshlar o'rtasidagi o'rtasidagi jinoyatchilikning oldini olish va unga qarshi kurashishning asosiy chorasi oilani mustahkamlash, uning ma'naviy-ruhiy muhitini yaxshilashdan iboratdir, chunki bolalar oiladagi psixo-travmatik sharoitlardan, oilaviy nizolardan, ota-onalarning mehrsizligi va tushunmovchiligidan, ularning shafqatsizligi yoki loqaydligidan qochishadi.

Ijtimoiy-pedagogik chora-tadbirlar uysizlik sabablarini oldini olishga yordam beradigan sabablar va sharoitlarni aniqlash va oldini olishga qaratilgan uysizlikning oldini olishni o'z ichiga oladi.

Yoshlar o'rtasidagi jinoyatchilar toifasiga kelsak, u jinoyatchilikka qarshi kurashish chora-tadbirlarini belgilashda ham muhim ahamiyatga ega va quyidagi guruhlardan iborat:[1]

- ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli past, intellektual darajasi yetarli bo'lmagan, jamiyatning ijtimoiy va madaniy asoslarini buzuvchi xulq-atvorga moyil bo'lgan, disfunksional, ijtimoiy jihatdan nojo'ya oilalardan chiqqan voyaga yetmaganlar;
- badavlat oilalardan bo'lgan voyaga etmaganlar, jazosiz qolish va yo'l qo'yishga moyil bo'lganlar;
- tajovuzkor voyaga etmaganlar muammo va nizolarni kuch bilan hal qilish usuliga murojaat qiladilar;
- yoshlar harakati vakillari, jamiyatning ijtimoiy va madaniy asoslari muxoliflari;
- vagratsiyaga (sargardonlikka) moyil bo'lgan voyaga etmaganlar.

Hozirgi vaqtda ko'proq bolalar kompyuterlarga, zamonaviy bolalar uchun juda ko'p vaqt talab qiladigan turli xil tarmoq o'yinlariga qiziqishmoqda, ular madaniyatga qiziqishni to'xtatadilar. Aytish mumkinki, voyaga etmaganlarning xatti-harakati tobora ko'proq haqoratli, tajovuzkorlik va shafqatsizlik bilan tavsiflanadi. U yoki bu ijtimoiy tarmoqdan foydalangan holda, voyaga yetmagan shaxs muloqot qilish va ular bilan ma'lum bilim, ko'nikma va tajriba almashish uchun o'xshash odamlarni topishi mumkin, shuning uchun muammo paydo bo'lishi mumkin.

Jinoyatlar soniga munosabat sifatida qonun chiqaruvchi O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini to'ldiradi, uning dispozitsiyasi voyaga yetmaganlarni voyaga yetmaganlarning hayoti uchun xavfli qilmishlarni sodir etishga jalb qilganlik uchun javobgarlikni nazarda tutadi.[2]

Aybdor shaxsning qilmishida o'z joniga qasd qilishga moyillik belgilarining yo'qligi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi), voyaga yetmaganning jinoyat

sodir etishga jalb etilishi (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi) jinoiy javobgarlikning zaruriy shartidir yoki g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etishda (O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi).[3]

Ta'lim muassasasini hisobga oladigan bo'lsak, u voyaga etmaganlarning shaxsini shakllantirishga ta'sir qiluvchi ijtimoiy muassasa ekanligini ta'kidlash kerak. Hozirgi vaqtda universitetlarda imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirish uchun o'qituvchilar ushbu fanlarni faol qo'llab-quvvatlamoqda. Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirishga undaydigan o'qituvchi ko'plab nizolarga olib kelishi mumkin: o'smir va o'qituvchilar o'rtasida, o'smir va sinf o'rtasida, o'smir va ota-onalar o'rtasida.4 Agar nizolar o'z vaqtida hal etilmasa, voyaga etmaganlar asosiy ijtimoiy guruhlardan uzoqlashishni boshlashlari mumkin.

Shuningdek, voyaga etmaganlarning guruhlarga bo'linishi, oilalarning moddiy ta'minotidagi sezilarli bo'shliq bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu farqni faqatgina o'smirlar his qilishi mumkin, chunki ular ijtimoiy hayotga yaqindirlar.

Umuman olganda, voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olishni ikki katta guruhga bo'lish mumkin :

- umumiy - sub'ektlarning cheksiz doirasiga yo'naltirilgan;
- individual - huquqbuzarning o'ziga xos shaxsiga qaratilgan.

Huquqbuzarliklarning umumiy profilaktikasi huquqbuzarliklarning oldini olish ob'ektlariga ta'sir ko'rsatish shaklidir. Huquqbuzarliklarning individual profilaktikasi -voyaga etmaganning g'ayriijtimoiy yo'nalishini va ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarini shakllantirishga olib kelishi mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni bartaraf etishga, shuningdek uni ijtimoiy-pedagogik reabilitatsiya qilish va (yoki) jinoyatlar va g'ayriijtimoiy harakatlar sodir etganligini oldini olishga qaratilgan muayyan voyaga etmagan shaxsga individual ta'sir ko'rsatish shaklidir.[5]

Bolani tarbiyalash jarayonida ota-onalarning qattiq va yumshoq choralarni teng ravishda to'g'ri qo'llash qobiliyati ham muhimdir.

Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikining oldini olishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- oilaviy nizolarni o'z vaqtida hal qilish;
- mastlik va giyohvandlikning oldini olish;
- jamoat tartibini muhofaza qilishni ta'minlash, tungi vaqtlarda to'g'ri yoritishni ya'ni chiroqlarni ko'paytirish ta'minlash;
- ruhiy kasalliklar va buzilishlar bilan og'rigan shaxslarni aniqlash;
- aholini huquqiy ta'lim va tarbiyalashni tashkil etish. Maxsus choralar - bu voyaga etmagan huquqbuzarning shaxsiga, shuningdek, jinoyatni yuzaga keltiruvchi omillarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan choralar.

Ushbu chora-tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad yoshlarda aybdorlik tuyg'usini shakllantirishdan iborat, chunki bu nafaqat kelajakda jinoyatchilikka bo'lgan munosabatga salbiy ta'sir ko'rsatishi, balki uning takrorlanishining oldini olishi ham mumkin.

Birinchi maxsus guruh chora-tadbirlari tarbiyaviy va majburlovdir.

Ikkinchi maxsus chora-tadbirlar guruhi og'ir hayotiy vaziyatga tushib qolgan o'spirinlarga, ular jinoiy tamoyillarni ko'rsatadigan xatti-harakatlar qilishni boshlaganlarida yordam berishga qaratilgan. Bunday harakatlarga quyidagilar kiradi: uydan chiqib ketish, sarsonlik, mayda o'g'irlik, tovlamachilik, firibgarlik va boshqalar.

Uchinchi maxsus guruh chora-tadbirlari - voyaga yetmagan jinoyat sodir etgan shaxslarni fosh etish va ularni jinoiy javobgarlikka tortish, shuningdek, ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilinmagan shaxslarni axloq tuzatish va qayta tarbiyalash choralari.

To'rtinchi maxsus guruh chora-tadbirlari tarbiya koloniyalarida jazoni o'tayotgan o'smirlarga nisbatan qo'llaniladigan tarbiyaviy va jazo choralaridan iborat. Bu chora-tadbirlar, birinchi navbatda, alohida rejim, axloq tuzatish mehnati va tarbiyaviy ta'sir usullarini o'rnatishdan iborat. Bu choralar, asosan, jinoyat takrorlanishining oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Beshinchi maxsus guruh chora-tadbirlari avvalgi ijtimoiy muhitga qaytgandan keyin normal hayot sharoitlariga moslashishga qaratilgan chora-tadbirlardir.

Toshkent shahar IIB boshlig'i o'rinbosari - Tergov boshqarmasi boshlig'i, polkovnik Zafar Alimovning aytishicha, "Yaqinlarning yoshlarga qiziqishi yo'qligi huquqbuzarliklarning asosiy sabablaridan biridir. Ayniqsa, Ota-onaning e'tiborsizligi tufayli, yoshlar huquqbuzarlik sari ilk qadamlarini qo'ymoqda. Shu bois bunday chora-tadbirlarni o'tkazishdan asosiy maqsad kelajakda yoshlar o'rtasida har qanday huquqbuzarlik holatlarining oldini olishdan iboratdir ... Jinoyatlar takrorlanmasligi uchun ularni turli tadbirlarga jalb qilish orqali ta'sir o'tkazish, bundan maqsad jamiyatga ehtiyojini ko'rsatishdan iborat bo'ladi...". Tadbir davomida polkovnik Alimov Z. yoshlar bilan olib boriladigan ma'naviy-marifiy ishlar samaradorligini oshirish, ular o'rtasida huquqbuzarlik, jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan profilaktik ishlarni tizimli tashkil etish, turli zararli oqimlar ta'siriga tushib qolishdan asrash, yoshlarni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishini ta'minlashga qaratilgan muhim vazifalarni o'z vaqtida bajarish lozimligi ta'kidlandi. Shuningdek, qasddan odam o'ldirish yoki tan jarohati etkazish, mol-mulkka tajovuz qilish, firibgarlik kabi jinoyatlarni hamda ayollar, yoshlar, voyaga yetmaganlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatlarni keskin kamaytish, huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish borasida amalga

oshirilayotgan muhim ishlar e'tirof etildi. Shuningdek, yurtimizda aholining tinch-osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan juda muhim va samarali ishlar o'zining ijobiy natijalarini berayotganini haqida gapirib o'tildi.

Agar statistik ma'lumotlarni hisobga oladigan bo'lsak, voyaga etmaganning jinoyatchi shaxsini shakllantirishning boshlang'ich nuqtasi bo'lgan juda ko'p oilaviy sabablar mavjudligi va natijada u tomonidan jinoyat sodir etilishi aniqlanishi mumkin.

Shunday qilib, bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar orqali amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar va kelgusidagi konsepsiyalarning ishlab chiqilishi nafaqat davlat, balki jamiyat manfaatdorligini ko'rsatadi. Statistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra jinoyatchilik darajasining kamaygani ham amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar

1. https://lex.uz/docs/-111453 [O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi]
2. Толипов Н.М., Рустамбекова Н.Н. Общественная опасность и криминологическая детерминация насильственной преступности несовершеннолетних // Научно-образовательный потенциал молодежи в решении актуальных проблем XXI века. 2021. № 6.
3. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ishlarni davom ettirish kerak, deb hisoblaydi ijtimoiy faollarhttps://iiv.uz/ru/news
4. Шарипов С.Т., Турсунова М.М. (2022). Меры профилактики и борьбы с насильственной молодежной преступностью. Вестник науки и образования, (127), 79-84.
5. Khatamov B.K. (2022). Personality of a juvenile delinquent. Innovative science. No.2. pp. 31.

YOSHLAR O'RTASIDA KIBER JINOYATLARNI ORTIB BORISHI UNGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI

Ibodov Xurshid Ikrom o'g'li
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti

Iminov Abdurasul Abdulatipovich
O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Raqamli texnologiyalar va axborot xavfsizligi kafedrasi boshlig'i, matematika va fizika fanlari nomzodi,dotsent

Annotatsiya. Mazkur maqolada yoshlar orasida kiberjinoyatchilikning kengayish sabablari, uning ijtimoiy va huquqiy oqibatlari hamda unga qarshi kurashishning samarali yo‘llari tahlil qilingan. Profilaktik chora-tadbirlar, axborot texnologiyalaridan xavfsiz foydalanish madaniyatini shakllantirish va huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: kiberjinoyatchilik, yoshlar, axborot xavfsizligi, profilaktika, huquqiy savodxonlik.

Abstract. This article analyzes the causes of the spread of cybercrime among youth, its social and legal consequences, and effective methods to combat it. Recommendations are given on preventive measures, developing a culture of safe use of information technologies, and improving legal literacy. Keywords: cybercrime, youth, information security, prevention, legal literacy.

Аннотация. В данной статье анализируются причины распространения киберпреступности среди молодежи, её социальные и правовые последствия, а также эффективные способы борьбы с ней. Даны рекомендации по профилактическим мерам, формированию культуры безопасного информационных технологий и повышению правовой грамотности. Ключевые слова: киберпреступность, молодежь, информационная безопасность, профилактика, правовая грамотность.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib bordi. Internet va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari ortishi bilan bir qatorda, ularning salbiy oqibatlari xususan, kiberjinoyatchilikning turli ko‘rinishlari ham keng tarqalmoqda. Bu jarayon ayniqsa yoshlar orasida dolzarb bo‘lib, ularning texnologiyalardan foydalanishdagi yetarli tajribaga ega emasligi, huquqiy bilimlarining cheklanganligi va xavfsizlik madaniyatining pastligi kabi omillar bilan izohlanadi. Kiberjinoyatchilik nafaqat shaxsiy ma’lumotlarning o‘g‘irlanishi yoki moliyaviy zarar yetkazish bilan cheklanmay, balki yoshlarning psixologik holatiga, ijtimoiy munosabatlariga va kelajakdagi faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli ushbu muammoni o‘rganish, uning ildiz sabablari va oqibatlarini aniqlash, shuningdek, samarali profilaktika choralarini ishlab chiqish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ushbu ishning maqsadi yoshlar o‘rtasida kiberjinoyatchilikning oldini olish bo‘yicha tizimli yondashuvni ishlab chiqish, xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish va huquqiy savodxonlikni oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar berishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodikasi. Yoshlar o‘rtasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi nafaqat texnik, balki ijtimoiy va madaniy yondashuvni ham talab qiladi. Zamonaviy sharoitda an’anaviy

ogohlantirishlardan ko‘ra, interaktiv va yoshlar dunyoqarashigamos metodlar samaraliroq natija beradi. Masalan, maxsus mobil ilova ishlab chiqilib, unda foydalanuvchi kiberjinoyatga oid real hayot senariylari asosida o‘yinlarda qatnashadi. Har bir vaziyatda to‘g‘ri qaror qabul qilgan ishtirokchi mukofotlar oladi va reytingda yuqoriga ko‘tariladi. Bu nafaqat bilimni oshiradi, balki xavfsizlik bo‘yicha tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmasini ham mustahkamlaydi. Sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda yoshlar faoliyatini onlayn kuzatib, shubhali harakatlar haqida ogohlantiruvchi tizim yaratish ham dolzarb. Masalan, foydalanuvchi zararli havolaga o‘tmoqchi bo‘lganda, tizim uni avtomatik bloklab, nima sababdan bu havola xavfli ekanini sodda va tushunarli tilda tushuntiradi. Bu jarayon texnologiyani faqat himoya vositasi sifatida emas, balki o‘quvchi uchun murabbiy vazifasida ham ishlashiga imkon beradi. Ta’lim muassasalarida kiberxavfsizlik laboratoriyalarini tashkil etish ham samarali natija beradi. Bu yerda o‘quvchilar phishing xatlar, soxta saytlar va zararli dasturlarni amaliy misollarda tanib o‘rganadi. Treninglar o‘yin elementlari bilan boyitilib, eng faol ishtirokchilar sertifikat bilan taqdirlanadi. Bundan tashqari, har bir maktab yoki kollejda kiberxavfsizlik bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan “Yosh elchilar” faoliyat yuritishi mumkin. Ular sinfdoshlari va do‘stlari o‘rtasida onlayn xavfsizlik madaniyatini targ‘ib qiladi. Profilaktika ishlarida milliy mentalitetga moslashtirilgan animatsion roliklar ham muhim o‘rin tutadi. O‘zbekona obrazlar, hazil va hayotiy voqealar orqali yoshlar o‘ziga yaqin uslubda ogohlantirilsa, xabar ancha samarali yetib boradi. Bundan tashqari, kiberxavfsizlik bo‘yicha onlayn marafon tashkil etish ham katta qiziqish uyg‘otadi. Marafonda ishtirokchilar bir hafta davomida turli vazifalarni bajaradi: soxta xabarlarni aniqlash, kuchli parollar tuzish, zararli fayllarni topish. Eng yuqori natija ko‘rsatganlar esa keng jamoatchilik oldida e’tirof etiladi. Bunday yondashuvlar yoshlarning faqat nazariy bilimini oshirish bilan cheklanmay, ularning real hayotda kiberxavflarga qarshi samarali himoyalanish ko‘nikmasini shakllantiradi. Shu tariqa, kurash jarayoni quruq targ‘ibot emas, balki yoshlar uchun qiziqarli, interaktiv va amaliy tajribaga aylantiriladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR So‘nggi oylarda GenAI (Generativ sun’iy intellekt) yoshlar tomonidan kiberjinoyatchilikda qanday foydalanilayotgani, va unga qarshi kurashishda qanday strategiyalar qo‘llanishi masalasi ilmiy asosda tahlil qilinmoqda. Bu tadqiqotlar GenAI ning jinoyatchilikni kuchaytirish imkoniyatlarini aniqlab, siyosatchilar va xavfsizlik mutaxassislari uchun muvozanatli yondashuvlar ishlab chiqishga yo‘naltirilgan. Madaniy matnlarni inobatga olgan yondashuvlar, ayniqsa “Global janub” mintaqasidagi yoshlarning onlayn xavfsizligiga qaratilgan sistematik tahlillar orqali aniqlanmoqda. Ushbu tadqiqotlarda yoshlarni ijtimoiy-madaniy nuqtalardan tahlil qilish muhimligi ta’kidlanadi. O‘zbekistonda UNODC

va UNDP tomonidan o‘tkazilayotgan tashabbuslar yoshlarning raqamli savodxonligini, tanqidiy fikrlashni va huquqiy ongni mustahkamlashga qaratilgan, amaliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga olgan innovativ dasturni tasvirlaydi. GenAI xavfini ilmiy nazoratga olish: GenAI ning yoshlar tomonidan kiberjinoyatchilik maqsadida foydalanilishi bilan bog‘liq xavflarni identifikatsiya qilish uchun empirik tadqiqotlar orqali xavflar toifasini yaratish. Bu ishlarda cheklovlar, shaxsiylik buzilishi, ruhiy salomatlik kabi yangi xavf turlari aniqlanadi. “Muhokama va natijalar” qismi uchun so‘nggi oylardagi GenAI (Generativ sun’iy intellekt) va yoshlar o‘rtasida kiberjinoyatchilikka qarshi kurash jadval ko‘rinishida: Asosiy yo‘nalish Ilmiy tahlil mazmuni Amaliy misol Yaratilgan strategiya GenAI ning jinoyatchilikdagi roli Tadqiqotlar GenAI vositalarining soxta hujjatlar, phishing xabarlar va deepfake Yoshlar GenAI yordamida tanishining ovozini soxtalashtirib, Sun’iy intellekt asosida yaratilgan kontentni aniqlash uchun avtomatik .Asosiy yo‘nalish Ilmiy tahlil mazmuni Amaliy misol Yaratilgan strategiya videolar yaratishda ishlatilishini ochib beradi. onlayn pul so‘rash holati aniqlangan. detektorlar joriy etish. Madaniy kontekstni hisobga olish Global janubdagi yoshlarning raqamli xavfsizlik tushunchasi madaniy qadriyatlar va oila munosabatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligi aniqlanadi. Ba’zi hududlarda ota-onalar farzandlariga internetdan foydalanishda qattiq cheklovlar qo‘yadi, bu esa yoshlarni yashirin onlayin faoliyatga o’rgatib qo’yadi.

Bugungi kunda (2025-yil) O‘zbekistonda va butun dunyoda yoshlar (15–35 yosh) internetning eng faol foydalanuvchilaridir. Internet ularning hayotining deyarli barcha jabhalariga chuqur singib ketgan.

Statistik ma’lumotlar (2024–2025-yillar)

- O‘zbekistonda 18–34 yoshdagi yoshlarning 95–98 % internetdan foydalanadi.
- Kuniga o‘rtacha 5–8 soat onlayn vaqt o‘tkazadi (ayniqsa 18–24 yoshdagilar).
- Smartfon – asosiy qurilma (99 % dan ortiq yoshlar smartfonga ega).
- Eng ko‘p foydalaniladigan platformalar (O‘zbekiston yoshlari orasida, 2025)
- Telegram – 95 % dan ortiq (birinchi o‘rinda, messenjer, kanal, guruhlar uchun)
- Instagram – 85–90 % (ayollar orasida ayniqsa yuqori)
- TikTok – 80–85 % (ayniqsa 16–25 yoshdagilar orasida)
- YouTube – 90 % dan ortiq
- Internet-qaramlik – kuniga 7–10 soat telefon bilan o‘tiradigan yoshlar ko‘p
- Soxta yangiliklar va manipulyatsiya (ayniqsa siyosiy mavzularda)
- Kiberbulling – Instagram va Telegramda haqoratlar
- Maxfiylik yo‘qolishi – shaxsiy ma’lumotlar oshkor bo‘lishi
- Kontentning past sifati – ko‘p vaqt behuda “skroll” qilish

- 2024–2025-yillarda kuzatilgan trendlar (O‘zbekiston)
- TikTok va Instagram Reels orqali qisqa video kontent hukmron
- Sun’iy intellekt (ChatGPT, Midjourney) ni faol o‘rganish va ishlatish
- Kriptovalyuta va NFT ga qiziqish (lekin ko‘pincha aldanish holatlari)
- Onlayn kurslar va IT sohasiga kirish (ayniqsa yigitlar orasida)

“Digital detox” harakati boshlanmoqda – ba’zi yoshlar ijtimoiy tarmoqlardan chiqib ketmoqda

Internet bugungi o‘zbek yoshlari hayotining ajralmas qismiga aylandi. U ularga cheksiz imkoniyatlar bersa ham, ayni paytda vaqtni behuda sarflash, ruhiy salomatlikka putur yetkazish xavfini ham oshirgan. Kelajakda muhim bo‘ladigani – internetni “aqlli” va maqsadli ishlatish.

Xulosa qilib, bugungi kunda voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlar orqali amalga oshirilmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar va kelgusidagi konsepsiyalarning ishlab chiqilishi nafaqat davlat, balki jamiyat manfaatdorligini ko'rsatadi. Statistik tadqiqotlar natijalariga ko'ra jinoyatchilik darajasining kamaygani ham amalga oshirilgan ishlar samaradorligini tasdiqlaydi.

Adabiyotlar

1. https://lex.uz/docs/-111453 [O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi]
2. Толипов Н.М., Рустамбекова Н.Н. Общественная опасность и криминологическая детерминация насильственной преступности несовершеннолетних // Научно-образовательный потенциал молодежи в решении актуальных проблем XXI века. 2021. № 6.
3. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ishlarni davom ettirish kerak, deb hisoblaydi ijtimoiy faollarhttps://iiv.uz/ru/news
4. Шарипов С.Т., Турсунова М.М. (2022). Меры профилактики и борьбы с насильственной молодежной преступностью. Вестник науки и образования, (127), 79-84.
5. Khatamov B.K. (2022). Personality of a juvenile delinquent. Innovative science. No.2. pp. 31.

ЎЗБЕК ТЎЙ-ҲАШАМЛАРИДА МАДАНИЙ МЕЪЁРЛАРНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ

Гуларо Нишонбоева
маданиятшунослик бўйича
фалсафа доктори (PhD)

Аннотация. Ушбу мақолада ўзбек тўй-ҳашамлари, маросимларнинг меъёрий даражаси, менталитетмизга хос бўлмаган баъзи “удум”ларнинг бўрттириб кўрсатилишида маданий талабларнинг бузилиши ҳамда уларнинг оқибатида “”сен ўзар”, “мен ўзар”лар ортиб бориши ҳақида фикрлар баён қилинган.

Калит сўзлар: маданий мезон, тўй-ҳашамлар, маданий талаблар ва қоидалар, ўзбекона камтарлик, менталитет, қадриятлар, тўй қилиш маданияти.

Аннотация. В данной статье изложены размышления о нарушении культурных норм на узбекских свадьбах, уровне формальности церемоний, преувеличение некоторых «обычаев», нехарактерных для нашего менталитета, и, как следствие, о росте отношения по принципу «скупой платит дважды» и «я получаю то, за что плачу дважды».

Ключевые слова: Культурные нормы, свадебная роскошь, нормативные правила, узбекская скромность, менталитет, ценности, свадебная культура.

Annotation. This article reflects on the violation of cultural norms at Uzbek weddings, the level of formality in ceremonies, the exaggeration of certain «customs» that are uncharacteristic of our mentality, and, as a result, the rise of the attitude «a miser pays twice» and «I get what I pay for twice.»

Ўзбек халқи азалий урф-одатлар, миллий қадриятлар ва удумларга ҳурмат кўз билан қарайдиган миллат ҳисобланади. Шу маънода ҳар бир маросимларнинг ўз ўрни бор, уларга ҳурмат ва эҳтиром маъносида байрам, тадбир ҳамда туй-ҳашамларни жамоавий ўтказиш анъанага айланган.

Тўй сўзининг луғавий маъноси - хурсандчилик, шодиёна маросим, байрам, айниқса, никоҳ, туғилган кун, тўйлар каби оилавий муҳим ва кўтаринки пайтда ўтказиладиган катта тантана маросими бўлиб, унда одамлар йиғилиб, овқатланишади, ўйин-кулгу қилишади, дийдорлашади. Бу сўз ўзбек тилида «байрам», «тўй-томоша», «ҳашаматли маросим» каби маъноларни англатади. Қадимда маросимлар, турли хилдаги тўйлар одамларда жаомавийлик, аҳиллиқ туйғуларини шакллантирган.

Ота-боболаримиз давридаги тўй-ҳашамлар билан ҳозирги кундаги тўйларнинг ер билан осмончалик фарқи бор.

Ўзбекистон Республикасида Қорақалпоғистон ва Тошкент шаҳридан ташқари 12 та вилоят бўлса, ушбу вилоятларда удумларимиз ўзгача, ҳаттоки битта вилоятни оладиган бўлсак ўша вилоятнинг туманларида ҳам удумларнинг хилма-хиллигига гувоҳ бўламиз. Ҳўш, бу адоғи йўқ маросиму урф-одатларимиз, орзу хавасларимиз жуда ҳам кўпайиб кетмаяптимикан, деган саволларга жавоб беришимиз керак бўлмоқда. Ҳозирги глобаллашув даврида оммавий ахборот ҳамда медиа макондаги турли хилдаги

контетнларни кузатиб бормоқдамиз, шу жумладан, мавзуимизга тегишли бўлган баъзи тўй-томошаларнинг ҳашамли тарзда олиб борилаётганига гувоҳ бўляпмиз. Бугунги кунда ижтимоий тармоқларнинг ёшлар онгига таъсири, ҳам салбий ҳам ижобий маънода жуда ҳам катта таъсирга эга. Ўзбек удумлари ҳақида қўйилаётган тўй-томошалар ҳақидаги мавзуларни яхшилаб ўрганиб, унинг тарбиявий аҳамиятига эътибор қаратиб кейин оммага ёйилса мақсадга муовфиқ бўлар эди. Гарчи ўзбек халқи орасида “Одобни одобсиздан ўрган”, деган нақлнинг тагида катта маъно ётибди.

Энди баъзи тўй дастурхонларининг нозу неъматларга тўлалиги, овқатларнинг кети узилмай дастурхонга тортиқ қилинишини баъзилар тўйга келган меҳмонга нисбатан ҳурмат маъносида тушунса, бошқалар исрофгарчилик, ундан кўра бева-бечорага, ижтимоий боқувчисини йўқотган оилага эҳсон қилса, канча савобга қолган бўларди, деб ўйлайди. Ҳақиқатдан ҳам бунақанги бир кунлик ўтиб кетадиган тўйга шунча исрофгарчиликнинг кимга нима кераги бор?, Обрў тўплаш учунми, ундан кўра ихчамгина тўй қилиб, дастурхон ва тўйга келадиган санъаткорларни ҳам ихчам қилиб ўтказиш ҳам мумкинку. Ким бизни уришади, ўзимизнинг имкон доирамиздан келиб чиқиб тўй қилсак оила бюждетига ҳам фойда теккан бўларди.

Мустақил ҳаётга қадам қўяётган икки ёшнинг бахту камоли керакми, ёки фалон миллион сарфлаб тўй қилди, фалонта қўшиқчи санъаткорлар келди, деган обрў керакми?

Оддийгина мисол тариқасида янги туғилган чақалоқнинг туғруқхонадан уйига келиш “маросимчаси”ни бир кузатинг. Болани олиб чиқишда бир нечта чет элни мошинаси ҳамда турли хилдаги мусиқий дастурларнинг баланд овозда янграши. Хали тинчгина бир неча соат ухлайдиган чақалоққа шов-шув ва шунча ҳаражатнинг кераги бормикан? Ёки бўлмаса бешик тўйи мисолида таҳлил қилиб кўрингчи, бир ёшга тўлар - тўлмас болага бешик бериш маросимидаги керак-керакмас ҳаражат ва ҳаддан ортиқ совға-саломларга бешикда ётган бола тушунадими? Қизини бир хонадонга узатиб ҳам тинчимаган отага катта юкламанинг ортилиши бу қанчалик мантиққа тўғри келади. Бу каби удум ва маросимларда маданий меъёрлар бузилмаяптимикан? Нафақат маданий меъёрлар бузиляпти, бошқаларга эса тарбиявий салбий таъсир ҳам ўтказяпти.

Маҳмудхўжа Беҳбудий бундан қарийб 111 йил олдин айтган: “...Ҳамватанларимиз мулкини сотиб тўй қилганидек сиз-да, ҳатто, лозим бўлганда мулкингизни сотсангиз-да ўғлингизни замонча ўқумоқиға саъй қилсангиз. Тўйга исроф қилинатургон оқчаларни ўқумоқ йўлиға сарф

қилсангиз!..”, деган сўзларини эсладик («Ойина» журнали, 1914 йилги 21-сон, “Ёшларға мурожаат” мақоласи).

Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 192–1– моддасига кўра, тўйлар, оилавий тантаналар, маросим ва урф–одатларни ўтказувчи шахс томонидан ушбу тадбирларни ўтказиш тартибига доир талабларга риоя қилмаслик фуқароларга базавий ҳисоблаш миқдорининг 10 баравари (3,75 миллион сўм), мансабдор шахслар ва муассасалар эгаларига эса 30 баравари (11,25 миллион сўм), такроран бузилганда эса 50 баравари (18,75 миллион сўм) миқдорида жарима солишга олиб келади. 2020–йил март ойида тўй ва бошқа оилавий тадбирларни ўтказиш тартибини бузганлик учун жавобгарлик жорий этилган.

Бироқ, шу вақт давомида ушбу модда бўйича кўриб чиқилган ишлар сони ҳар йили жуда оз бўлган. Масалан, “Газета.уз” ўрганган суд қарорларига кўра, жорий йил бошидан бери атиги 4 та шундай иш кўриб чиқилган, 2024-йилда жами 9 та, 2023-йилда 4 та, 2022-йилда бирорта ҳам иш кўрилмаган, 2021-йилда 15 та, 2020-йилда эса бирорта ҳам иш кўриб чиқилмаган.

Фармоннинг иловасига кўра, 2025 йилнинг август ойигача тўйлар, оилавий тантаналар, маъракалар ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш бўйича парламент палаталари кенгашларининг қўшма қарори қабул қилиниши кўзда тутилган. Бундан ташқари, тўй-ҳашам, маърака ва маросимлардаги исрофгарчиликларнинг олдини олишга қаратилган тарғибот ишлари кучайтирилади.

Амалдаги қоидалар қанақа?

Ўзбекистонда тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимларни ўтказишни тартибга солиш тўғрисида Низом бор. Мазкур Низомга мувофиқ парламент палаталари кенгашларининг 2019 йил 14 сентябрдаги қарори билан тасдиқланиб, 2020 йил 1 январдан кучга кирган ва ҳозир ҳам қонуний кучга эга.

Миллий анъаналарга ёт, одоб-ахлоқ қоидаларига зид бўлган турли шоуларни, ортиқча вақт ва харажат талаб қиладиган оилавий тадбирлардан олдинги, тадбир давомидаги ва ундан кейинги қўшимча расм-русумларни (“куёв навкари”, “чорлар”, “ота кўрди”, “сеп ёйди”, “қуда чақирди”, “куёв чақирди”, “келин чақирди”, “тоғора юбориш” ва ҳоказоларни) ўтказишга йўл

қўйилмайди. Дафн этиш ва мотам маросимлари билан боғлиқ ортиқча тадбирларни (“етти”, “пайшанбалик”, “якшанбалик”, “йигирма”, “қирқ”, “ҳайит”, “йил оши”, “пул тарқатиш”, “мато улашиш” ва ҳоказоларни) ўтказиш ман этилган.

Тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимларда 200 нафаргача, бу тадбирлар муносабати билан ош бериш маросимида 250 нафаргача киши қатнашади. Қўшалоқ тўйларда 250 нафаргача, у билан боғлиқ ош бериш маросимида эса 300 нафаргача киши қатнашиши мумкин.

Президентнинг 2025 йил апрель ойидаги фармонида тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш бўйича август ойида Олий Мажлис палаталари кенгашларининг янги қўшма қарори лойиҳаси тайёрланиши белгиланди. Лойиҳада тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш, ёшларда тежамкорлик маданиятини шакллантириш бўйича янги механизмлар назарда тутилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Тўйлар, оилавий тантаналар, марака ва маросимлар ўтказилишини тартибга солиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда VI-76-99-11-159-К/23 сонли қарорга ўзгартириш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида.
2. Сенат кенгашининг 2019 йил 14 сентябрдаги қўшма қарори билан тасдиқланган Тўйлар, оилавий тантаналар, маърака ва маросимларни ўтказишни тартибга солиш тўғрисидаги Низом.
3. Назаров Қ. Маънавият асосий тушунчалар луғати. Тошкент.: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти, 2021. 308-310 бетлар.

FGF-23 ВА БОШҚА БИОКИМЁВИЙ КЎРСАТКИЧЛАРНИНГ ГЕМОДИАЛИЗ БЕМОРЛАРИ ЯШОВЧАНЛИГИГА ТАЪСИРИ

Makhmanov L.S.,
Samarkand State Medical University, Samarkand, Uzbekistan

Gadayev A.G.
Tashkent State Medical University, Tashkent, Uzbekistan

Аннотация. Гемодиализ олаётган беморларда яшовчанликка таъсир этувчи биокимёвий кўрсаткичларни баҳолаш муҳим клиник аҳамиятга эга ҳисобланади [1,3]. Ушбу тадқиқотда қон зардобидаги айрим лаборатор кўрсаткичларнинг беморлар яшовчанлигига таъсири алоҳида ҳолда ROC-таҳлил ёрдамида ўрганилди. Олинган натижалар fibroblast growth factor-23


(FGF-23) бошқа биокимёвий кўрсаткичларга нисбатан юқорироқ прогностик қийматга эга эканини кўрсатди.

Калит сўзлар: гемодиализ, яшовчанлик, ROC-таҳлил, биокимёвий кўрсаткичлар, FGF-23, паратиреоид гормон, фосфор, альбумин, С-реактив оқсил, қолдиқ диурез, прогностик омиллар, биомаркерлар.

Тадқиқот мақсади. Гемодиализ олаётган беморларда яшовчанликка таъсир этувчи айрим биокимёвий кўрсаткичларнинг прогностик аҳамиятини ROC-таҳлил асосида баҳолаш [6].

Материал ва усуллар. Тадқиқотда гемодиализ олаётган беморларда қуйидаги биокимёвий кўрсаткичлар таҳлил қилинди: гемоглобин, альбумин, С-реактив оқсил (CRP), паратиреоид гормон (PTH), фосфор, fibroblast growth factor-23 (FGF-23) ҳамда кунлик диурез ҳажми [2,4].

Ҳар бир кўрсаткичнинг яшовчанликка таъсирини баҳолаш мақсадида ROC-таҳлил ўтказилди ва ROC эгри чизиқ ости майдони (AUC) ҳисобланди. AUC қийматлари 0,50 атрофида бўлиши паст прогностик аҳамият сифатида баҳоланди [6].



Натижалар. 1-расмда келтирилган ROC-таҳлил натижаларига кўра, FGF-23 бошқа биокимёвий кўрсаткичларга нисбатан энг юқори прогностик аҳамиятга эга экани аниқланди (AUC = 0,65, $p < 0,05$).

Альбумин (AUC = 0,50), С-реактив оқсил (AUC = 0,45), гемоглобин (AUC = 0,45), паратиреоид гормон (AUC = 0,56), фосфор (AUC = 0,51) ва кунлик

диурез (AUC = 0,46) кўрсаткичлари эса яшовчанликни башоратлашда кучсиз прогностик омиллар эканлиги қайд этилди.

Олинган натижалар илгари ўтказилган тадқиқотлар билан мувофиқдир. Хусусан, Gao ва ҳаммуаллифлар томонидан ўтказилган тадқиқотда гемодиализ беморларида FGF-23 юқори даражаси умумий ўлим ва юрак-қон томир асоратлари билан боғлиқ экани кўрсатилган. Ушбу тадқиқотда FGF-23 юқори бўлган гуруҳда odds ratio ≈ 1,14 (95% CI: 1,01–1,30; p = 0,04) ни ташкил этган [6].

Шунингдек, бошқа бир тадқиқотда гемодиализ олаётган беморларда FGF-23 юқори даражаси ва Klotho оқсили пастлиги беморлар яшовчанлиги ва ҳаёт сифатига салбий таъсир кўрсатиши аниқланган [5].

Хулосалар. Гемодиализ олаётган беморларда биокимёвий кўрсаткичлар орасида FGF-23 яшовчанликка таъсир этувчи энг аҳамиятли прогностик омил ҳисобланади.

Альбумин, CRP, гемоглобин, PTH, фосфор ва кунлик диурез алоҳида ҳолда паст прогностик аҳамиятга эга.

FGF-23 юқори даражаси беморлар яшовчанлигига салбий таъсир кўрсатади ва касаллик прогрессиясини башорат қилишда қўлланилиши мумкин.

Олинган натижалар гемодиализ беморларида FGF-23 ни муҳим биомаркер сифатида клиник амалиётга жорий этиш мақсадга мувофиқ эканини кўрсатади.

Адабиётлар рўйхати

1. Collins A.J., Foley R.N., Gilbertson D.T., Chen S.C. Chronic kidney disease and end-stage renal disease surveillance. American Journal of Kidney Diseases. 2014;63(6 Suppl 2):A7–A14.
2. Kalantar-Zadeh K., Block G., Humphreys M.H., Kopple J.D. Reverse epidemiology of cardiovascular risk factors in dialysis patients. Kidney International. 2003;63(3):793–808.
3. Saran R., Robinson B., Abbott K.C., et al. US Renal Data System 2023 Annual Data Report. American Journal of Kidney Diseases. 2023;82(Suppl 1):S1–S550.
4. Obi Y., Rhee C.M., Mathew A.T., et al. Residual kidney function and mortality in hemodialysis patients. Journal of the American Society of Nephrology. 2016;27(12):3758–3768.

5. Tripepi G., Jager K.J., Dekker F.W., Zoccali C. Diagnostic methods 2: receiver operating characteristic (ROC) curves. Kidney International. 2009;76(3):252–256.
6. Gao X., Zhang H., Zeng J., et al. Association between fibroblast growth factor-23 and mortality in hemodialysis patients. Nephrology Dialysis Transplantation. 2019;34(9):1498–1505.
7. Hu M.C., Shi M., Zhang J., et al. Klotho deficiency and FGF-23 excess in chronic kidney disease. Journal of the American Society of Nephrology. 2011;22(5):956–967.

ГЕМОДИАЛИЗ БЕМОРЛАРИДА ЯШОВЧАНЛИКНИ БАҲОЛАШДА МАРКАЗИЙ ВЕНОЗ КАТЕТЕР ВА ДИАЛИЗГА ОИД ОМИЛЛАРНИНГ ЎРНИ

Rizayev J.A., Maxmonov L.S.
Самарқанд давлат тиббиёт университети, Самарқанд, Ўзбекистон

Аннотация. Гемодиализ олаётган беморларда яшовчанликка таъсир этувчи клиник ва диализга оид омилларни комплекс баҳолаш муҳим аҳамиятга эга [1,5]. Ушбу тадқиқотда марказий веноз катетер қўлланилиши, диализ сеансларини ўтказиб юбориш, диализ вақтида артериал қон босимининг пасайиши ҳамда қолдиқ диурез сақланишининг беморлар яшовчанлигига таъсири ўрганилди [2–4]. Барча омилларнинг биргаликдаги прогностик аҳамиятини баҳолаш мақсадида кўп омилли ROC-таҳлил ўтказилди [6]. Олинган натижалар гемодиализ олаётган беморларда яшовчанликни башоратлашда комплекс ёндашув юқори самарадорликка эга эканини кўрсатди.

Калит сўзлар: гемодиализ, яшовчанлик, ROC-таҳлил, сезгирлик, ўзига хослик, марказий веноз катетер, артерио-веноз фистула, диализ сеансини ўтказиб юбориш, артериал гипотензия, қолдиқ диурез, хавф омиллари, прогностик модель.

Тадқиқот мақсади. Гемодиализ олаётган беморларда яшовчанликка таъсир этувчи асосий хавф ва ҳимояловчи омилларни аниқлаш ҳамда уларнинг биргаликдаги прогностик аҳамиятини ROC-таҳлил ёрдамида баҳолаш [1,6].

Материал ва усуллар. Тадқиқотда гемодиализ олаётган беморларда қуйидаги омиллар таҳлил қилинди: марказий веноз катетер қўлланилиши, артерио-веноз фистула мавжудлиги, диализ сеансларини ўтказиб юбориш, диализ вақтида артериал қон босимининг пасайиши, кунлик мустақил диурез ҳажми [2–4,7].

Яшовчанликка таъсир этувчи омиллар odds ratio (OR), 95% ишонч оралиғи (CI) ва p-қиймат орқали баҳоланди [1,5]. Барча омилларнинг умумий прогностик қийматини аниқлаш учун кўп омилли ROC-таҳлил ўтказилди [6].

Натижалар. Марказий веноз катетер қўлланилиши беморларда сепсис ва тромбоз ривожланиш хавфини 200% га ошириши аниқланди (OR = 3,0; 95% CI 2,38–3,90; p = 0,001), бу ҳолат илгари ўтказилган тадқиқотлар натижалари билан мос келади [2]. Артерио-веноз фистуласи мавжуд беморларда мазкур асоратлар частотаси марказий катетер қўлланилган беморларга нисбатан 2 марта кам экани қайд этилди (OR = 1,52; 95% CI 1,20–2,0; p = 0,003) [2].

Диализ вақтида артериал қон босимининг пасайиши беморлар яшовчанлигига салбий таъсир кўрсатувчи омил эканлиги тасдиқланди (OR = 2,0; 95% CI 1,55–2,6; p = 0,001), бу гемодиализ вақтида гипотензиянинг юқори ўлим хавфи билан боғлиқ эканини кўрсатган адабиётлар билан уйғун [3,7].

Кунлик мустақил диурез ҳажмининг 200 мл ва ундан ортиқ сақланиши ҳимояловчи омил сифатида баҳоланди (OR = 0,55; 95% CI 0,44–0,80; p = 0,001) ва беморлар ҳаёт сифатига ижобий таъсир кўрсатди [4].

Шунингдек, диализ сеансларини ўтказиб юбориш энг кучли хавф омилларидан бири эканлиги аниқланди (OR = 2,5; 95% CI 1,95–3,25; p = 0,001), бу ҳолат регистр маълумотлари билан тасдиқланган [1,5].

Юқоридаги натижалар асосида ўтказилган кўп омилли ROC-таҳлил (1-расм) барча ўрганилган омилларнинг биргаликдаги таъсири беморлар яшовчанлигига юқори ишончли салбий таъсир кўрсатишини кўрсатди. ROC эгри чизиқ ости майдони AUC = 0,880 ни ташкил этди (p < 0,001), бу эса моделнинг юқори сезгирлик ва ўзига хосликка эгалигини тасдиқлайди [6].

Хулосалар

Марказий веноз катетер қўлланилиши, диализ сеансларини ўтказиб юбориш ва диализ вақтида гипотензия гемодиализ беморларида яшовчанликка салбий таъсир этувчи асосий хавф омилларидир [2,3,7].

Қолдиқ диурез сақланиши беморлар яшовчанлиги ва ҳаёт сифатига ижобий таъсир кўрсатувчи ҳимояловчи омил ҳисобланади [4].

Кўп омилли ROC-таҳлил барча омилларнинг биргаликда қўлланилиши яшовчанликни башоратлашда юқори прогностик аҳамиятга эга эканини тасдиқлади (AUC = 0,880) [6].

Олинган натижалар гемодиализ олаётган беморларни кузатиш ва даволашда индивидуал ёндашувни такомиллаштириш зарурлигини кўрсатади [1,5].

Адабиётлар рўйхати

1. Collins A.J., Foley R.N., Gilbertson D.T., Chen S.C. United States Renal Data System public health surveillance of chronic kidney disease and end-stage renal disease. American Journal of Kidney Diseases. 2014;63(6 Suppl 2):A7–A14.
2. Ravani P., Palmer S.C., Oliver M.J., et al. Associations between hemodialysis access type and clinical outcomes: a systematic review. Journal of the American Society of Nephrology. 2013;24(3):465–473.
3. Polinder-Bos H.A., García D.V., Kuipers J., et al. Hemodialysis-induced hypotension and its association with mortality. Clinical Journal of the American Society of Nephrology. 2018;13(9):1310–1319.
4. Obi Y., Rhee C.M., Mathew A.T., et al. Residual kidney function decline and mortality in hemodialysis patients. Journal of the American Society of Nephrology. 2016;27(12):3758–3768.
5. Saran R., Robinson B., Abbott K.C., et al. US Renal Data System 2023 Annual Data Report: Epidemiology of Kidney Disease. American Journal of Kidney Diseases. 2023;82(4 Suppl 1):S1–S550.
6. Tripepi G., Jager K.J., Dekker F.W., Zoccali C. Diagnostic methods 2: receiver operating characteristic (ROC) curves. Kidney International. 2009;76(3):252–256.
7. Flythe J.E., Chang T.I., Gallagher M.P., et al. Blood pressure and volume management in dialysis: conclusions from a KDIGO controversies conference. Kidney International. 2020;97(5):861–876.

PHOTOSYNTHETIC PIGMENT CONTENT OF TARAXACUM OFFICINALE L

I.Tugizova
Institute of Genetics and Plant Experimental Biology,
Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
E-mail: tugizovaiqbol@gmail.com

Abstract. Taraxacum officinale L. is a widely distributed perennial medicinal plant belonging to the family Asteraceae and is valued for its rich content of

biologically active compounds. Photosynthetic pigments play a crucial role in plant productivity, physiological stability, and antioxidant activity. The present study focuses on the determination of chlorophyll and carotenoid content in the leaves of T. officinale growing under natural conditions in the Chatkal State Biosphere Reserve. Spectrophotometric analysis revealed balanced chlorophyll a and b levels, as well as a relatively high carotenoid concentration. The obtained results indicate efficient photosynthetic performance and strong antioxidant potential of T. officinale, highlighting its importance as a natural source of bioactive compounds for medicinal and nutritional applications.

Keywords: Taraxacum officinale, chlorophyll, carotenoids, photosynthetic pigments, antioxidant activity

Introduction. Medicinal plants are an important source of biologically active compounds and are widely used in traditional and modern medicine. Taraxacum officinale L. (dandelion) is of particular interest due to its broad ecological distribution and rich content of inulin, flavonoids, phenolic compounds, vitamins, and mineral elements.

Photosynthetic pigments, especially chlorophylls and carotenoids, play a key role in photosynthesis, plant adaptation, and antioxidant activity. However, information on the photosynthetic pigment composition of T. officinale under natural conditions in Uzbekistan is limited; therefore, this study aims to determine the chlorophyll and carotenoid content in leaves collected from the Chatkal State Biosphere Reserve.

Materials and Methods. Study Area. The research was carried out in the Chatkal State Biosphere Reserve, located in the western Tien Shan region of Uzbekistan. The area is characterized by relatively clean environmental conditions and diverse plant communities, making it suitable for studying physiological parameters of medicinal plants under natural conditions.

Plant Material. Leaf samples of Taraxacum officinale were collected during the active vegetative period. Healthy and fully developed leaves were selected for pigment analysis. The collected material was transported to the laboratory for further examination.

Determination of Photosynthetic Pigments. Photosynthetic pigments were determined using standard spectrophotometric methods. Fresh leaf samples were homogenized and pigments were extracted using organic solvents. Absorbance was measured at specific wavelengths corresponding to chlorophyll a, chlorophyll b, and carotenoids.

farzandlar ota-onalarga motivatsiya manbai bo‘lib xizmat qilishadi. Bola tug‘ilishi bilan oilaning imkoniyatlari, muammolarga qarshi kurashish qobiliyati yanada oshadi, chunki bolalar oilaning kuchini kuchaytiradi. Ushbu maqol odamlarni bolalarni tarbiyalashga, ularga muvaffaqiyatli sharoitlar yaratishga va oilaning muhim ahamiyatini yodda tutishga undaydi. Keltirilgan maqol o‘zbek madaniyatida milliy qadriyatlar va an’analarni mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu, bolalar bilan to‘lgan uylarning nafaqat shodlik, balki ijtimoiy barqarorlik manbai ekanini ta’kidlaydi. “Farzand ko‘z nuri, ko‘ngil sururi”, “Bolali uy bozor, bolasiz uy mozor”, “Bolaga qarasang, kelajakni ko‘rasan”, “Farzandli uy, fayzli uy”, “Farzand uyga ziynat”, “Yaxshi urug‘dan, yaxshi nihol”.

O‘zbekistonlik ma’naviyatshunos olima N. Qosimova esa oila qadriyatlari haqida shunday yozadi: “Oilaviy qadriyatlar – milliy o‘zlikni saqlashning, ma’naviyatni davom ettirishning eng muhim vositasidir. Ular yosh avlodda o‘z milliy qadriyatlariga hurmat bilan qarash tuyg‘usini uyg‘otadi”[9].

Ona va xotin sifatida, kelin oilaga mehr bilan va ma’suliyat bilan yondashishi, bolalar tarbiyasi va ularning farovonligiga hissa qo‘shishi muhim. Ko‘p hollarda, kelin va erning oilasi yoki qarindoshlar o‘rtasida tushunmovchiliklar yuzaga keladi. Bu muammoni hal qilishda ochiq va hurmatli muomala muhim. Ba’zan kelinlar haqida salbiy fikrlar yoki stereotiplar paydo bo‘lib, ularning erkinliklari cheklanishi mumkin. Bu muammoni hal qilish uchun jamoatchilik va oilada yangicha fikrlar rivojlantirish kerak. O‘zbek oilasida kelinlik madaniyat, hurmat va tushunishga asoslangan bo‘lib, hamma tomonlarning ehtiyojlari va huquqlarini hisobga olish muhim. Yaxshi muomala va hamkorlik orqali muammolar kamayadi va oilaviy muhit barqarorlashadi. “Kelining bitta bo’lsa, o‘tirib yeysan, ikkita bo‘lsa turib yeysan, uchta bo‘lsa yurib yeysan, to‘rtta bo‘lsa yo‘rg‘alab yeysan”, “Kelin bilan qaynana o‘t bilan suv”, “Kelining qayerlik bo‘lsa, mehmoning shu yerlik’, “Kelin qaynona supurgisi”, “Kelinimning yig‘lagani, eshagimning hangragani”, “Katta kelin uyda, kichik kelin to‘yda”, “Kelinning tili yo‘q, qaynonaning imoni”.

O‘zbek xalqining oilaviy qadriyatlari millatning ma’naviy boyligi va jamiyat barqarorligining asosiy tayanchi bo‘lib, u xalqning birligi, totuvligi va kelajak taraqqiyotini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbek xalq maqollarida oilaviy tarbiya va ota-onaga hurmat masalalari xalq og‘zaki ijodining muhim mavzularidan biri hisoblanadi (O‘zbek xalq maqollari, 2005).

[9] Qosimova N. *Milliy qadriyatlar va oila tarbiyasi.* — Toshkent: Ma’naviyat, 2020.

2. Уралова О.П. Инглиз ва ўзбек тилларида “оила” бош лексемали мақоллар семантикаси ва структураси. Филол. фанлари фалсафа д-ри... дисс. – Самарқанд, 2021. – 144 б.
3. Qosimova N. Milliy qadriyatlar va oila tarbiyasi. — Toshkent: Ma’naviyat, 2020.
4. O‘zbek xalq maqollari va hikmatli so‘zlar to‘plami (2010). Toshkent: Fan.
5. English Proverbs and Sayings Collection (2015). Oxford University Press.P-625

TO‘QIMACHILIK SANOATIDA INTEGRATSIYALASHGAN ISHLAB CHIQARISH TIZIMLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA ULARDA KAPITAL QO‘YILMALAR HISOBINING XUSUSIYATLARI

B.Q.Madartov
q.x.f.d. (DSc), Toshkent davlat agrar universiteti professori

Annotatsiya. Mazkur maqolada to‘qimachilik sanoatida integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlarining milliy iqtisodiyotdagi o‘rni, ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi ahamiyati hamda ushbu tizimlarda kapital qo‘yilmalar hisobini yuritishning o‘ziga xos jihatlari tahlil etilgan. Tadqiqotda ishlab chiqarish integratsiyasining investitsiyaviy muhitga ta’siri, moliyaviy resurslar harakatini boshqarish mexanizmlari va hisob tizimini takomillashtirish masalalari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so‘zlar: to‘qimachilik sanoati, integratsiya, kapital qo‘yilmalar, investitsiya hisobi, iqtisodiy samaradorlik.

Аннотация. В статье анализируется значение интегрированных производственных систем в текстильной промышленности для национальной экономики, их роль в повышении экономической эффективности, а также особенности учета капитальных вложений. Рассмотрено влияние производственной интеграции на инвестиционную среду, механизмы управления финансовыми ресурсами и совершенствование учетной системы.

Ключевые слова: текстильная промышленность, интеграция, капитальные вложения, учет инвестиций, экономическая эффективность.

Annotation. This article analyzes the role of integrated production systems in the textile industry within the national economy, their importance in improving economic efficiency, and the specific features of capital investment accounting. The study examines the impact of production integration on the investment environment, financial resource management mechanisms, and the improvement of accounting systems.

Keywords: textile industry, integration, capital investments, investment accounting, economic efficiency.

Kirish. Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish jarayonlarini integratsiyalash asosida tashkil etish sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va kapital qo‘yilmalar samaradorligini ta’minlashning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, yuqori qo‘shimcha qiymat yaratishga yo‘naltirilgan to‘qimachilik sanoatida integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlari barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim mexanizmlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoatining jadal rivojlanishi ishlab chiqarishning barcha bosqichlarini — xomashyoni qayta ishlashdan tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona tizimda boshqarishni taqozo etmoqda. Bu holat kapital qo‘yilmalarni rejalashtirish, ularni samarali hisobga olish va moliyaviy oqimlarni muvofiqlashtirish zaruratini kuchaytiradi.

Shu jihatdan, integratsiyalashgan to‘qimachilik ishlab chiqarish tizimlarida kapital qo‘yilmalar hisobining o‘ziga xos jihatlarini ilmiy asosda o‘rganish va ularni iqtisodiy samaradorlik bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Iqtisodiy adabiyotlarda ishlab chiqarish integratsiyasi va kapital qo‘yilmalar samaradorligi masalalari keng tadqiq etilgan. Jumladan, M. Porter integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlarini sanoat raqobatbardoshligini oshiruvchi asosiy omillardan biri sifatida baholagan. Xorijiy va MDH olimlari tadqiqotlarida integratsiya kapital aylanish tezligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish vositasi sifatida talqin etiladi.

O‘zbekistonlik olimlar ilmiy ishlarida to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, investitsiya jalb etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Biroq, integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlarida kapital qo‘yilmalar hisobining tizimli va kompleks jihatlari yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan [1:42].

Mazkur tadqiqotda tizimli tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-statistik tahlil, ilmiy abstraksiya hamda induksiya va deduksiya metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar kapital qo‘yilmalar hisobining iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini aniqlash imkonini berdi.

Muhokama va natijalar. To‘qimachilik sanoatida integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlarining iqtisodiyotdagi o‘rni, avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi va texnologik jihatdan o‘zaro uyg‘unlashuvi natijasida yuqori qo‘shimcha qiymat yaratish imkoniyati bilan belgilanadi. Bunday tizimlarda

xomashyoni dastlabki qayta ishlashdan boshlab, yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va yakuniy to‘qimachilik mahsulotlarini tayyorlashgacha bo‘lgan bosqichlarning yagona boshqaruv va texnologik makonda tashkil etilishi ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi. Natijada ishlab chiqarish siklining uzluksizligi ta’minlanib, vaqt va xarajatlar bilan bog‘liq yo‘qotishlar sezilarli darajada qisqaradi.

Integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimi sharoitida texnologik jarayonlarning muvofiqlashtirilgan holda amalga oshirilishi ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish, mahsulot sifatining barqarorligini ta’minlash hamda tannarxni pasaytirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yarim tayyor mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish o‘rniga ularni klaster yoki integratsiyalashgan tizim doirasida chuqur qayta ishlash imkoniyati qo‘shimcha qiymat zanjirini kengaytirib, korxonalarning daromadlilik darajasini oshiradi. Bu esa to‘qimachilik sanoatida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun mustahkam iqtisodiy asos yaratadi[5:63].

Shu bilan birga, ishlab chiqarish bosqichlarining yagona tizimda birlashtirilishi boshqaruv jarayonlarini soddalashtirib, moliyaviy va moddiy resurslar oqimini samarali muvofiqlashtirish imkonini beradi. Natijada investitsiyalarning aylanish tezligi oshadi, innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun qulay sharoit yaratiladi hamda ishlab chiqarish faoliyatining umumiy iqtisodiy samaradorligi ortadi. Demak, to‘qimachilik sanoatida integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlari nafaqat tarmoq rivojiga, balki milliy iqtisodiyotda tarkibiy o‘zgarishlarni jadallashtirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tizim sharoitida ishlab chiqarish xarajatlarining qisqarishi logistika jarayonlarining optimallashtirilishi va boshqaruvning markazlashuvi bilan izohlanadi. Natijada ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi oshib, kapital qo‘yilmalarning qaytish muddati qisqaradi va investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi ta’minlanadi [2:117].

Integratsiyalashgan to‘qimachilik tizimlari hududiy iqtisodiy rivojlanishga ko‘p qirrali va barqaror ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, ishlab chiqarish jarayonlarining bir hududda jamlanishi va uzluksiz tashkil etilishi natijasida yangi ish o‘rinlari yaratiladi, bu esa aholi bandligini oshirish va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan tarmoqlar — logistika, xizmat ko‘rsatish, transport va savdo sohalarining rivojlanishi ham hududiy mehnat bozorining kengayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, integratsiyalashgan to‘qimachilik tizimlari tayyor mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilganligi sababli eksport tarkibida yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ulushi ortadi. Bu holat hududlarning eksport salohiyatini

kuchaytirib, valyuta tushumlarining barqaror manbalarini shakllantiradi. Natijada hududiy iqtisodiyotning tashqi bozorlarga integratsiyalashuvi chuqurlashib, milliy iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligi oshadi[2:83].

Shu bilan birga, to‘qimachilik tizimlarining rivojlanishi sanoat infratuzilmasining modernizatsiyasini rag‘batlantiradi. Energetika, transport-logistika tarmoqlari, muhandislik kommunikatsiyalari va ishlab chiqarish maydonlarining rivojlanishi hududlarda investitsiyaviy jozibadorlikni oshiradi. Bu esa yangi ishlab chiqarish subyektlari va kapital qo‘yilmalarni jalb etish uchun qulay sharoit yaratadi. Umuman olganda, integratsiyalashgan to‘qimachilik tizimlari hududiy iqtisodiy rivojlanishning muhim drayveri sifatida namoyon bo‘lib, milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qiladi.

Kapital qo‘yilmalar hisobining o‘ziga xos jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- kapital manbalarining diversifikatsiyasi;
- uzoq muddatli investitsiyalarning ustuvorligi;
- ishlab chiqarish obyektlarining texnologik murakkabligi;
- amortizatsiya va qayta investitsiya jarayonlarining uzviyligi [3:91].

Kapital qo‘yilmalar hisobini samarali tashkil etish moliyaviy resurslar harakatining shaffofligini ta’minlab, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli axborot bazasini shakllantiradi. Bu esa moliyaviy risklarni kamaytirish va investitsiya jarayonlarini ilmiy asosda rejalashtirish imkonini beradi [4:68].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, to‘qimachilik sanoatida integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlari milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ushbu tizimlarda kapital qo‘yilmalar hisobini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqola natijalari to‘qimachilik sanoatida kapital qo‘yilmalar hisobini ilmiy asosda tashkil etish va moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Казакова Н.А. и др. (2018). Стратегический менеджмент. М.: ИНФРА-М.
2. Branch M. (1962). The Corporate Planning Process. New York.
3. Tilles S. (1964). Strategic Planning in the Multidivisional Company. Boston.
4. Исаев Р. (2021). Сифат менежменти ва стратегик бошқариш интеграцияси // Иқтисодиёт ва таълим, №5.
5. Исаева Е.А. (2016). Стратегический менеджмент. М.: КНОРУС.

BAMIYA (ABELMOSCHUS ESCULENTUS L.) O‘SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Do‘stova Mehrigul
Buxoro viloyati G‘ijduvon tumani
60-maktab biologiya fani o‘qituvchisi
E-mail: dmekhrigul@mail.ru

Annotatsiya. Hozirgi davrda aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari va dorivor vositalar bilan ta’minlash muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu tezisda bamiya (Abelmoschus esculentus L.) o‘simligining kelib chiqishi, biologik xususiyatlari, kimyoviy tarkibi hamda dorivorlik ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: bamiya, dorivor o‘simlik, vitaminlar, mineral moddalar, xalq tabobati.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy islohotlarning barchasi xalqimizning shon-shuhrati, mavqei, turmush tarzi, salomatligini yanada yaxshilashga qaratilgan. Ayniqsa, insonlarni salomatligi hamda ertangi kun davomchilari bo’lgan yosh avlodning turmush tarziga katta e’tibor qaratilmoqda. Dorivor o‘simliklar inson salomatligini mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi. Hozirgi paytda O’zbekistonda 112 turdagi dorivor osimliklar rasmiy tibbiyotga foydalanishga ruxsat berilgan, ularni 80% tabiiy holda o’suvchi o‘simliklar tashkil qiladi. Rasmiy dorivor preparatlarning 40% dan ortiqi o‘simliklarga to‘g‘ri keladi. Yurak-qon tomiri kasalliklarida qo‘llaniladigan preparatlarning asosiy qismi o‘simliklardan olinadi. Dorivor o‘simliklar xalq tabobatida qadimdan turli kasalliklarni davolashda keng miqyosda qo‘llanib kelingan shifobaxsh vositadir.

Bugungi kunda farmatsevtika sanoatida qo‘llanilayotgan dori vositalarining katta qismi o‘simlik xomashyosidan olinadi. Shu sababli dorivor o‘simliklarni o‘rganish, ularni madaniylashtirish va yetishtirish dolzarb masalalardan biridir. Bamiya ham shunday istiqbolli dorivor va sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi.

Bamiyaning biologik va dorivorlik xususiyatlari.

Bamiya gulxayridoshlar oilasiga mansub bo‘lib, issiqsevar o‘simlik hisoblanadi. U tropik va subtropik hududlarda keng tarqalgan. O‘simlikning vatani tropik Afrika bo‘lib, Hindistonda keng yetishtiriladi.O‘simlikning mevasi, bargi, urug‘i va poyasi oziq-ovqat hamda tibbiyotda keng qo‘llaniladi..

Bamiya sabzavotlar orasida serqiraligi bilan ham ajralib turadi. Bamiyadan faqat oziq ovqat, dori-darmon yoki chorva hayvonlari uchun to‘yimli ozuqa olish maqsadida emas balki, gullaridan asalarilar uchun nektar manbai sifatida ham foydalansa bo‘ladi. Oziq-ovqat sanoati, dorivorlik va sanoat soxasida keng foydalanilishi tufayli keng miqyosda ekib o'stiriladi. Bamiyaning bargi, guli, mevasi va urug‘lari oziq-ovqatda va tibbiyotda ishlatiladi. Bamiyaning barcha qismlari yangi barglari, kurtaklari, gullari, poyalari va urug'lari turli maqsadlarda ishlatilishi mumkin va shuning uchun u foydalanish nuqtai nazaridan ko‘p maqsadli ekin hisoblanadi . Bamiya mevalari tarkibida shilimshiq moddalar ko‘p bo‘lib, ular oshqozon-ichak kasalliklarini davolashda, ichak faoliyatini yaxshilashda va qondagi qand miqdorini pasaytirishda muhim ahamiyatga ega. Bamiya poyasidan tola olish maqsadida ham ekib yetishtiriladi. Tolaga boyligi sababli ichak tranzitini rag’batlantiradi va diabetga qarshi ,yomon xolestreronli kamaytirishga va tanani tozalashga yordam beradi . Tolalar ichagimizdagi bakteriyalarni oziqlantiradi , bu esa viruslar va infeksiyalarga qarshi immunetetni shakillantiradi.

Bamiya mevalari inson uchun juda foydali sabzavot bo‘lib, mevasi tarkibida ko‘plab foydali, shifobaxsh vitamin va minerallar mavjud. Uni mevasini o‘zini doimiy ravishda iste’mol qilinishi natijasida:

-Mevasi tarkibida shilimshiq moddalar ko‘p bo‘lganligi sababli oshqozon ichak kassaliklarini davolaydi

-Ortiqcha toksin va shlaklardan tozalaydi;

-Yurak qon tomirlarini mustahkamlaydi. Gipertoniyaga qarshilikni kuchaytiradi. Qon aylanish tizimini normallashtiradi;

-Nerv faoliyatini yaxshilaydi, undagi magniy elementi asab tizimini mustahkamlaydi;

-Qondagi diabet kasalligini pasaytiradi;

-Mevasi va urug‘lari erkaklarda bepushtlikni davolovchi vosita sifatida ishlatiladi;

-Bamiya mevalari genito-siydik tizimining buzilishlariga, spermatoreya va surunkali dizenteriyaga qarshi juda foydali, shifobaxsh, shuningdek, yaralarni davolash va gemorroydan xalos bo‘lishda ham foydalidir.

Bamiya o’simligi mineral moddalarga boy bo’lib uning tarkibida K, Na, Mg,Fe, Zn, Mn va boshqa mineral moddalar mavjud . Bamiya urug’idagi oqsil va yog’ qo’shimcha yog’ va oqsil o’rnini bosishi mumkin. Bamiya yetilmagan ko’saksimon mevasi sabzavot ko’kat tarzda suyuq ovqat va salatlarga ishlatiladi . Ming yillar davomida o’z vatanlarida bamiya yosh mevalari balki barglari ham oziq- ovqat sifatida ishlatiladi. Poyasidan arqon va sumkalar tayyorlash uchun kuchli tola olinadi.Mevasini xomligicha yeyish , salatlarga qo’shish, pishirish, qovurish,

mumkin. Shu bilan birga mevalarini quritilgan, muzlatilgan va konserva qilish mumkin. Pishmagan mevalari sho'rvalarda ziravor sifatida ishlatiladi. Qovurilgan urug'idan suniiy kofe tayyorlanadi. Ba'zida urug'laridan ta'mni yumshatuvchi va xushbo'y hid berish uchun urug' kukuni ataylab qahvaga qo'shiladi. Yetuk urug'lar tarkibida 25 % gacha yog' mavjud bo'lib , u oziq ovqat sifatida yoki boshqa sohalarda uchun ishlatiladi .

Xalq tabobatida bamiya yurak-qon tomir kasalliklari, diabet, oshqozon-ichak xastaliklarini davolashda qo'llaniladi. Uning tarkibidagi kaliy, magniy, temir kabi mineral moddalar organizm faoliyatini yaxshilaydi. Shuningdek, bamiyaning urug'lari va mevalari immunitetni mustahkamlashga, organizmdan toksinlarni chiqarishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 noyabrdagi «Farmasevtika tarmog'ini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirish chora_tadbirlari to'g'risida»gi PF-5229-son farmoni
2. Abdel-Nabey AA, Abou–Tor ES. Chemical composition of okra seeds and some physico-chemical characteristics of extracted oil. Alexandria journal of food science and technology. 2014;11(1):11-9..
3. Adelakun OE, Oyelade OJ, Ade-Omowaye BI, Adeyemi IA, Van de Venter M, Koekemoer TC. Influence of pre treatment of yield chemical and antioxidant properties of Nigerian Okra seed (Abelmoschus esculentus). Food Chem Toxicol, 2009, 46, 657-661
4. Akinoso R, Adegoroye EO, Sanusi MS. EFFECTS OF ROASTING ON PHYSICOCHEMICAL PROPERTIES AND FATTY ACIDS COMPOSITION OF OKRA SEED OIL. Measurement: Food. 2023 Jan 2:100076.
5. Gemede HF, Haki GD, Beyene F, Woldegiorgis AZ and Rakshit SK. Proximate, mineral, and antinutrient compositions of indigenous Okra (Abelmoschus esculentus) pod accessions: Implications for mineral bioavailability. Food Science & Nutrition. 2015, 4(2): 223–33.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И УГОЛОВНОГО ПРАВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Турсунов Илхомжон Салимович,
ОВД Яшнабадского района города Ташкента,
Следственный отдел при УКД,
старший следователь, полковник

Аннотация. В статье представлен научный анализ данных и источников об уголовном законодательстве, действующем в нашей стране, и его практическом применении, а также о роли международно-правовых норм в этих процессах и методах их внедрения в правовую структуру нашей страны.

Ключевые слова: уголовное законодательство, нормативно-правовые нормы, международное право, гражданское, уголовно-процессуальное, уголовное право, международное право, реализация, международные стандарты, преступление.

Уголовный кодекс Республики Узбекистан, принятый в 1994 году, создал правовую основу для эффективной защиты личности от преступных посягательств, защиты прав и свобод граждан, интересов общества и государства, а также обеспечения правопорядка. Принятие Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах стало исторически значимым этапом реформирования судебно-правовой системы и определило важнейшие направления государственной политики в этой области. В соответствии с Указом Президента Республики Узбекистан от 14 мая 2018 года No III1-3723 "О мерах по коренному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства" в целях реализации поставленных целей была принята Концепция совершенствования уголовного и уголовно-процессуального законодательства и уголовно-процессуального законодательства Республики Узбекистан [1]. Одной из основных задач данной Концепции является унификация уголовного законодательства, его инвентаризация с целью приведения в соответствие с передовыми международными стандартами и зарубежной практикой. С этой точки зрения, как никогда актуально изучение вопросов дальнейшего применения норм международного права в уголовном законодательстве Республики Узбекистан.

Проблемы непосредственного применения норм международного права, взаимосвязи международного и национального уголовного права решаются неясно. В связи с этим вопросы внедрения международных стандартов в уголовное право Республики Узбекистан являются актуальными как с научно-теоретической, так и с практической точки зрения. Для выражения сложного процесса реализации международных норм и их имплементации в национальное законодательство в современной юридической литературе и науке используется термин "имплементация" (от английского "implementation" - реализация, осуществление). В узком смысле под реализацией понимается один из методов правовой техники, применяемый при создании или изменении, направлении, введении, принятии или изменении новой нормы национального законодательства в соответствии с нормами международного договора или соглашения [5]. Согласно другим взглядам, термин "реализация" также означает широкий спектр правоприменительных мер, обеспечивающих непосредственную (материальную) реализацию норм международного уголовного права.

При изменении норм международного уголовного права они либо в меньшей степени учитываются в национальном законодательстве, либо, наоборот, в норму международного уголовного права добавляются дополнительные признаки. Ситуация возможна, когда по некоторым признакам норма международного уголовного права сужается, а по другим - расширяется. Это также означает, что в международно-правовых актах, как правило, определяется только состав преступления без указания мер наказания за его совершение.

Государства, являющиеся участниками международной конвенции или международного договора, обязуются, в соответствии с установленной формой заключения, принимать все необходимые внутренние меры законодательного или иного характера, как правило, за определенные деяния, к уголовной ответственности, к применению мер наказания, соразмерных их тяжести, к созданию условий для экстрадиции лиц, их совершивших, и к аналогичным, более неопределенным обязательствам, толкование содержания которых зависит от самих государств. Во многих случаях, когда в международно-правовом акте ставится конкретная задача, ставится условие о том, что она будет реализована в форме, соответствующей основным принципам его правовой системы [10]. Необходимым условием реализации норм международного уголовного права является осуществление процедуры ратификации. В случае отказа в ратификации международного договора или соглашения его нормы не являются обязательными для данного государства,

в том числе и для Республики Узбекистан. Анализируя положения национального законодательства развитых стран, можно выделить следующие конституционные формулы: 1. Конституция может быть признана частью права страны, приравнивая международные договоры к их юридической силе. Например, статья 55 Конституции Французской Республики гласит: "Соответственно ратифицированные или утвержденные договоры, соглашения имеют силу, превышающую силу национальных законов с момента их опубликования, при условии, что такой договор применяется другим государством"; статья 98 Конституции Японии гласит: "Договоры, заключенные Японией, и установленные правила международного права должны быть добросовестно соблюдены." Международное право объявляется частью права страны, но в то же время его применение требует вынесения внутреннего акта. В качестве примера этой модели можно привести Республику Узбекистан, поскольку, несмотря на норму о верховенстве международного права, в преамбуле Конституции, в статье 5 Закона Республики Узбекистан "О нормативно-правовых актах" [11], международные договоры прямо не указаны как самостоятельный источник национальной правовой системы. Следует отметить, что норма международного уголовного права не имеет прямого действия, поэтому нормы международного уголовного права, касающиеся преступлений, должны быть реализованы во внутреннем уголовном праве.

Следует отметить, что норма международного уголовного права не имеет прямого действия, поэтому нормы международного уголовного права, касающиеся преступлений, должны быть реализованы во внутреннем уголовном праве. Таким образом, международное уголовное право устанавливает уголовную ответственность за ряд наиболее тяжких преступлений против мира и безопасности человечества, независимо от того, являются ли эти деяния преступлениями, предусмотренными внутренним законодательством государства, в котором они совершены, или не признаются таковыми.

В заключение следует отметить, что процесс унификации национального уголовного законодательства и приведения его в соответствие с передовыми международными стандартами является важнейшей задачей совершенствования национального законодательства, однако предлагаемые романы помогут:

1. Унификация норм уголовного законодательства и приведение их в соответствие с международными нормами;

2. Исключение норм, позволяющих по-разному трактовать принципы уголовного права;

3. Устранение правовых пробелов, противоречий и "пустот" в Уголовном кодексе;

4. Создание эффективных правовых механизмов предупреждения и пресечения преступлений.

Литература

1. О мерах по коренному совершенствованию системы уголовного и уголовно-процессуального законодательства [Постановление Президента Республики Узбекистан от 14.05.2018 г. No ПП-3723].
2. Конституция Республики Узбекистан. Собрание законодательства Республики Узбекистан. 2007. - No 15. 152; - 2008. - No 52. 510; - 2011.- No 16. 159; - 2014. - No 16. 176; - 2017. - No 14. 213, No 22. 406, No 35, ст. 914.
3. О внесении изменений и дополнений в некоторые законодательные акты Республики Узбекистан [Закон Республики Узбекистан от 18.04.2018 г. No ЗРУ-476]
4. Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан. https://www.uzavtoyul.uz/ru/page/ozbekiston-respublikasi-qonun-hujjatlarima'lumotlari-milliy-bazasi.html
5. Кибальник А.ГОДА Современное международное уголовное право: понятия, задачи, принципы. - СПб., 2003. - С.188.

YOSHLARNING MA'NAVIY-MAFKURAVIY XURUJLARNING OB'EKTIGA AYLANIB QOLISHI SABAB VA OQIBATLARI

Xonimov Sharofuddin Baxodirovich
O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlar agentligu markaziy apparati bo'limi boshlig'i falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)
sharofiddin_2017@mail.ru

Annotatsiya. Yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlar, internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob-ahloqni emiruvchi manfur illatlardan yoshlarimizni ximoyalash ogoh bo'lish masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Internet, ma’naviy tadidlar, ekstremizm, axloqsizlik, madaniyat, odob-axloq, milliy va diniy, qadriyatlarga hurmat, globallashuv.

Bugungi kunda mafkuraviy tahdidlar aholining ma'lum bir qatlamlari, ayniqsa, yoshlarning qarashlarini o'zlariga ma'qul bo'lgan yo'nalishda o'zgartirish, ekstremizm, axloqsizlik kabi buzg'unchi g'oyalarni singdirishga urinishdek ko'rinishlarda sodir bo'lmoqda.Hozirgi tahlikali zamonda internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli ma'lumotlar, turli buzg'unchi g'oyalar, odob-ahloqni emiruvchi manfur illatlar har bir ongli kishini tashvishga solishi aniq.Keyingi paytlarda internet bilan bog'lik buzg'unchiliklar, global tarmoqdan qabih maqsadda foydalanayotganlar ko'payib bormoqda. Oqibatda, zalolatga boshlovchi elektron nashrlar va videolavhalar keng yoyilmoqda. G'alamis kimsalar yoshlarni o'z tuzoqlariga ilintirishda internetdan ustalik bilan foydalanmoqda. O'zlarini «yaqin do'st» yoki «hidoyatga chorlovchi» sifatida tanitib, yoshlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itmokda. Aslida, ularning din va shariat haqida umuman ilmlari yuq, faqatgina to'da boshidan yodlab olganlarini takrorlashdan nariga o'tmaydilar. Boshqa tomondan qaraganda, ular bu johilligi bilan boshqalarni ham jar yoqasiga tortayotgani va kimningdir nog'orasiga uynayotganini bilmaydilar. Bundaylar avval dinu diyonat, ibodat, jannat haqida turli jozibali so'zlarni gapirib, g'o'r yoshlarni yo'ldan urib, oxir-oqibatda, razolat qurboniga aylantirmoqda. Internetdan olingan narsa to'g'ri, ishonchli va zararsiz ekanini bilish kerak. Yaxshi-yomonning farqiga bormagan yoshlar internet orqali tarqatilgan har qanday ma'lumot-xabarlarni haqiqat deb qabul qilayotgani jiddiy xavotirga soladi.

Malumki, turli ko’rinish va shakllardagi ma’naviy tadidlar, asosan, yoshlarga qaratilmoqda. Albatta, buning faol sababi yoshlarning jamiyatdagi qatlam ekani, turli goyalar, tasirlarga beriluvchanligi bilan isohlanadi. Aini payda, yoshlar ongini zabt etish har qanday mafkuraviy kuch uchun strategik korxona ega. Zero, mamlakatning istiqboli aynan yoshlar ehtiyoji, bolalar va ulardan kelib chiqadigan maksadlar bilan. Buning uchun ham Birinchi Presidentimiz I. A. Karimov: “Bunday tajovuzkorona harakatlar bizlar uchun mutlaqo begona mafkura va dunoqarashni avvalo begubor yoshlarimizning kalbi va ongiga singdirishga qaratilgani bilan ainiqsa xavotirlidir” [1,14], - deb takidlaydi.

Zero, har qanday jamiyatda yoshlar muhim o'rin tutadi. Buning uchun har bir jamiyatning rivojlanib borishi tez jarayon bo’lib, uni davom ettirish u uchun yangi avlodga zaruriyatni paydo qiladi. Yangi avlod esa, mavjud ishlab chiqaruvchi kuchning tarkibii qismi va muayyan ishlab chikarish munosabatlarini davom ettira olish layoqatli bo’lishi lozim. Boshqacha qilib aitganda, ular moddiy va manaviy boyliklarni yarata olishi kerak. Yoshlarning jamiyatda tutgan tarixiy o'rning manosi ham aynan, mana kelib chiqadi [2,8].

Jamiyatda yoshlar ma'naviy dunyosiga xos xususiyiyatlardan yana biri, ayrim yoshlar avvalgi avlodning, kattalarning madaniy qadriyatlarini, ideallarini inkor etadilar. Buning natijasida, umuminsoniy va milliy-ma'naviy qadriyatlarga zid keladigan yoshlarning o'ziga xos ideallari, musiqasi, kiinish xizmatlari, tili va sanati paydo bo'lishi mumkin.

Yoshlarning norasmiy yushmalari va kasallik stihiali, boshqarib turilmaydigan jarayon sifatida vujudga keladi. "Bu yuuridik qonun yo'li bilan tekshirib yoki qilib bulmaydigan jarayondir. Agar ularga nisbatan qat'iy yozish qo'llanilsa, jamiyat uchun hafli bo'lgan ekstremist, terrorist, qo'poruvchilik yushmalari to'lash mumkin. [3,128] Yoshlarimiz ongini egallashga qaratilgan har qanday xatti-harakatlarga, milliy manfaatlarimizga raxna solishga, ma'naviyatimizga tajovuz qilishga, umrimiz mazmuni bo'lgan tarixiy xotiramizni buzishga urinayotgan g'arazli kuchlarga karshi doimo ogoh turishimiz darkor. Ana shundagina bizni hech kim, hech narsa o'z tanlagan yo'limizdan ortga qaytara olmaydi va biz ko'zlagan ulug'vor maksadlarimizga albatta etamiz.

Yurtimizga olomoncha madaniyat asosan internet tarmog'i orqali kirib kelayapti. Bu hol odob-axloq, milliy va diniy qadriyatlarga hurmat pasayishi kabi ko'plab noxushliklarni keltirib chiqaryapti. Yoshlarning hayosizlarcha kiyinishi, tanalariga rasm chizdirishi, quloq va burunlarini teshib, «zirak» taqib olishlari, qiz bolalarning o'g'il bolalarga o'xshab kiyinishi kabi «moda» unsurlari aynan internet orqali yoyilayotgani aniq. Internetdagi g'oyaviy tuzoqlar go'yo madaniyatga o'xshashi va yoshlarga moydek yoqishi bilan ham xatarlidir. Insoniy axloqda ters olomoncha madaniyat ayrim yoshlar ongiga chang solib, ma'naviyat kushandasiga aylanmokda. Achinarlisi, mazkur «madaniyat» ta'siriga berilib qolganini yoki uning qurboniga aylanayotganini ko'pincha yoshlar o'zlari sezmaydi. Global axborot tizimidagi xabarlarni «fil'trsiz» qabul qilish oqibatida yoshlar ongi zaharlanmoqda. Masalan, biror kerakli ma'lumotni olish maqsadida saytga kirgan yoshlarning «falonchi mashhur shaxs halokatga uchradi» kabi shov-shuvli e'longa ko'zi tushadi va beixtiyor uni ochadi. U erda esa yana bir sayt ochiladi va unda aldamchi xabarlarning davomini o'qiydi. Shu tariqa g'o'r yoshlar g'alamislarning tuzog'iga ilinadi.Bunday jirkanch «madaniyat» ta'siriga berilgan o'smir loqayd, hayotga engil-elpi qaraydigan, yurt ravnaqi va xalq tinchligiga befarq kimsa bo'lib ulg'ayadi. Shuningdek, olomoncha madaniyat tuzog'iga ilingan bolalar inson istagan ishini qilaverishi mumkin, deb biladi, ya'ni o'taketgan manqurtga aylanib qoladi [4].

Ijtimoiy tarmoqlarning oila va jamiyat barqarorligiga solayotgan eng katta taxdidlaridan yana biri – ulardagi muloqotlar sababli ko'plab tinch-totuv oilalar barbod bulib ketayotganidir.Farzandining istiqbolini, yorqin kelajagini istaydigan har bir ota-ona tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bermog'i zarur. Bola tarbiyani turli

komp'yuter uyinlari, internet va ijtimoiy tarmoqlardan emas, eng avvalo ota-onalaridan, bobo-momolaridan, ezgulikka, poklikka va dinu diyonatga chaqiruvchi yaxshi kitoblardan olsin.Insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma'naviyat, odob axloq tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir O'sib kelayotgan yosh avlodni diniy – milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni xar-xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

Ayni payda, yoshlarning jamiyatda tutgan o'rni eng avvalo, jamiyat oldiga qo'ygan hosil miqyosi va ko’lamidan kelib chiqadi. Bundai hol Ozbekiston yoshlariga ham hos. Shunindek, yoshlar orasida olib boriadigan goyavy-tarbiyaviy ishlarda, ularda vayronkor goyaviy tasirlarga qarshi goyaviy immuniteti holatida, ijtimoiy-demokratik huquqshunoslar, psixologik xususiyiyatlarini olish muxim.Shu o'rinda mafkuraviy profilaktika amalga oshirish zarur bulgan, ayrim holatlar bilan bog'liq xodisalarga etibor berish joiz.

Mafkuravy immunitet yuksaltirish yo'lidagi muammolardan biri, yoshlarga doimo ta'sir kursatib turuvchi mavjud ijtimoiy muhitdagi ayrim holatlar bilan bog'liqdir.

Zero, yuqorida takidlanganidek, o'sib kelib yangi avlod ruhiyatiga beqarorlik hos bo'lib, u yoki bu jujy harakterdagi nohush voqea, hodisa ham ulardagi ma'naviy-ruhiy holatning olishga olib kelishi mumkin. Yaxshi niyat bilan yashash odati, sabr-toqatlilik kuchasi tufayli bunday hollarning oldiga va ushbu qobiliyatlar mafkurviy immunitetni muhim elementi sifatida o'zini qiladi.

Ayni payda, el-yurtimizda yuksak manaviyat fazilatlari, demokrat kadrlar mustakamlanmokda, eng muximi, aholimizning amalga oshirilayotgan keng ko’lamli yangilanishlarga dahldorlik hissi, foydaning kelajagi oldida masuliyati ortib bormokda. Zero, "Vatan shuki, avvalo, uning farzandlariga, huquq ma'naviy va jismoniy kamotiga bevosita bog'liq. Bu o’z harakati har bir yurtdoshimizni zimmasigi yuksak fukarolik mas'uliyatini his qilish, o’z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan muvofiqlashtirib yashashga davat etadi" [1,73].

Dahldorlik va masullik, bular yuqorida sanab o'tilgan mafkuraviy immunitet tizimi o'rnatilgan o'zaro ta'sir va aloqalarning mantiqiy hosilasidir. Chunki, dahldorlik va masullik xiissi vatanparvarlikning mukhim belgilaridir. Ular insonning o'z Vataniga muhabbatini, uni asrab-avaylashga bulgan ishtiyoqini anglatadi.

Vatandoshlari oldida mas'uliyati yuksak bulgan insongina hozirgi kunda o'zlarining g'arazli jirkanch niyatlarini va amalga oshiradigan yoshlarni amalga oshirish maqsadida yurtimizga har hil yo'llar bilan kirib, bizning ongi va qalbimizni

zararli va buzgunchi g'oyalar bilan egallashga harakat qilayotgan kuchlarga qarshi kurasha oladi.

Yuqorida sharhlangan hodissalarning o'zaro dialektik alokadorligi mafkuraviy immunitet. Buning uchun, birinchidan, tizimni tashkil qilish mahsulot barcha mahsulotning mavjud bulishi, unga tegishli, fayl uzaro samarali tasir uchun zarur shart-sharoit yaratilishi mukhim qopqoq ega. Boška aitganda, mafkuraviy immunity lens characterga ega manaviy-ruhiy hodisa bo'lsa-da, uning to'laqonli voqelikka erishishda mavzu katta o'rin tutadi.Shunindek, soglom, mustaqil dunyoqarash, yuksak tafakkur, aniq va aniq maksadlarning karor topishiga yordam - yoshlarning viron objectiga taqlid qilish muhimligini aniqlash hamda barkaror mafkuraviy immunitet tizimini rivojlantirish shartidir. Insonlar qalbi va ongi uchun katta kurashlar kechayotgan globallashuv davrida yuksak ma'naviyat, odob axloq tarbiyasiga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifadir. O’sib kelayotgan yosh avlodni diniy – milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, ular qalbida o'z xalqi, Vataniga mehr-sadoqat tuyg'usini kuchaytirish, ularni xar-xil buzg'unchi kuchlarning axborot xurujlaridan ogoh etish, munosib himoya qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar ro’yxati

1. Davlat va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan Markaziy Osiyo yoshlarining ijtimoiy portreti. – Toshkent: 2002
2. Mixaylova L.I. Madaniyat sotsiologiyasi. - M.: FAIR PRESS, 1999
3. https://muslim.uz/uz/e/post/12780-yoshlarni-axborot-xurujlari-va-mafkuraviy-tahdidlardan-asrash?

САВДО ХИЗМАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АҲОЛИ БАНДЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ЎРНИ

Абдухолиқова Фарангиз Абдухолиқ қизи
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти.
“Рақамли иқтисодиёт” кафедраси ассистенти.
farangizabduxoliqova57@gmail.com.

Аннотация. Ушбу мақолада савдо хизматларини такомиллаштиришнинг аҳоли бандлигини таъминлашдаги ўрнига алоҳида эътибор қаратилган. Иқтисодиёт тармоқлари ривожланишининг ҳозирги босқичида савдо хизматларини такомиллаштириш асосий вазифаларидан бири бўлиш билан бирга аҳолини бандлигини таъминлашда ҳам муҳим аҳамият касб этиши асосланган.

Калит сўзлар: савдо, савдо хизматлари, даромад, маҳсулот, товар, аҳоли бандлиги, қиймат.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль совершенствования торговых услуг в обеспечении занятости населения. Утверждается, что на современном этапе развития экономических секторов совершенствование торговых услуг является одной из главных задач, а также играет важную роль в обеспечении занятости населения.

Ключевые слова: торговля, торговые услуги, доход, продукт, товар, занятость населения, стоимость.

Abstract. This article examines the role of improving trade services in ensuring employment. It is argued that at the current stage of economic development, improving trade services is a key task and plays a significant role in ensuring employment.

Key words: trade, trade services, income, product, goods, employment, cost.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномасида мамлакатимиз замонавий юксалишга эришиш мақсадида инновацион ривожланиш босқичига кирганлигини эътироф этилган. “Инновация – бу келажак дегани. Биз буюк келажагимизни барпо этишни... айнан инновацион ғоялар асосида бошлашимиз керак. Инновацион ривожланиш ва рақамли иқтисодиёт йўлига ўтишимиз бежиз эмас. Чунки замон шиддат билан ривожланиб бораётган ҳозирги даврда ким ютади? Янги фикр, янги ғояга, инновацияга таянган давлат ютади” [10].

Ўзбекистонда амалга оширилаётган ислоҳотлар миллий иқтисодиёт самарадорлигини оширишга қаратилмоқда. Унинг таркибий қисми бўлиб ҳисобланган савдо хизматлари соҳасини ривожлантириш – аҳолига кўрсатилаётган савдо хизматлари сифатини ошириш ҳамда турли хилдаги талабларини қондириш муҳим йўналишлардан бири ҳисобланади.

Бозор ислоҳатларининг чуқурлашуви, иқтисодиётнинг эркинлашиши ва модернизациялаш, рақобатнинг кучайиши ва бозор муносабатлари шароитида ҳар бир хўжалик юритувчи субъект, хусусан, савдо корхоналарининг ҳам фаолият самарадорлигини ошириш заруратини туғдирмоқда. Чунки, самарадорлик таъминланмаган хизматлар соҳасида иқтисодий ўсишга эришилмайди ва бундай вазиятда уларнинг инқирозга юз тутиши муқаррар бўлиб қолади.

Иқтисодий ўзгаришларнинг ҳозирги босқичидан асосий мақсад савдо корхоналарининг самарали фаолият кўрсатиши учун қулай шароитларни яратиш ҳисобланади. Белгиланган мақсадларнинг мураккаблиги мустақил

[10] Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – Т.: “Шарқ” нашриёти, 2020 йил 25 январь, №19 (7521), 2-4 бетлар

хўжалик юритувчи субъект сифатида тармоқнинг бозор механизмида асосий бўғинга айланиб бораётган савдо хизматлари деган тушунчанинг моҳияти ва мазмунини ҳар томонилама чуқур ўрганиш заруратини келтириб чиқаради.

Савдо хизматлари – истеъмол товарлари бозорининг асосий сегменти ҳисобланади. У жисмоний ва юридик шахсларга хизмат кўрсатади. Унинг воситасида аҳоли ҳамда корхона, ташкилот ва муассасалар у ёки бу товарларга бўлган талаб-эҳтиёжларини қондиради. Бу ерда сотувчилар билан истеъмолчилар ўртасида олди-сотди муносабатлари юз беради: пул эгаси товар олса, товар эгаси пул олади.

Савдо тармоғи бозор механизмида асосий бўғинлардан бири ҳисобланади. Савдо тармоғидаги товарларнинг ички манбаи – мамлакатдаги турли мулкка оид корхоналар ишлаб чиқаришган товарлардир. Ташқи манбаи – хориждан импорт қилинаётган товарлар ҳисобланади.

Истеъмол товарлари бозорининг ҳолати (ташкил этилиши ва унинг тўйиниш даражаси) мамлакат социал-иқтисодий ҳаётига бевосита таъсир кўрсатади.

Савдо хизмати инсонлар ҳаётини яхшилашга, аҳолининг бандлигини таъминлашга, даромадларини ошириш орқали уларнинг фаровонлигини юксалтиришга қаратилган.

Аҳолининг турмуш шароити сифатини оширишда иқтисодиётнинг муҳим тармоғи ҳисобланмиш савдонинг аҳамияти беқиёсдир. Унинг тараққиёти истеъмолчиларнинг ҳам талаб ва эҳтиёжларига бевосита таъсир кўрсатади. Бундай шароит савдо корхоналарининг хизматлари сифатини тобора ошириб боришда муҳим аҳамият касб этади. Савдо хизматлари сифати, унинг моддий техника базасининг ҳолати ва инфратузилмаси таркибига боғлиқ. Республикада савдо моддий техника базасининг ҳолати ва инфратузилмасини янада такомиллаштириш учун етарлича салоҳият мавжуд.

Савдо жараёнида маҳсулотлар товарга айланади. Чунки товар сотиш учун ишлаб чиқариладиган маҳсулотлардир.

Маҳсулот бирон – бир эҳтиёжни қондирмаса, яъни уни истеъмол қиймати зарурият топмаса, унинг қиймати қопланмайди ва уни ишлаб чиқарувчи инқирозга учраши эҳтимолдан узоқ бўлмайди.

Савдони шаклланиши инсоният тараққиёти тарихи билан чамбарчас боғлиқ. Ибтидоий жамиятда алоҳида қабилалар эҳтиёжидан келиб чиқиб маҳсулотлари билан айрибошлашган.

Бир вақтлар туз пул ролини ўйнаган, қайси қабилани тузи бўлса, ўшалар билан барча қолганлар маҳсулотини айрибошлашга қизиққан.

Савдони ривожланишида тилни билиш катта аҳамият тутганлиги сабабли қадимда бир – бирини тилини билмаганлар учун, сўзлашмай маҳсулот алмаштириш вужудга келган. Бошқа юрт ёки элдан келганлар маҳсулотини денгиз бўйига қўйиб узоқда кутган, ерликлар кейин келиб маҳсулот ёнига олтин қўйиб кетиб, қараб туришган, агар маъқул бўлса, маҳсулотни қолдириб, олтинни олиб кетган ёки яна юқоридаги жараёнида биз ташқи савдони бирламчи бўлиб, вужудга келишини кўрамиз.

Бунга ўрта асрлардаги арабларнинг карвон савдоси типик мисол бўлиши мумкин (Буюк ипак йўли, биржалар). Биржаларни олсак, тарихдан пул, товар, фонд биржалари вужудга келган.

Биржа деганда доимий ишлаб турувчи (ҳар куни), ўхшаш турлар бўлган товарлар бозорига тушунилади. Товарлар бирлиги келтирилмайди, уларни эталони намойиш қилинади. Масалан XVII аср Амстердам акция биржаси, Ливерпул пахта биржаси, Липцег китоб биржаси, Прага шакар биржаси, Прага шакар биржаси Нью – Йорк керосин, пахта, кўмир, темир биржалари.

Шундай қилиб, савдо тарихдан ишлаб чиқарувчилар билан истеъмолчилар алоқаларини қондиришга катта ҳисса қўшган. Улар йўл алоқаларини такомиллаштириш ва пул – кредит муносабатларини ривожлантиришга ҳам ўз ҳиссасини қўшган.

Юқорида келтирилган мисоллардан келиб чиқсак, ички ва ташқи савдо ривожланиши жараёнида бирламчи ўрин улгуржи савдога таалуқли. Иккиламчи бўлиб чакана савдо бошланган.

Савдо – биринчидан, товарларни сотиш билан боғлиқ бўлган хўжалик алоқалар ва товар айрибошлаш жараёнида вужудга келадиган иқтисодий муносабатларни англатади;

- иккинчидан, иқтисодиёт тармоғи сифатида ижтимоий меҳнат тақсимоти натижасида мустақиллашган савдо корхоналари мажмуасидир.

Савдонинг моҳияти (таърифи)дан келиб чиқиб, унинг бажарадиган функцияларини аниқлаш зарур.

Савдо – ўз моҳиятидан келиб чиқиб қуйидаги ижтимоий – иқтисодий функцияларни бажаради:

- Биринчидан, товар айрибошлаш шакли сифатида товарлар қийматини айрибошлайди;


- Иккинчидан, иқтисодиёт тармоғи сифатида товарларни ишлаб чиқишдан истеъмолчиларга етказиш.

Биринчи функция натижасида товарларни қиймати сотилади, унга сарф қилинган ижтимоий меҳнат қопланади ва қўшимча қиймат (фойда) вужудга келади.

Иккинчи функция натижасида товарларни истеъмол қиймати истеъмолчиларга етказилади, истеъмолчилар томонидан тан олинади, сотилади ва мулк шакли ўзгаради.

Товар айрибошлаш жараёни бозорда амалга оширилади. Бозор эса ўз вақтида бозор иқтисодиётининг асосий субъектларидан бири ҳисобланади. Бозорда икки хил категориядаги субъект учрашади, бири сотиш ниятида бозорга таклиф билан чиқади, иккинчиси сотиб олиш ниятида бозорга талаб билан чиқади.

Савдо мустақил ижтимоий – иқтисодий функция бажариб, бошқа иқтисодий фаолият билан шуғулланувчи хўжалик тармоқлари қатори унинг фаолиятида ҳам мулкдор (мулк эгаси), ёлланган хизматчилар, меҳнат, тадбиркорлик, фойда каби тушунчаларда ўз аксини топган.



1 - расм. Савдо хизматларини такомиллаштиришни аҳоли бандлиини таъминлаш йўллари

Савдо ишлаб чиқаришнинг биридан иккинчисига, иккинчисидан учинчисига ва ишлаб чиқарувчи қўлидан истеъмолчи қўлига маҳсулотларни етказиш вазифасини бажарган. Савдо жараёнида маҳсулотлар товарга айланади. Чунки товар сотиш учун ишлаб чиқариладиган маҳсулотлардир. Маҳсулот бирон – бир эҳтиёжни қондирмаса, яъни уни истеъмол қиймати зарурият топмаса, унинг қиймати қопланмайди ва уни ишлаб чиқарувчи инқирозга учраши эҳтимолдан ҳоли бўлмайди.

Савдо корхонасида иқтисодий салоҳиятни таҳлил қилиш ва унинг ҳолати, самарадорлиги ҳамда улар билан таъминланганлик даражаси тўғрисида аниқ хулосаларга келиш учун уларнинг ҳар бир гуруҳини алоҳида ўрганишни ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир. Шу жиҳатдан, энг аввало, савдо корхонасининг иқтисодий салоҳияти таҳлилини, унинг ҳолатини ифодаловчи кўрсаткичлардан бошлаш лозим. Чунки, бу кўрсаткичлар орқали таҳлил

қилинаётган савдо корхонасида иқтисодий салоҳият билан боғлиқ масалалар бўйича аҳвол қандай эканлиги тўғрисида хулоса қилинади.

Адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси // Халқ сўзи. – Т.: “Шарқ” нашриёти, 2020 йил 25 январь, №19 (7521), 2-4 бетлар
2. Тўхлиев Н. Бозорга ўтишнинг машаққатли йўли. Тошкент: «Ўзбекистон»,1999. 13 б.
3. Солиев А., Усмонов А. Маркетинг., Тошкент, «Ўқитувчи». 1997.9 б.
4. Савдо иқтисодиёти муаммолари. Ўқув қўлланма. // Ғ.Ҳ.Қудратов, Б.А.Абдукаримов, М.Қ.Пардаев, А.Бектемиров, Ш.А.Султонов, Ф.Б.Абдукаримов, У.Н.Нормуродов, З.С.Артиков, О.М.Пардаева, Ш.Ш.Негматова; // И.ф.д., профессор М.Қ.Пардаевнинг умумий таҳрири остида. – Т.: “ИҚТИСОД-МОЛИЯ” нашриёти, 2016. – 430 бет.

ЛОГИСТИКА ХИЗМАТЛАРИ РИВОЖИНИНГ МАМЛАКАТ ИҚТИСОДИЁТИГА ТАЪСИРИ

Кувандиков Шухрат Облокулович
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
“Реал иқтисодиёт” кафедраси профессори, DSc.
kuvandikovsuhrat78@gmail.com

Абдухаликова Комила Абдухаликовна
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
“Маркетинг” кафедраси ассистенти

Аннотация. Ушбу мақолада логистика хизматларини ривожланиш босқичларининг иқтисодиёт ривожига таъсири ҳамда иқтисодий фаолият жараёнида вужудга келувчи оқимларнинг замонавий методологияси ва услубиётига алоҳида эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: логистика хизматлари, харажат, вақт, моддий ресурслар, хом-ашё материаллари, моддий ресурслар, истеъмолчилар.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется влиянию этапов развития логистических услуг на экономическое развитие, а также современной методологии и методологии потоков, возникающих в ходе хозяйственной деятельности.

Ключевые слова: логистические услуги, стоимость, время, материальные ресурсы, сырье, материальные ресурсы, потребители.

Abstract. This article pays special attention to the influence of the stages of development of logistics services on economic development, as well as modern methodology and methodology of flows arising in the course of economic activity.

Key words: logistics services, cost, time, material resources, raw materials, material resources, consumers.

Логистика тушунчаси ўзининг қадимий тарихига эга «Логистика» сўзи келиб чиқиши бўйича юнончадир. Қадимги Афинада махсус амал - «логист» ёки ижтимоий ўз-ўзини бошқариш амалдори бўлган (эрамизгача V асрда 30 га яқин). Логистлар ҳар йили қуруа ташлаш йўли билан белгиланганлар; уларнинг вазифасига ваколати тугаган бошқа амалдорларнинг ҳисоботларини текшириш ва бу ҳисоботларни фахрли фуқаролар кенгашига тасдиқлашга топшириш кирган, кенгашнинг қарори якуний бўлган. Қадимги Римда баъзи бир маъмурий ва диний вазифаларни бажарувчи амалдорлар логистлар деб аталганлар. Византия императори Лев VI (866-912 йиллар) даврида логистика армияни таъминлаш ва унинг кўчишини бошқариш санъати сифатида таърифланган. Немис тадқиқотчиси Г.Павеллек таъкидлашича Византия империясида логистиканинг белгиланиши «армияга маош тўлаш, уни керакли тартибда қуроллантириш ва тақсимлаш, унинг эҳтиёжлари ҳақида ўз вақтида ва тўлиқ даражада ғамхўрлик қилиш, яъни шахсий қуролли кучлар ҳаракатланиши ва тақсимланишига раҳбарлик қилишдан» иборат бўлган.

«Логистика» сўзи барча асосий Европа тилларида мавжуд, аммо улардан ҳар хил маъноларда фойдаланадилар.

Аста-секин логистика ва логистик бошқарув тушунчаси турли-туман мазмунлар билан тўлдирилган ишлаб чиқариш ва товар муомаласининг ҳар хил соҳаларига кириб боради. Бунга ҳисоблашнинг энг янги усуллари, замонавий ҳисоблаш, ахборот техника ва технологиясининг кенг қўлланиши ҳамда ишлаб чиқариш инфратузилмаси элементлари ва хўжалик юритиш интенсив усулларининг ўзаро ҳамкорлиги ривожланиши таъсир қилган.

XX аср охирида логистика фанига харид қилиш (таъминлаш), ишлаб чиқариш, сотиш (тақсимлаш), транспорт, ахборот логистикасини олувчи фанга айланган. Инсон фаолиятининг санаб ўтилган соҳалари етарлича ўрганилган ва тегишли адабиётларда баён қилинган. Логистик ёндашишнинг янгилиги эса санаб ўтилганлар ва фаолиятнинг бошқа соҳаларини исталган натижага оқимларни мувофиқ тўғри бошқариш йўли билан вақт ва ресурсларнинг энг кам харажатлари ёрдамида эришиш мақсадида интеграциялашдан иборатдир. Шундай қилиб, логистика аввалло, истеъмолчиларга, уларнинг сўровларини кўпроқ қаноатлантиришга ҳаракат қилган ҳолда ишлайди.

Моддий ресурслар, товарлар назорат қилиш ташқарисидан хомашё ва материаллар харид қилиниши, уларни ишлаб чиқаришдан ўтишидан бошлаб, то тайёр маҳсулотларни истеъмолчиларгача етказиб беришгача ҳаракатланишини мувофиқ, фойда олиш нуқтаи назаридан жадаллаштириш мақсадида ҳар бир корхона учун ишлаб чиқилган тизимдир. Таъкидлаб ўтилган фарқларга қарамай, логистиканинг санаб ўтилган тушунчалари ягона умумий элемент - рационаллик ва умумий мақсадга эга.

Логистика хизматлари хом-ашё ва материалларни ишлаб чиқариш корхонасига етказиш, хом-ашё, материаллар ва ярим фабрикатларни завод ичида қайта ишлаб чиқиш, тайёр маҳсулотни истеъмолчига, унинг манфаатлари ва талабларига мувофиқ етказиш ҳамда тегишли ахборотларни узатиш, сақлаш ва ишлаб чиқиш жараёнида амалга ошириладиган ташиш, омборга жойлаштириш ва бошқа моддий ва номоддий операцияларни режалаштириш, назорат қилиш ва бошқариш борасидаги хизматларни ўзида бирлаштиради ҳамда логистика иқтисодий фаолиятнинг таъминот, ишлаб чиқариш, сотиш, транспорт логистикаси каби соҳаларида намоён бўлади.

Логистик ёндашиш моддий оқимларнинг тартибга солинишига олиб келади. Бу оқимлар у ёки бу хизматларда, ишлаб чиқаришни керакли материаллар, бутловчи қисмлар ва хомашё билан таъминлашда; тайёр маҳсулотларни омборга жойлаштириш, уни тақсимлаш ва истеъмолчига етказишда вужудга келади.

Аммо бундай тартибга солишларни фақат одам, энергетик, ахборот, молиявий ресурслар оқимларининг катталиги, йўналиши, вужудга келиши, тугалланиши, даврийлиги, изчиллиги, ҳамда бошқа параметрларни бошқариш орқали амалга ошириш мумкин.

Бу оқимлар ҳам уларнинг жисмоний табиати иқтисодий фаолият натижасида якуний истеъмолчиларнинг белгиланган эҳтиёжларини қаноатлантирувчи маҳсулотга айланувчи дастлабки материалларнинг табиатидан фарқ қилса-да, моддий бўлади.

Шунинг учун логистика тушунчасини кенгроқ маънода иқтисодий фаолият жараёнида вужудга келувчи оқимларнинг барча ўзаро боғлиқ турларини ягона умумий сифатида бошқаришнинг замонавий методологияси ва услубиёти сифатида талқин қилиш мумкин[11].

Умумий ҳолда логистик бошқарув қуйидаги вазифавий соҳаларга ёйилади:

- заҳиралар;

[11] Залманова М.Е. Логистика бизнес-матем. Њљув љњлланма. Саратов: СГТУ, 1997, 88-б.

- юк оқимларининг ҳаракати;
- омборга жойлаштириш ва омборда ишлов бериш;
- материаллар, хомашё, бутловчилар ва тайёр маҳсулотларни ташиш;
- маҳсулотларни тақсимлаш.

Мавжуд амалиётда логистика хизматларига икки хилдаги ёндашиш қабул қилинган.

Битта ҳолда логистика моддий, ахборот, молиявий бошқа оқимларнинг ҳаракатини бошқаришнинг механизм ва тузилишини ишлаб чиқишни кўзда тутади, яъни режалаштириш вазифаларининг бажарилиши билан чекланади.

Бошқа ҳолда логистика хизматлари режалаштириш билан чекланмайди ва ҳақиқий бошқарув тадбирларини кўзда тутади, яъни бошқарув бўйича кундалик жорий фаолиятни амалга оширади. Логистика хизматлари хоҳ ишлаб чиқариш тадбиркорлик фаолиятини режалаштириш босқичи ва хоҳ амалга ошириш босқичи бўлсин, хизматлар жараёнига, моддий ресурсларнинг ҳаракатланиши, маҳсулотларнинг истеъмолчилар ўртасига тақсимланиши, шахсан ишлаб чиқариш жараёни ҳамда хизматлар жараёнининг маъмурий-бошқарув фаолиятига таъсир қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Залманова М.Е. Логистика бизнес-матем. Њљув љњлланма. Саратов: СГТУ, 1997, 88-б.
2. Бауэрсокс Д.Д., Клосс Д.Д., Купер М.Б. Логистика: интегрированная цепь поставок. 2-нашр, 2013, Олимп-Бизнес (Москва)
3. Уотерс Д. Логистика. Управление цепями поставок-2003, ЮНИТИ-ДАНА (Москва)
4. Кристофер М. Логистика и управление цепями поставок-2004, Питер (Санкт-Петербург)
5. Баллоу Р. Бизнес-логистика. Управление цепями поставок-2008, Инфра-М (Москва)
6. Гаджинский А.М. Логистика -21-нашр, 2012, Дашков и К (Москва)
7. Карнаухов С.Б. Логистика - 2006, Феникс (Ростов-на-Дону)
8. Сергеев В.И. Корпоративная логистика -2005, Инфра-М (Москва)
9. Миротин Л.Б., Ташбаев К.Э. Логистика: управление материальными потоками- 2002, Экзамен (Москва)

YUQUMLI KASALLIKLARNING OLDINI OLISH

Ashurova Guljamol
Qo‘qon Universiteti Andijon filiali

Tibbiy fakulteti Davolash ishi
24-02-guruh 2-bosqich talabasi
E-mail guljamolashurova1@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada yuqumli kasalliklarning kelib chiqish sabablari, tarqalish yo‘llari va ularning oldini olish chora-tadbirlari yoritilgan. Shuningdek, infeksion kasalliklarning jamiyat salomatligiga ta’siri hamda profilaktika tadbirlarining ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqolada shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, emlash, sog‘lom turmush tarzini olib borish va sanitariya-gigiyena me’yorlariga amal qilishning muhim jihatlari bayon etilgan. Yuqumli kasalliklarning oldini olishda tibbiy madaniyatni oshirish va aholining xabardorligini kuchaytirish zarurligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: Yuqumli kasalliklar, infeksiya, virusli kasalliklar, bakterial kasalliklar, profilaktika, emlash, vaksinalar, gigiyena, sanitariya, epidemiologiya, karantin, sog‘lom turmush tarzi, immunitet, tibbiy madaniyat, jamoat salomatligi, infektsiya tarqalishi, xabardorlik, sog‘liqni saqlash, xavfsizlik chorasi, kasalliklarning oldini olish, profilaktik tadbirlar, tibbiy nazorat

Kirish. Yuqumli kasalliklar – bu organizmga mikroorganizmlar (viruslar, bakteriyalar, zamburug‘lar va parazitlar) tushishi natijasida yuzaga keladigan va odatda odamdan odamga yoki hayvondan odamga yuqadigan kasalliklardir. Ushbu kasalliklar tarix davomida insoniyat uchun jiddiy tahdid solib kelgan bo‘lib, pandemiyalar va epidemiyalar orqali millionlab odamlarning sog‘lig‘iga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Hozirgi kunda ham yuqumli kasalliklar jamoat salomatligi, iqtisodiyot va ijtimoiy hayot uchun dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Kasalliklarning tarqalishini oldini olish uchun profilaktik chora-tadbirlar muhim ahamiyatga ega. Ular orasida shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, toza ichimlik suvi va oziq-ovqatdan foydalanish, emlash, karantin va sanitariya-gigiyena tadbirlari alohida o‘rin tutadi. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jamoatchilikni infeksion kasalliklar xavfi haqida xabardor qilish ham kasallik tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Globalizatsiya va aholi harakati oshishi yuqumli kasalliklarning tez tarqalishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun, epidemiologik monitoring, sog‘liqni saqlash tizimini mustahkamlash va tibbiy madaniyatni oshirish bugungi kunda infeksion kasalliklarni nazorat qilishning eng samarali usullaridan hisoblanadi. Yuqumli kasalliklarning oldini olish – nafaqat shaxsiy, balki jamoat salomatligini himoya qilish, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni saqlash bilan ham bog‘liq dolzarb vazifa hisoblanadi.

Yuqumli kasalliklarning sabablari. Yuqumli kasalliklar – mikroorganizmlar (viruslar, bakteriyalar, zamburug‘lar va parazitlar) sababli kelib chiqadigan kasalliklar bo‘lib, ularning paydo bo‘lishi bir nechta asosiy omillarga bog‘liq:

Mikroorganizmlar mavjudligi:

Viruslar: gripp, COVID-19, qizamiq kabi kasalliklar viruslar tufayli yuzaga keladi.

Bakteriyalar: tuberkulyoz, difteriya, sil kasalligi kabi kasalliklar bakteriyalardan kelib chiqadi.

Zamburug‘lar va parazitlar: oyoq qo‘ziqorinlari, malaria va boshqa parazitar infeksiyalar kasallik manbai bo‘lishi mumkin.

Atrof-muhit omillari:

Toza ichimlik suvi va oziq-ovqat yetishmasligi.

Sanitariya qoidalariga rioya qilinmasligi.

Ifloz muhit, chang va axlat orqali mikroorganizmlar tarqalishi.

Shaxsiy omillar:

Shaxsiy gigiyenaga e’tibor bermaslik (qo‘lni yuvmaslik, tana tozaligiga amal qilmaslik).

Immunitetning pastligi – yomon ovqatlanish, stress, uyqusizlik yoki surunkali kasalliklar tufayli.

Sog‘lom turmush tarzining yetarli darajada bo‘lmasligi, masalan, jismoniy faollikning yetishmasligi.

Ijtimoiy va iqtisodiy omillar:

Aholi zich joylashgan hududlar.

Sog‘liqni saqlash tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi.

Ta’lim va xabardorlik yetishmasligi.

Yuqumli kasalliklarning tarqalishi

Yuqumli kasalliklar odamlar va hayvonlar orasida turli yo‘llar bilan tarqaladi. Kasallikning tez tarqalishi mikroorganizmlarning tabiati, atrof-muhit sharoiti va inson harakatlariga bog‘liq. Yuqumli kasalliklarning asosiy tarqalish yo‘llari quyidagilardan iborat:

To‘g‘ridan-to‘g‘ri kontaktdan tarqalish:

Kasallik tashuvchisi bilan yaqin aloqada bo‘lish natijasida infektsiya yuqadi.

Misol: qo‘l berib salomlashish, quchoqlashish, qon yoki boshqa tana suyuqliklari bilan aloqa.

Havo-tomchi yo‘li bilan tarqalish:

Kasallik tashuvchisi yo‘talganida yoki aksirganda viruslar yoki bakteriyalar havoga tarqaladi va boshqa odamlar orqali yuquvchan bo‘ladi.

Misol: gripp, COVID-19, shamollash kasalliklari.

Oziq-ovqat va suv orqali tarqalish:

Ifloz suv, noto‘g‘ri saqlangan yoki yetarlicha qaynatilmagan oziq-ovqat orqali mikroorganizmlar tana ichiga kiradi.

Misol: salmonella, dizenteriya, cholera.

Hayvonlar orqali tarqalish (zoonozlar):

Ba’zi kasalliklar hayvonlardan odamga yuqadi.

Misol: tularemia, hayvon grippi, lyambliyoz.

Vector (vektor) orqali tarqalish:

Ba’zi yuqumli kasalliklar chivin, tırtıl, shira va boshqa hasharotlar orqali yuqadi.

Misol: malaria, danggi, lyem boreliozi.

Yuqumli kasalliklarning oldini olish choralari

Yuqumli kasalliklarning tarqalishini kamaytirish va odamlarning sog‘lig‘ini saqlash uchun bir qator samarali chora-tadbirlar mavjud. Ushbu choralar shaxsiy, jamoat va tibbiy darajada amalga oshiriladi:

Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish:

Qo‘lni tez-tez yuvish, ayniqsa ovqatdan oldin va hojatxonadan keyin.

Shaxsiy gigiyena vositalaridan foydalanish (sochiq, tish cho‘tkasi, hojatxona vositalari).

Tana tozaligini saqlash va kiyimlarni muntazam yuvish.

Emlash (vaksinatsiya):

Virusli va bakterial kasalliklardan himoya qilish uchun emlash juda muhimdir.

Emlash jamoat immunitetini oshiradi va epidemiyalarning oldini oladi.

Sanitariya va karantin tadbirlari:

Atrof-muhitni tozalash, iflos suv va chiqindilarni nazorat qilish.

Kasallik tarqalgan hududlarda karantin va cheklovlar qo‘llash.

Sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish:

To‘g‘ri ovqatlanish, yetarlicha uyqu, stressni nazorat qilish va jismoniy faollik immunitetni kuchaytiradi.

Aholini xabardor qilish va ta’lim berish:

Kasallik belgilari, tarqalish yo‘llari va profilaktika usullari haqida ma’lumot berish.

Bolalar, kattalar va jamoatchilikni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish.

Tibbiy nazorat va monitoring:

Yuqumli kasalliklar bo‘yicha doimiy epidemiologik kuzatuv.

Kasallik aniqlangan hollarda tezkor choralar ko‘rish.

Xulosa. Yuqumli kasalliklar inson salomatligi va jamoat hayoti uchun jiddiy xavf tug‘diradi. Ularning tarqalishini oldini olish shaxsiy, ijtimoiy va tibbiy chora-

tadbirlarni tizimli qo‘llash orqali mumkin. Shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, emlash, sanitariya-gigiyena tadbirlari, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va aholining xabardorligini oshirish infeksion kasalliklarning tarqalishini sezilarli darajada kamaytiradi. Shu bilan birga, global epidemiologik monitoring va kasalliklarni tez aniqlash tizimlarini mustahkamlash jamoat salomatligini himoya qilish va epidemiyalarning oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqumli kasalliklarning oldini olish – bu nafaqat shaxsiy salomatlikni, balki jamoat salomatligi, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiluvchi dolzarb vazifa hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO). Infectious diseases — Yuqumli kasalliklar va ularning oldini olish bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar va tavsiyalar. WHO – Infectious diseases topic page
2. Centers for Disease Control and Prevention (CDC). Infection Control and Prevention — Infektsiyalarni nazorat qilish va oldini olish bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalar.
3. cdc.gov
4. Bazarova G.R., Cho‘liyeva D.E., Tillayeva S.E. “Yuqumli kasalliklar, infeksiyaning tarqalishi va oldini olish. Immunitet”, Modern Science and Research, 2025. — Kasallik tarqalishi, immunitet roli va oldini olish usullari tahlili.
5. inlibrary.uz
6. Xusainova M.S., Kafiyeva M.X., Hakimova X. “Yuqumli kasalliklar va ularning oldini olish”, Tadqiqotlar.uz — Yuqumli kasalliklar profilaktikasi haqida ilmiy maqola.
7. tadqiqotlar.uz
8. Xamrayeva N.T., Usmonova X.Sh. “Yuqumli kasalliklarning maxsus immunoprofilaktikasi”, Pedagogik Tadqiqotlar Jurnali, 2025 — Immunoprofilaktikaning ahamiyati va ilmiy asoslari

ҲУДУДЛАРДА КАМБАҒАЛЛИКНИ ҚИСҚАРТИРИШНИНГ ИННОВАЦИОН ЙЎНАЛИШЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ

Абилов Ф.Н.
Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил изланувчиси.
feruzabilov@gmail.com.

Аннотация. Ушбу мақолада ҳудудларда камбағалликни қисқартиришнинг инновацион йўналишлари, яъни рақамлаштириш, тадбиркорлик, таълим, молиявий кўмаклашиш ва манзилли ижтимоий ҳимоя уйғунлигини таъминлаш масалаларига алоҳида эътибор қаратилган.

Калит сўзлар: аҳоли, турмуш даражаси, камбағалликни қисқартириш, рақамлаштириш, тадбиркорлик, таълим, молиявий кўмаклашиш, ижтимоий ҳимоя.

Аннотация. В данной статье особое внимание уделяется инновационным направлениям сокращения бедности в регионах, а именно обеспечению гармоничного сочетания цифровизации, предпринимательства, образования, финансовой помощи и адресной социальной защиты.

Ключевые слова: население, уровень жизни, сокращение бедности, цифровизация, предпринимательство, образование, финансовая поддержка, социальная защита.

Abstract. This article focuses on innovative approaches to poverty reduction in the regions, namely, ensuring a harmonious combination of digitalization, entrepreneurship, education, financial assistance, and targeted social protection.

Key words: population, standard of living, poverty reduction, digitalization, entrepreneurship, education, financial support, social protection.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2024 йил 30 сентябрдаги “Республикада агросаноат соҳасига янги бозор механизмларини жорий этиш ҳамда саноатлашган боғ ва такзорларни барпо қилишнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-151- сонли Фармони қабул қилинди. Булар албатта тегишли натижаларга эришиш учун ҳам асос бўлиб хизмат қилмоқда. Шунингдек, ушбу масала юзасидан Узбекистан Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2025 йил 26 декабрдаги Олий Мажлис ва Узбекистан халқига Мурожаатномасида “Жорий йилда 5 миллион ахолимиз даромадли булиб, ишсизлик даражаси 5,5 фоиздан 4,9 фоизга тушди. К,арийб 1,5 миллион эхтиёжманд ахоли камбағалликдан чикди, илк бор 1 минг 435 та махалла “камбағалликдан холи” худудга айланди”[12], деб таъкидлаб ўтди. Бу бир йилда эишилган жуда катта ютуқ. Яна таъкидладики, “Бир эсланг, бу ишларни бошлаганимизда ахолимизнинг учдан бир кисми камбағаллик чегарасида яшарди. Кредит, субсидия, компенсация каби 100 дан зиёд хизматлар оркали ижтимоий химоянинг мутлако янги тизимини йулга куйганимиз ва буларни махалладаги “еттилик”нинг узига берганимиз натижасида 8,5 миллиондан

[12] Узбекистан Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Узбекистан халцига Мурожаатномаси. //

зиёд одам камбағалликдан чикди, ишсизлик 2 карра кискарди. Натижада уч йил олдин Камбағалликни 2026 йил якуни билан 2 карра кискартириш буйича олган маррамизни шу йилнинг узида уддаладик”[13]. Кўриниб турибдики, бу тадбирлар мамлакатимиз ва унинг ҳар бир ҳудудларида ҳам амалга оширилди. Ушбу ҳолатлар мазкур масаланинг ўта долзарб мавзуга бағишланганлигидан далолат беради.

Ҳудудларда камбағалликни қисқартиришнинг инновацион йўналишлари бевосита рақамлаштириш, тадбиркорлик, таълим, молиявий кўмаклашиш ва манзилли ижтимоий ҳимоя уйғунлигини таъминлашдан иборатдир. Ушбу ёндашувлар ҳудудий шароитларни, яъни қишлоқ ва шаҳар ҳудудларини ва улардаги имкониятларини ҳисобга олган ҳолда амалга оширилса, барқарор натижа беради.

Ҳозирги кунда ҳар бир мамлакат ўзининг аҳолисини камбағалликдан қутқариш масаласига алоҳида аҳамият бериб келмоқда. Бу тадбирларнинг бош омили аҳолининг бандлигини таъминлашга қаратилган. Бу эса, хизмат кўрсатиш соҳасида тез ва соз амалга оширилади. Ушбу ҳолатларни инобатга олиб, Ўзбекистон Республикаси Президенти 2022 йил 27 январда “Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорини қабул қилди. Ушбу қарорда “...хизматлар соҳасини ривожлантиришга янгича ёндошувларни жорий этиш орқали бозор хизматлари ҳажмини 2022 йилда 1,5 баробарга ошириш ҳамда қўшимча 1,5 миллион янги иш ўринларини яратиш имконияти мавжуд”, деб таъкидланган. Шу йўналишда тегишли дастурлар тузилиб, мамлакатимизда улкан ишлар амалга оширилмоқда. Бунинг битта йўналиши янги иш ўринларини яратиш орқали аҳоли бандлигини таъминлаш йўли билан камбағалликни қисқартиришга қаратилган. Бу барча хизматлар сингари агросервис хизматлари учун ҳам муҳим йўналишлардан биридир. Бу ҳозирги пайтда жуда муҳимлиги шундаки, аҳолининг асосий қисми қишлоқда яшайди ва ишсизларнинг ҳам аксарият қисми шу ҳудудга тўғри келади.

Ушбу ҳолатни Самарқанд вилояти мисолида қараб чиқишни мақсадга мувофиқ, деб ҳисоблаймиз. Чунки “Темир дафтар”, “Ёшлар дафтари” ва “Аёллар дафтари”га киритилган оилаларни шаҳар билан қишлоқ ҳудудларини қиёслаш орқали ҳолатга аниқ баҳо бериш мумкин. Ушбу кўрсаткичларнинг қиёсий таҳлили мазкур жадвалда келтирилган (1-жадвал).

1-жадвал

[13] Ўша жойда.

Самарқанд вилояти мисолида “Темир дафтар”, “Ёшлар дафтари” ва “Аёллар дафтари”га киритилган оилалар ва фуқаролар сони тўғрисидаги 2022 йил маълумотлари[14]

Т/р	Кўрсаткичлар	Шаҳарда	Улуши, %	Қишлоқда	Улуши, %	ЖАМИ
1.	“Темир дафтар”, жами оилалар сони	1907	18,8	8234	81,2	10141
2.	“Ёшлар дафтари”га киритилган ёшлар сони, киши	225	16,6	1132	83,4	1357
3.	“Аёллар дафтари”га киритилган аёллар сони, киши	10114	15,3	55800	84,7	65914

Жадвалдан кўриниб турибдики, “Темир дафтар”га киритилган жами оилалар сони 10141 та бўлиб, уларнинг1907 таси ёки 18,8 % шаҳарларга ва 8234 таси ёки 81,2 % қишлоқларга тўғри келмоқда. Ушбу ҳолат “Темир дафтар”га киритилган оилалар сонининг аксарият қисми қишлоқ худудларига тўғри келишини кўрсатиб турибди. Худди шундай аҳвол “Ёшлар дафтари”га киритилган ёшлар сони ва “Аёллар дафтари”га киритилган аёллар сонида ҳам кўриниб турибди. “Ёшлар дафтари”га киритилган ёшлар сонининг 16,6 % ёки 225 нафари шаҳарларга тўғри келса, 83,4 % ёки 1132 нафари қишлоқларга тўғри келмоқда. “Аёллар дафтари” бўйича ҳам худди шундай ҳолатни кузатиш мумкин. Ушбу дафтарга киритилган аёллар сони шаҳарда 10114 нафарни ёки 15,3 %ни ташкил қилса, қишлоқ ҳудудларида уларнинг сони 55800 нафарни ташкил қилади ва унинг улуши 84,7 %га тенг.

Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, Самарқанд вилоятида “Темир дафтар”, “Ёшлар дафтари” ва “Аёллар дафтари”га киритилган оилалар ва одамлар сонини камайтириш учун асосий эътиборни қишлоқ жойларга қаратиш лозим экан. Бу эса, ўз навбатида хизмат кўрсатиш соҳасининг ажралмас қисми бўлган агросервис хизатларини кенгайтириш орқали янги иш ўринларини яратишни тақозо қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси. “Халқ сўзи” газетаси, 2020 йил 25 январь, № 19 (7521)
2. Абдураҳмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р. “Меҳнат иқтисодиёти ва социологияси”. Ўқув қўлланма -Т.: Ўзбекистон ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004 й.

[14] Вилоят статистика бошқармаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисоб-китоб қилинган.

3. Ricardo, David (1817) On the Principles of Political Economy and Taxation. Piero Sraffa (Ed.) Works and Correspondence of David Ricardo, Volume I, Cambridge University Press, 1951, p. 135.
4. Спенсер, Г. Социальная статика. Изложение социальных законов, обуславливающих счастье человечества. – СПб: В. Врубелевский, 1906
5. Мальтус, Т.Р. опыт закона народонаселения / Т. Мальтус; Сокр., пер. И.А. Вернера. – М.: М.Н. Прокопович, 1908. – 180 с.
6. Rowntree B.S. Poverty: A Study of Town Life. – L.: Macmillan, 1901. – 289 p
7. Пардаев М.Қ., Пардаев О. Камбағалликни баҳолаш ва уни камайтириш йўллари. Рисола. Самарқанд, 2020

TRANSPORT LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI

Abduxalikova Komila Abduxalikovna
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
"Marketing" kafedrasi assistenti

Annotasiya. Mazkur maqolada transport logistika xizmatlarini rivojlantirish hududlarni umumiy rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash orqali ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: transport, logistika xizmatlari, hudud, iqtisodiy faoliyat, kompleks rivojlantirish.

Аннотация. В данной статье рассматривается создание необходимых условий для устойчивого социально-экономического развития регионов путем определения основных направлений развития транспортно-логистических услуг.

Ключевые слова: транспорт, логистические услуги, территория, экономическая деятельность, комплексное развитие.

Abstract. This article examines the creation of necessary conditions for sustainable socio-economic development of regions by identifying key areas for the development of transport and logistics services.

Key words: transport, logistics services, territory, economic activity, integrated development.

Xizmatlar sohasi jahon iqtisodiyotini jadal taraqqiyotining muhim asosi hisoblanib, uning taraqqiyoti muhim iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi. Shunday ekan mazkur soha moddiy ishlab chiqarishdan farqli o‘laroq, vazifalarni bajarishga va umuman mijozlarga nomoddiy xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan bo‘lib, global iqtisodiy faoliyatning eng katta drayveri hisoblanadi hamda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ish o‘rinlarining keng doirasi mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan bugungi kunda xizmatlar sohasi infratuzilmasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning samarali rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadigan muayyan shartlarga bog‘liq. Bunday sharoitlarni shakllantirishda ma’lum bir hududga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘langan va shuning uchun u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan mintaqaviy infratuzilma asosiy rol o‘ynaydi.

Dunyo mamlakatlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ularning iqtisodiy makonining hududiy yaxlitligini kompleks rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati muvozanatli mintaqaviy infratuzilmani yaratish muammosini qo‘yadi, uning eng muhim tarkibiy qismi transport infratuzilmasi bo‘lib, bu juda dolzarbdir.

Hozirgi vaqtda hududlarni rivojlanishining turli xil yondashuvlari va omillari (hududlarning resurslar taqsimotiga kora tabaqalanishi, noqulay geografik joylashuvi, investitsion oqimlarning cheklanganligi) shuhi ko‘rsatmoqdaki, transport infratuzilmasining hozirgi tizimi xizmatlar sohasi, xususan transport xizmatlari iqtisodiyotning drayveriga aylanishi uchun yetarli darajada imkoniyat bermaydi. Agar fikrimizning tasdig‘i sifatida sohaning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatiga tuxtalsak, 2023 yil yakunlariga ko‘ra YaIMda xizmatlar sohasi 42,1%ni, jami xizmatlar sohasida transport sohasining ulushi 75198,4 milliard so‘mni tashkil etmoqda[15].

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev “Bu soha – iqtisodiyotning qon tomiri. Transport va logistikani yangi bosqichga olib chiqmasak, iqtisodiyotning barqaror rivojini ta’minlay olmaymiz”, deya ta’kidlab o‘tgan[16]. Shuningdek, aviatsiyada raqobat muhiti to‘la shakllanmagan, 10 ta aeroportning samaradorligi past darajada. Oqibatda, raqobatdosh narxlarda yetkazib berish qulayligi bo‘yicha Xalqaro

[15] www.stat.uz

[16] https://www.gazeta.uz/uz/2022/09/29/transport/

logistika samaradorligi indeksida mamlakat 160 ta davlat ichida 120-o‘rinni egallagan. Davlatimiz rahbari temir yo‘l tranziti imkoniyatini keskin oshirish, aviatsiyani qulay, tez va sifatli xizmat ko‘rsatadigan sohaga aylantirish, xalqaro tranzit yuklari uchun zamonaviy avtomobil yullari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha choralarni belgilab berdi.

Transport va logistikaning ishlashi uchun shart-sharoit yaratuvchi transport xizmatlari hududiy iqtisodiyotning tizimli tarmoqlaridan biri bo‘lib, hududlarning hududiy yaxlitligini va uning iqtisodiy makonining birligini ta’minlaydi va shuning uchun transport logistika xizmatlarini rivojlantirish iqtisodiy o‘sishning innovatsion modelini amalga oshirish va mintaqa aholisining hayot sifatini yaxshilashning zarur shartidir.

Transport logistika xizmatlari ishlab chiqarishni joylashtirishga katta ta’sir ko‘rsatadi, transport kommunikatsiyalarini hisobga olmasdan ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirishga erishib bo‘lmaydi. Transportga bo‘lgan ehtiyojni, tayyor mahsulotni tashish imkoniyatini hisobga olish kerak, xom-ashyo va ularning massasi, transport yo‘nalishlarining mavjudligi va ularning o‘tkazuvchanligi, korxonalarning joylashishi ana shu komponentlarning ta’siriga bog‘liq. Yuk tashishning ratsionalizatsiyasi alohida korxonalar va natijada mintaqalar va butun mamlakat ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir qiladi.

Transport logistika xizmatlarini rivojlantirish hududlarni umumiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilash orqali ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, ijtimoiy, ishlab chiqarish, transport va boshqa muhandislik infratuzilmalarining tashkil etilishini, tabiiy va tarixiy-madaniy muhitni muhofaza qilish tizimlarini takomillashtirishga olib keladi. Transport juda xilma-xil xizmat ko‘rsatishga ega. Yuk va yo‘lovchi tashishda mamlakat xo‘jalik majmuasini ta’minlashning asosiy vazifasini bajaruvchi uning barcha turlari bir-biri bilan va ishlab chiqarishning aksariyat sohalari bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Bu transportni tizim va butun shakllanish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqishga asos beradi.

Jahon banki ma’lumotlariga ko‘ra, jahon transport xizmatlarining YaIM tarkibidagi miqdori 4,3 trillion AQSh dollari (6,9 %)ni tashkil etib, yiliga 110 milliard tonna yuk va 1 trilliondan ortiq yo‘lovchilar tashilmoqda, transport kompleksida band bo‘lgan xodimlar soni 100 million. kishini tashkil etmoqda[17]. Xususan mamlakatimizda 2023 yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, transport xizmatlarini ko‘rsatuvchi, ya’ni tashish va saqlash bilan bog‘liq faoliyat ko‘rsatayotgan korxona

[17] The World Bank: World Development Indicators. http: //data.worldbank.org/indicator

va tashkilotlar soni 20 666 birlikni yoki ularning umumiy sonining 5,3 %ini tashkil etdi. Ulardan 20 451 birligi (99,0 %) kichik biznes sub'ektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo‘yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog‘liq bo‘lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi. 2022 yilning yanvar-dekabr oylarida transport xizmatlari hajmi 81 006,6 milliard so‘mni tashkil etib, 2021 yilga nisbatan ushbu xizmat turining o‘sish sur'ati 112,4 % ni tashkil etdi (1.3-rasm). Transport xizmatlarining turlari bo‘yicha tarkibiga e'tiborimizni qaratadigan bo‘lsak, 2022 yilda avtotransport xizmatlari 10, 3%, havo transporti 11,4%, quvur transporti 13,1%, temiryo‘l transporti 14,2%, yordamchi transport faoliyati 51, 0%ni tashkil etgan.

O‘rtacha kurs bo‘yicha AQSh dollarida hisoblanganda nominal YaIM 80,38 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2021 yilga nisbatan 11,18 milliard dollarga ko‘p. Aholi jon boshiga YaIM real ko‘rinishda 3,5 foizga - 21,15 million so‘mdan 24,91 million so‘mga (2254,9 dollar) o‘sdi. Taqqoslash uchun, 2021 yilda 5,3 foizga, 2020 yilda pandemiya yilida esa 0,1 foizga o‘sish qayd etilgan.

Umuman, iqtisodiyotda yuk va boshqa moddiy oqimlar zahiralarini samarali tashkil etish transport logistika xizmatlari samaradorligini oshirish va tashkiliy-iqtisodiy muammolarni hal qilish bilan bevosita bog‘liq. Zero transport xizmatlarining raqobatbardoshliligini, ulardan foydalana olishni, ularning samaradorligi va sifatini, xavfsizligi va ekologik tozaligini oshirish transport sohasida davlat siyosatining asosiy yo‘nalishi etib belgilanganligi bejiz emas[18]. Bu yerda albatta, mazkur tizim faoliyatini samarali tashkil etish lozim, deb hisoblaymiz. Transport turlari o‘rtasida kuchayib borayotgan raqobatni hisobga olgan holda transport logistika xizmatlarini samarali rivojlantirish bo‘yicha vazifalarni aniq belgilab olishimiz muhimdir. Mazkur vazifalarning amalga oshirilishi rivojlanish indekslari bo‘yicha mamlakat transport logistika xizmatlari reytingini dunyo miqyosida yuqori pog‘onaga ko‘tarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Umarova D.M., Bo'ronova M.A. Logistika. O‘quv qo'llanma. – T.: “ Cho‘lpon”, 2016, 254 b.
2. Qulmuhammedov J.R., Aripjanov M.M., Nazarov K.M. Logistika asoslari. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Fan va texnologiyalar”, 2015. 160-b.
3. Xo'jayev F.E., Po'latxo'jayev D.M., Aytiyeva S.A. Tijorat va servis logistikasi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU “Iqtisodiyot”, 2020, 218 b.

[18] “Transport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 7-modda. 2021-yil 9-avgust, O‘RQ-706-son

4. Babayev N. Logistika asoslari. Darslik. - Samarqand.: “Step Sell” MChJ. 2023, 292 b.
5. Dadaboyev Q. Logistika. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2007, 236 b.

SYMBOLIC AND MYTHOLOGICAL MEANINGS OF HYDRONYMS IN UZBEK FOLKLORE

Muradova Sevara Zoir qizi
teacher at Denau Institute of Enterpreneurship and Pedagogy
E-mail: smuratova254@gmail.com

Fayzullayeva Shahzoda
student at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
E-mail: fayzullayevashahzoda67@gmail.com

Fazlitdinova Mubina
student at Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
E-mail: fazliddinovamubina30@gmail.com

Annotation. This article analyzes the symbolic, metaphorical, and mythological meanings of water-related place names—hydronyms—in Uzbek folklore. Using folklore texts, scholarly articles, books, explanatory dictionaries, and onomastic studies, the cultural and metaphorical functions of hydronyms are highlighted. Additionally, it shows that water names in oral traditions serve not only

as geographic identifiers but also as symbolic tools. The article is useful for linguistics, cultural studies, folklore, and anthropology.

Keywords: Hydronym, toponymy, symbolic meaning, mythological concept, Uzbek folklore, metaphor, water body names, etymology, folk beliefs, folklore research, geographic names, chronological classification

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbek folkloridagi suv bilan bog‘liq joy nomlari – gidronimlarning ramziy, metaforik va mifologik ma’nolarini tahlil qiladi. Folklor matnlari, ilmiy maqolalar, kitoblar, izohli lug‘atlar va onomastika tadqiqotlari asosida gidronimlarning madaniy va metaforik funksiyalari ko‘rsatib berilgan. Shu bilan birga, og‘zaki an’analarda suv nomlari faqat geografik belgilovchi emas, balki ramziy vosita sifatida xizmat qilishini ko‘rsatadi. Maqola tilshunoslik, madaniyatshunoslik, folklor va antropologiya uchun foydalidir.

Kalit so‘zlar: Gidronim, toponimiya, ramziy ma’no, mifologik tushuncha, O‘zbek folklori, metafora, suv ob’ektlari nomlari, etimologiya, xalq e’tiqodlari, folklor tadqiqoti, geografik nomlar, xronologik tasniflash

Аннотация. Данная статья анализирует символическое, метафорическое и мифологическое значение водных топонимов – гидронимов – в узбекском фольклоре. На основе фольклорных текстов, научных статей, книг, пояснительных словарей и ономастических исследований показаны культурные и метафорические функции гидронимов. Кроме того, показывается, что водные названия в устной традиции служат не только географическим обозначением, но и символическим инструментом. Статья полезна для лингвистики, культурологии, фольклористики и антропологии.

Ключевые слова: Гидроним, топонимия, символическое значение, мифологическая концепция, узбекский фольклор, метафора, названия водных объектов, этимология, народные верования, фольклорные исследования, географические названия, хронологическая классификация

Introduction. Water-related place names—rivers, lakes, springs, and streams—are referred to linguistically as hydronyms. Beyond their geographic function, these names carry deep symbolic and mythological layers in the Uzbek cultural mindset. In Uzbek folklore, hydronyms are connected with life, purity, blessing, and peace. For example, a river name often symbolizes the flow of life, while a lake represents tranquility and contemplation. Linguists emphasize that hydronyms should be studied not only linguistically but also for their cultural and mythological layers.

Material and methods. This article is to explore the symbolic, metaphorical, and mythological layers of hydronyms in Uzbek folklore and their connection to cultural memory. 1. Linguistic and Etymological Aspects of Hydronyms. Linguist Shahnoza Majidova emphasizes that hydronyms reflect the collective mindset of the

people. Water names serve as metaphors as well as geographic identifiers. Studies of Bukhara hydronyms show that these names originate from ancient Turkic words, natural phenomena, and local beliefs. For instance, "Amudarya" derives from the ancient Turkic “amud” and “darya” (large river). Similarly, Qashqadarya hydronyms have been analyzed historically and linguistically, showing their geographic and etymological uniqueness . 2. Metaphorical Functions and Idiomatic Use.Bozorova Rufina’s research demonstrates that hydronyms in idiomatic expressions enhance symbolic meanings. For example: “Amuday oqdi yurak” symbolizes vitality and passion, and “Sirdaryodoy tinchlik” represents abundance and calmness. Proverbs and examples show that water names express life flow, time, and emotional states. “Suvli joy — obod joy” illustrates the cultural and social significance of hydronyms. Umarova also emphasizes their metaphorical function in Uzbek and Turkic languages. 3. Symbolic and Mythological Layers in Folklore. In Uzbek legends and epics, water bodies are often sacred and considered sources of life. Examples include the “Golden Fish” tale and the “Spring Legend,” where lakes and springs symbolize healing and life force.

Discussion and results. Uraeva and Juraev highlight that in ancient Turkic societies, water served as a mythological element crucial in creation myths. Kamolov et al show that water names in folklore represent blessings, purity, and vitality, reflecting the symbolic and metaphorical layers of hydronyms. 4. Cultural-Onomastic and Geographic Analysis. Suyun Qorayev demonstrates the cultural-symbolic role of hydronyms. Kamolov and Soatova analyze their connection to geographic networks, showing the integration of hydronyms within cultural and geographic systems. Begmatov compares hydronyms with other toponyms to analyze their etymological and metaphorical aspects. 5. Chronological and Regional Analysis. According to OEfEN slide materials and Madraximov, hydronyms can be classified chronologically, analyzing their historical emergence, spread, and regional changes. This approach highlights the link between hydronyms’ etymology and folklore context. 6. Summary of Folkloric and Metaphorical Meanings.In folklore, water names symbolically represent human emotions, social situations, and the passage of time: rivers symbolize the flow of life, lakes signify serenity, and springs denote new beginnings. They also embody blessings, peace, and vitality in oral tradition.

Conclusion. In conclusion, this study firmly establishes that hydronyms within Uzbek folklore transcend their function as mere geographic identifiers. They are, in fact, foundational elements of cultural consciousness, woven deeply into the intricate tapestry of belief systems, collective memory, and national identity. Far from being passive labels on a map, these names are active carriers of meaning,

giving voice to the core cultural values of life, purity, blessings, and tranquility. They transform the physical landscape into a narrative landscape, where every river, spring, and lake holds the potential to tell a story, recall an ancestor, or signify a sacred presence. The symbolic and mythological layers embedded within these water names are a rich, albeit under-explored, archive. For linguistics, they offer etymological echoes of ancient languages and dialects, revealing patterns of migration and language contact over centuries. For cultural studies and anthropology, they provide a unique lens through which to examine historical cosmologies, rituals associated with water, and the enduring human relationship with the natural world. For folklorists, they are the key to unlocking deeper meanings in epics, legends, and tales, grounding abstract narratives in tangible locations that continue to resonate with communities today.

Therefore, the scholarly investigation of hydronyms is not a peripheral pursuit but a vital interdisciplinary endeavor. Future research must move towards a more systematic and multi-faceted approach. A comprehensive modern linguistic analysis is essential to deconstruct the etymological layers within these names, identifying substrate and superstrate influences from Sogdian, Persian, Arabic, and other languages upon their Turkic foundations. Furthermore, creating a folkloric-onomastic atlas that explicitly maps hydronyms to specific folklore texts, characters, and plot points would be an invaluable resource, illustrating the geographical scope of foundational myths.

References

1. Majidova Sh. History of the Study of Hydronyms. GIIRJ, Vol.9 No.12, 2021.
2. Bozorova R. Hydronyms in Idiomatic Expressions and Metaphorization. 2023.
3. Qorayev S. Toponymy. Tashkent: National University of Uzbekistan, 2006.
4. Uraeva D., Juraev M. Uzbek Mythology. 2022.
5. Muradova Sevara Zoir qizi. (2025). LINGUISTIC ANALYSIS OF THE ENGLISH RIVER-NAMES OF TWO COUNTIES. Zenodo. https://doi.org/10.5281/zenodo.15179409
6. Kamolov A.U., Soatova S.F., Karjauova Z.T. The Role of Hydronyms in Toponymy and Geographic Naming. IJRS, Vol.2 No.6, 2024.
7. Begmatov A.T. A Comparative Study of Toponyms, Anthroponyms, and Other Onomastic Units in Uzbek and English. AJEL, 2023.
8. Nurmuxammedov B.Sh. Quantitative Indicators of Toponyms. Vol.2 No.1, 2024.
9. Turayeva U.T. Expression of Place Names in Uzbek and Turkic Languages. CTCL, 2024.

10. Umarova D. Study of Onomastic Units in Uzbek Linguistics and Analysis with Other Turkish Languages. 2025.
11. Yuldashev D.T. Methodology of Teaching Turkic and Borrowed Toponyms. Khiva: Khorezm Ma'mun Academy, 2023.
12. Madraximov Z. Historical Toponymy. NamDU Press, 2017.

AXBOROT QAYDLARINING SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Nodira Xoliyarova
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
2-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqola o‘zbek tilidagi axborot qaydlarining semantik xususiyatlarini kompleks lingvistik tahlil orqali o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda leksik-semantik maydon tahlili, komponent tahlil, kontseptual metafora nazariyasi va epistemik modallik metodlaridan foydalanilgan holda beshta asosiy semantik maydon aniqlangan. Nominallashtirish konstruksiyalari semantik zichlashuv, deagentivizatsiya va rasmiy uslub markeri vazifalarini bir vaqtda bajaruvchi eng produktiv mexanizm sifatida belgilab berilgan. Tadqiqot natijalari axborot qaydi janrining semantik arxitekturasini tizimli-funksional yondashuv asosida tavsiflab, o‘zbek media lingvistikasiga yangi ilmiy hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: axborot qaydi, semantik maydon, nominallashtirish, kontseptual metafora, epistemik modallik, media diskursi, leksik semantika, deagentivizatsiya

Abstract. This article investigates the semantic features of Uzbek news reports through a comprehensive linguistic analysis. Employing lexical-semantic field

analysis, componential analysis, conceptual metaphor theory, and epistemic modality frameworks, the study identifies five dominant semantic fields inherent to the genre. Nominalization constructions are established as the most productive semantic mechanism, simultaneously performing the functions of semantic condensation, deagentivization, and formal register marking. The findings systematically describe the semantic architecture of the news report genre within a systemic-functional framework, making a novel scholarly contribution to Uzbek media linguistics.

Key words: news report, semantic field, nominalization, conceptual metaphor, epistemic modality, media discourse, lexical semantics, deagentivization

Kirish. Axborot qaydi — zamonaviy ommaviy kommunikatsiyaning eng ko‘p tarqalgan va kommunikativ jihatdan eng sermahsul janrlaridan biri. Fransuz lingvisti Rastier fikricha, har qanday matn janri o‘z semantik arxitekturasiga ega bo‘lib, bu arxitektura matnning ijtimoiy va kommunikativ funksiyalari bilan uzviy bog‘liq [12:22]. Axborot qaydlari esa o‘zining kompakt hajmi, faktual yo‘nalishi va ommaviy manzillanishi bilan o‘ziga xos semantik tuzilmani vujudga keltiradi.

Til bilimida matn semantikasiga oid tadqiqotlar asosan badiiy adabiyot va ilmiy matnlar misolida olib borilgan [4;2;10]. Media matnlari, xususan axborot qaydlarining semantik tabiati esa nisbatan kam o‘rganilgan soha bo‘lib qolmoqda. Bundan tashqari, o‘zbek tili materiallari asosida axborot qaydlarining semantik xususiyatlarini tadqiq etishga bag‘ishlangan maxsus ilmiy ishlar deyarli yo‘q.

Semantika tilshunoslikning eng ko‘p munozarali sohalaridan biri sifatida so‘nggi asrda keskin rivojlandi. Tilshunos Jon Lyons John Lyons semantikani "tilning ma’no ifodasi bilan bog‘liq bo‘lgan barcha jihatlarini o‘rganuvchi fan" deb ta’riflagan[10:3]. Bu keng ta’rif semantikaning leksik, grammatik, pragmatik va diskursiv qatlamlarini birlashtiradi.

Matn semantikasi esa individual so‘z va jumlalarning ma'nosidan farqli ravishda, butun bir matn doirasida ma’noning tashkillanishini o‘rganadi. Matnni shakllantirishda uning semantiK muvofiqligi alohida kasb etib, axborot qaydlarida maqsadli tuzilma — voqeani aniq, qisqa va faktual tarzda uzatish niyati — semantik tanlovlarning barcha qatlamlarini belgilab beradi.

Leksik semantika nuqtai nazaridan komponent tahlil nazariyasi so‘zlarning ma’nosi semantik komponentlar (semalar) yig‘indisidan iborat ekanligini ko‘rsatadi [5]. Axborot qaydlarida leksik birliklarning sema tarkibi va ularning kontekstdagi aktuallashuvini tadqiq etish matnning kommunikativ maqsadiga mos semantik strategiyalarni ochib beradi.

Adabiyotlar sharhi. Semantik maydon nazariyasining asoschisi nemis lingvisti Yost Trir so‘zlar alohida, izolyatsiyalangan holda emas, balki bir-biriga bog‘liq

semantik birliklar tizimida ma’no kasb etishini asoslab berdi [13]. Media matnlari semantik maydon nazariyasi nuqtai nazaridan van Deyk tomonidan ham o‘rganilgan. Uning ta’kidlashicha, yangilik matnlarining "tematik struktura"si leksik maydonlarda o‘z aksini topadi: bir mavzuga oid matnlarda bir xil semantik maydonning so‘zlari tizimli tarzda klasterlanadi [14:32]. Bu fikr axborot qaydlarini semantik maydon tahlili orqali o‘rganishda muhim metodologik yo‘riqnoma vazifasini o‘taydi.

Kognitiv tilshunoslikda Lakof va Jonsonning "Metaphors We Live By" asari kontseptual metafora nazariyasiga asos soldi. Ularning asosiy g‘oyasiga ko‘ra, metafora faqat adabiy qurilma emas, balki insonning kognitiv dunyoni idrok qilish mexanizmi [7]. Media matnlarida kontseptual metaforalar voqealarni ma’lum bir kontseptual ramkada ifodalaydi: masalan, IQTISODIY INQIROZ — KASALLIK metaforasi iqtisodiy yangiliklarda "inflyatsiya o‘sib bormoqda", "bozor tushdi", "iqtisodiyot tiklanmoqda" kabi iboralar orqali namoyon bo‘ladi.

Modal semantika sohasida fon Vrigtning klassik tadqiqotlari [15] keyinchalik Lyons tomonidan epistemik va deontik modallikka bo‘linish asosida rivojlantirildi [9]. Epistemik modallik ma’lumot uzatuvchining axborotga bo‘lgan ishonch darajasini ifodalaydi ("ehtimol", "taxminan", "ma’lumotlarga ko‘ra"), deontik modallik esa majburiyat va ruxsat ma’nolarini o‘z ichiga oladi.

Konnotatsiya — so‘zning asosiy denotativ ma’nosidan tashqari qo‘shimcha hissiy-baholash qatlami — mediadiskursda alohida o‘rin tutadi. Jeofrey Lich konnotatsiyani "so‘zning ijtimoiy va affektiv uyg‘otmalar qatlami" sifatida ta’riflaydi [8:26]. Axborot qaydlarida konnotativ ma’no o‘quvchining voqeaga munosabatini belgilashda muhim kommunikativ vosita hisoblanadi.

Tahlil va muhokama. Komponent tahlil va semantik maydon metodini qo‘llash natijasida o'zbek tilidagi axborot qaydlarida beshta asosiy semantik maydon aniqlandi.

a) Harakatlar va hodisalar: amalga oshirildi, bo‘lib o‘tdi, kuchga kirdi,
b) imzolandi, tasdiqlandi;
c) Shaxslar va intuitsiyalar: vazir, hukumat, idora, delegatsiya, rahbar,
d) mansabdor shaxs;
e) Raqamlar va miqdorlar: foiz, million, milliard, ko‘rsatgich, statistika,
f) hajm;
g) Vaqt va makon: bugun, joriy, hozirgi, muddati, mintaqa, mahalliy,
h) xalqaro;
i) Kommunikatsiya va axborot: ma'lum qilindi, qayd etildi, bildirdi,
j) matbuot xizmati, manba.

Ushbu natijalar van Deyk tomonidan taklif qilingan yangilik diskursining tematik kategoriyalari bilan umumiy jihatdan mos keladi [14]. Biroq o‘zbek tilidagi axborot qaydlarida kommunikatsiya va axborot maydonining yuqori chastotasi o‘ziga xos xususiyat sifatida ko‘zga tashlanadi: bu maydon manbaga havola qilish va ma’lumotning rasmiy manbadan kelganligini ta’kidlash funksiyasini bajaradi, bu esa rasmiy xabar berish uslubiga xos xususiyat hisoblanadi.

Axborot qaydlarida nominallashtirish (nominalization) alohida semantik vosita sifatida ko‘zga tashlandi. O‘zbek tilidagi axborot qaydlarida uchraydigan tipik nominallashtirish konstruksiyalari: "qaror qabul qilish" (fe’l + ot), "bitimning imzolanishi" (ot + ravishdosh), "ko‘rsatkichlarning o‘sishi" (ot + otlashgan sifat), "muammo hal etilishi" kabilar. Ushbu konstruksiyalar bir necha semantik effektni birga ta’minlaydi:

a) Semantik zichlashuv — qisqa hajmda ko‘proq ma’lumot sig‘dirish;

b) Deagentivizatsiya — harakat qiluvchi shaxsni ikkinchi planga surib, harakat yoki natijani markazga qo‘yish;

c) Rasmiy uslub markeri — nominallashtirish rasmiy yozma nutq uslubiga aloqadorlikni signalizatsiya qiladi.

Ferklou “Til va kuch” ("Language and Power") asarida ta’kidlaganidek, nominallashtirish media matnlarida ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni "tabiiy narsa" sifatida taqdim etish vositasiga aylanishi mumkin [3:178].

Matnlardagi kontseptual metaforalar Lakof-Jonson tasnifiga asoslanib o‘rganilib, axborot qaydlarida:

a) Iqtisodiyot – tirik mavjudot: “iqtisodiyot o‘smoqda”, “bozor tushdi”,
b) “sarmoya nafas olmoqda”;
c) Siyosat – sport musobaqasi: “raqib kuchaydi”, “g‘alaba qozonildi”,
d) “jang davom etmoqda”;
e) Jarayon – harakat/yo‘l: “loyiha bosqichdan o‘tdi”, “yo‘l ochildi”,
f) “jarayon jadallashdi”;
g) Muammo – to‘siq/kasallik: “to‘siqlar bartaraf etildi”, “muammo
h) Chuqurlashdi”, “yechim topildi”.
i) kabilar uchradi.

Eng ko‘p tarqalgan jarayon — harakat/yo‘l metaforasi axborot qaydlarining dinamik, harakat-yo‘nalishli voqelikni ifodalash tendensiyasini ko‘rsatadi. Bu metafora orqali murakkab ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlar ko‘zga ko‘rinadigan, fazoviy tarzda tasavvur qilinadigan harakatlarga aylantiriladi.

Epistemik modallik tahlili axborot qaydlarida to‘rtta modal ma’no qatlami faolligini ko‘rsatdi:

1. Yuqori ishonchlilik qatlami: “tasdiqlandi”, “ma’lum qilindi”, “rasman e’lon qilindi” - ushbu qatlam ma’lumot manbasining ishonchliligiga ishora qiladi;

2. O‘rta ishonchlilik qatlami: “ma’lumotlarga ko‘ra”, “manbalarga qaraganda”, “xabar berilishicha” kabilar muallif ma’lumotlarga nisbatan qisman ishonchni ifodalaydi;

3. Past ishonchlilik qatlami: “taxmin qilinmoqda”, “ehtimol”, “kutilmoqda” kabilar kelajakdagi hodisalar yoki tasdiqlanmagan ma’lumotlarni ifodalashda qo‘llaniladi.

4. Deontik modallik qatlami: “amalga oshirilishi lozim”, “zarurdir”, “kerak bo‘ladi” asosan huquqiy va siyosiy mazmundagi axborot qaydlarida uchraydi.

Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek tilidagi axborot qaydlarida yuqori ishonchlilik markerlarining dominant bo‘lishi matnning "rasmiy tasdiqlash" kommunikativ maqsadini semantik sathda kuchli ifodalaydi. Palmer ta’kidlaganidek, epistemik modallik markerlari faqat grammatik kategoriya emas, "ma’lumotning epistemik manzilini ko‘rsatuvchi pragmatik signal" hisoblanadi [11:96].

Xulosa. Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, o‘zbek tildagi axborot qaydlarining semantic xususiyatlarini kompleks tahlil qilish orqali yuqorida sanab o‘tilgan beshta asosiy semantik maydon dominant mavqega ega bo‘lib, ularning stabil tarkibi axborot qaydi janrining semantik arxitekturasini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Nominallashtirish axborot qaydlarida uch asosiy funksiyani — semantik zichlashuv, deagentivizatsiya va rasmiy uslub markeri — birga bajaruvchi eng produktiv semantik mexanizm hisoblanadi. Kontseptual metaforalar va boshqa tropik vositalar axborot qaydlarida kognitiv soddalashtirish va obrazlilashtirish funksiyasini bajaradi, bu esa matnni professional o‘quvchidan ommaviy auditoriyaga moslashtirishning asosiy lingvistik mexanizmi hisoblanadi. Modal ma’no tahlili axborot qaydlarida yuqori ishonchlilik markerlarining dominant ekanligi “rasmiy tasdiqlash” kommunikativ maqsadini semantik sathda aks ettirishini ko‘rsatadi. Modal ma'no qatlamlari matn muallifi tomonidan ma’suliyatni taqsimlashning semantik strategiyasi sifatida ongli ravishda qo‘llaniladi. Ushbu xulosalar axborot qaydi semantikasini o‘rganishda sistemli-funksional yondashuvning samarali ekanligini ko‘rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bell, A. (1991). The Language of News Media. Oxford: Blackwell.
2. Cruse, D. A. (1986). Lexical Semantics. Cambridge: Cambridge University Press.
3. Fairclough, N. (1992). Language and Power (2nd ed.). London: Longman.

4. Fillmore, C. J. (1976). Frame Semantics and the Nature of Language. Annals of the New York Academy of Sciences, 280, 20–32.
5. Katz, J. J. & Fodor, J. A. (1963). The Structure of a Semantic Theory. Language, 39(2), 170–210.
6. Kövecses, Z. (2002). Metaphor: A Practical Introduction. Oxford: Oxford University Press.
7. Lakoff, G. & Johnson, M. (1980). Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press.
8. Leech, G. N. (1974). Semantics. Harmondsworth: Penguin.
9. Lyons, J. (1977). Semantics (Vols. 1–2). Cambridge: Cambridge University Press.
10. Lyons, J. (1995). Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge: Cambridge University Press.
11. Palmer, F. R. (1986). Mood and Modality. Cambridge: Cambridge University Press.
12. Rastier, F. (2001). Arts et sciences du texte. Paris: Presses Universitaires de France.
13. Trier, J. (1934). Das sprachliche Feld: Eine Auseinandersetzung. Neue Jahrbücher für Wissenschaft und Jugendbildung, 10, 428–449.
14. van Dijk, T. A. (1988). News as Discourse. Hillsdale, NJ: Lawrence Erlbaum Associates.
15. von Wright, G. H. (1951). An Essay in Modal Logic. Amsterdam: North-Holland.
16. Yunusova, M. T. (2021). O'zbek media matnlarining lingvopragmatik xususiyatlari. Samarqand: SamDU nashriyoti.

TRENINGLARNI TASHKIL ETISH METODIKASI VA BAHOLASH MEZONLARI

Murodova Mahbuba Farxod qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika mutaxassisligi magistratura yo'nalishi 1-kurs talabasi
Telefon raqami: +998 93 854 97 02

Annotatsiya. Ushbu tezisda trening mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning nazariy va amaliy asoslari, uning bosqichlari hamda natijadorligini baholash mezonlari keng yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlarning ahamiyati va baholash jarayonida zamonaviy yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: trening, metodika, interfaol metodlar, kompetensiya, baholash mezonlari, monitoring, refleksiya, pedagogik texnologiya.

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishi hamda kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan trening mashg‘ulotlari innovatsion pedagogik texnologiyalarning muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Treninglar an’anaviy darslardan farqli ravishda faol o‘qitish usullariga asoslanib, ishtirokchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli treninglarni ilmiy asoslangan metodika asosida tashkil etish hamda ularning samaradorligini aniq mezonlar orqali baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism: Treninglarni tashkil etishning metodik asoslari deganda, treningni samarali tashkil etish puxta rejalashtirish va tizimli yondashuvni talab etadi. Metodik jihatdan trening quyidagi asosiy tamoyillarga tayanadi:

- ❖ Faollik tamoyili – har bir ishtirokchining faol ishtirokini ta’minlash
- ❖ Amaliy yo‘naltirilganlik – nazariy bilimlarni real vaziyatlar bilan bog‘lash
- ❖ Hamkorlik – guruh ichida o‘zaro muloqot va tajriba almashish
- ❖ Refleksivlik – o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholash

Treningni tashkil etish bosqichlari

1-bosqich: Diagnostika va rejalashtirish - Bu bosqichda ishtirokchilarning ehtiyojlari, bilim darajasi va qiziqishlari aniqlanadi. Trening maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalar belgilanadi.

2-bosqich: Tashkiliy tayyorgarlik - Mashg‘ulot uchun zarur sharoitlar yaratiladi: o‘quv materiali, texnik vositalar, tarqatma materiallar tayyorlanadi. Trener o‘z faoliyatini rejalashtiradi.

3-bosqich: Treningni o‘tkazish (amaliy jarayon) - Bu bosqichda quyidagi interfaol metodlardan foydalaniladi:

- ✓ “Aqliy hujum” (brainstorming)
- ✓ Rolli o‘yinlar
- ✓ Case-study (muammoli vaziyatlar tahlili)
- ✓ Guruhli munozaralar
- ✓ “Insert”, “Cluster” kabi metodlar

Mazkur metodlar ishtirokchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ularni faol jalb etadi.

4-bosqich: Refleksiya va yakuniy tahlil - Trening yakunida ishtirokchilar o‘z fikr-mulohazalarini bildiradilar, o‘zlashtirilgan bilim va ko‘nikmalar tahlil qilinadi. Bu bosqich trening sifatini oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Trening samaradorligini baholash mezonlari

Trening natijadorligini aniqlash uchun quyidagi mezonlardan foydalaniladi:

- Kognitiv mezon – bilim darajasidagi o‘zgarishlar
- Amaliy mezon – olingan bilimlarni qo‘llash darajasi
- Motivatsion mezon – ishtirokchilarning qiziqishi va faolligi
- Kommunikativ mezon – muloqot va hamkorlik ko‘nikmalari
- Refleksiv mezon – o‘z faoliyatini baholay olish qobiliyati

Baholash usullari va vositalari. Trening samaradorligini baholashda turli metodlardan foydalaniladi:

- Test va so‘rovnomalar – bilim darajasini aniqlash
- Kuzatuv – ishtirokchilar faoliyatini baholash
- Suhbat va intervyu – chuqur tahlil qilish
- Amaliy topshiriqlar – ko‘nikmalarni aniqlash
- Feedback (qayta aloqa) – ishtirokchilarning fikrlarini olish
- Zamonaviy ta’limda raqamli vositalar (onlayn testlar, platformalar)dan foydalanish ham baholash samaradorligini oshiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, treninglarni samarali tashkil etish tizimli metodik yondashuvni talab etadi. Har bir bosqichni puxta rejalashtirish, interfaol metodlardan to‘g‘ri foydalanish va aniq baholash mezonlarini qo‘llash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Shuningdek, trening natijalarini muntazam monitoring qilish va tahlil etish kelgusida ta’lim jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Pedagogika nazariyasi (darslik)
2. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar – ilmiy maqolalar to‘plami
3. Trening va fasilitatsiya metodikasi bo‘yicha qo‘llanmalar
4. Interfaol ta’lim usullari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar
5. https://doi.org/10.5281/zenodo.17773658

STEAM ASOSIDAGI O‘QUV JARAYONINI LOYIHALASH VA MODELLASHTIRISH

Abdug‘afforova Mahbuba Sherzod qizi,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika mutaxassisligi magistratura yo’nalishi 1-kurs talabasi
Telefon raqami: +998 93 854 97 02

Annotatsiya. Mazkur tezisda STEAM asosidagi o‘quv jarayonini loyihalash va modellashtirish masalalari tahlil qilinadi. STEAM yondashuvi o‘quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish va fanlararo integratsiyani ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tezisda o‘quv jarayonini samarali tashkil etishning metodik asoslari va modellashtirish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: STEAM, loyihalash, modellashtirish, kreativ fikrlash, integratsiya, innovatsion ta’lim.

Kirish. Bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri – o‘quvchilarni zamonaviy jamiyat talablariga mos ravishda tayyorlashdir. An’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha nazariy bilim berishga yo‘naltirilgan bo‘lsa, STEAM yondashuvi o‘quvchilarning amaliy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

STEAM yondashuvi fan, texnologiya, muhandislik, san’at va matematikani integratsiyalash orqali o‘quvchilarda muammoli vaziyatlarni hal qilish, ijodiy yondashuv va innovatsion fikrlashni rivojlantiradi. Shu sababli, STEAM asosidagi o‘quv jarayonini to‘g‘ri loyihalash va modellashtirish dolzarb pedagogik masala hisoblanadi.

Tahliliy qism: STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics)[19] modeli ta’lim jarayonini integratsiyalashgan holda tashkil etishga qaratilgan yondashuv sanaladi. Ushbu yondashuvda o‘quvchilar nazariy bilimni tajriba, loyiha va tadqiqot faoliyati orqali mustahkamlaydi.

STEAM ta’limi – bu STEAM fanlarini o‘qitishning badiiy ko‘nikmalar, jumladan, ijodiy fikrlash va dizaynni ham o‘z ichiga oluvchi yondashuv hisoblanadi. STEAM atamasi “STEAM” so‘zining qisqartmasiga san’atni anglatadigan “A” (Art) harfi qo‘shilishi orqali hosil qilingan.[20]

STEAM dasturlarining maqsadi - o‘quvchilarga innovatsion fikrlashni, tanqidiy mulohaza yuritishni, real hayotdagi muammolarga texnologiyalardan ijodiy yondashuvda foydalanishni o‘rgatishdan iborat. Bunda o‘quvchilarning matematika va tabiiy fanlarga oid bilimlariga tayangan holda, ularni amaliyotda qo‘llashga urg‘u beriladi.

STEM ta’limi esa – bu fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik (Engineering) va matematika (Mathematics) fanlariga integratsiyalashgan va o‘zaro bog‘liq tarzda yondashishni nazarda tutadi. Keyinchalik bu tizimga san’at (Art) va o‘qish (Reading) elementlari qo‘shilib, u kengaytirilgan holda STEAM ta’limi deb yuritila boshlandi

[19] STEAM Rising: Why we need to put the arts into STEM education education“

[20] Jolly, Anne (18 November 2014). "STEM vs. STEAM: Do the Arts Belong?". Teacher (Education Week: Teacher).

STEAM asosidagi o‘quv jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- ✓ Maqsadni aniqlash (kompetensiyalarni belgilash)
- ✓ Mazmunni tanlash (fanlararo integratsiya)
- ✓ Metodlarni belgilash (interaktiv va loyiha asosida o‘qitish)
- ✓ Natijalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish

Ta’lim jarayonida qo‘llash esa STEAM yondashuvini samarali tashkil etish uchun quyidagi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

- ✓ loyiha metodi;
- ✓ gamifikatsiya;
- ✓ laboratoriya ishlari;
- ✓ dizayn fikrlash;
- ✓ muammoli topshiriqlar;
- ✓ jamoaviy faoliyat.

Bu metodlar o‘quvchilarning qiziqishini oshirishi bilan bir qatorda ijodiy salohiyatini ham ochib beradi.

Natijalar va muhokama. Tadqiqot natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi:

- ➢ Birinchidan, STEAM asosidagi darslar o‘quvchilarning bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishiga yordam berdi.
- ➢ Ikkinchidan, o‘quvchilarda kreativ fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko‘nikmalari rivojlandi.
- ➢ Uchinchidan, jamoaviy ishlash va kommunikativ kompetensiyalar sezilarli darajada oshdi.
- ➢ To‘rtinchidan, o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasi kuchaydi.

Muhokama: STEAM asosidagi o‘quv jarayonini modellashtirish quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi:

1) Didaktik model - O‘quv jarayonining maqsad, mazmun, metod va natijalari o‘zaro uyg‘un holda tashkil etiladi.
2) Loyiha asosida o‘qitish (Project-Based Learning) - O‘quvchilar real hayotiy muammolarni hal qilish orqali bilimlarni egallaydi.
3) Raqamli texnologiyalar integratsiyasi - Simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar o‘quv jarayonini boyitadi.
4) Kreativ va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - O‘quvchilar mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishni o‘rganadi.
5) Baholash tizimi - An’anaviy baholashdan tashqari, loyiha natijalari, jarayon va ijodkorlik ham hisobga olinadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, STEAM asosidagi o‘quv jarayonini loyihalash va modellashtirish zamonaviy ta’limning samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki ularning kreativ, tanqidiy va amaliy fikrlash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi. Kelgusida STEAM yondashuvini ta’lim tizimiga keng joriy etish, o‘qituvchilarni maxsus tayyorlash va metodik ta’minotni kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yakman G. STEAM Education framework.
2. OECD. Future of Education and Skills 2030.
3. STEAM Education Framework, 2008.
4. . STEM/STEAM Education Reports, 2015.
5. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar to‘plami. – Toshkent, 2023.
6. STEAM Rising: Why we need to put the arts into STEM education education“
7. Jolly, Anne (18 November 2014). "STEM vs. STEAM: Do the Arts Belong?". Teacher (Education Week: Teacher).
8. https://doi.org/10.5281/zenodo.17773658.

LUG‘AT BOYLIGINI OSHIRISH VA GRAMMATIK KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI GAMIFIKATSIYA VOSITALARI (KAHOOT, QUIZIZZ, WORDWALL)

Ismatova Saida Toshmuradovna,
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
Pedagogika mutaxassisligi magistratura yo’nalishi 1-kurs talabasi
E-mail: toshmuradovnasaida@gmail.com
https://orcid.org/0009-0005-0723-6758

Annotatsiya: Ushbu tezisda o‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish hamda grammatik ko‘nikmalarini shakllantirishda raqamli gamifikatsiya vositalarining o‘rni va samaradorligi tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida Kahoot, Quizizz va Wordwall kabi platformalarning qo‘llanilishi o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, bilimlarni mustahkamlash va interaktiv o‘rganish muhitini yaratishda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: gamifikatsiya, lug‘at boyligi, grammatika, raqamli ta’lim, interaktiv metodlar, motivatsiya, til kompetensiyasi.

Kirish qism: Ingliz tili zamonaviy rivojlanishning ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat kadrlar tayyorlashda, balki global muloqot va madaniyatlararo aloqalarda ham muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ko‘plab o‘quvchilar uchun ingliz tilini o‘rganish

jarayoni zerikarli va murakkab bo‘lishi mumkin. Ushbu muammoni hal etishda samarali usullardan biri gamifikatsiyadir.

Gamifikatsiya[21] — ta’lim jarayoniga o‘yin elementlarini qo‘shish orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish va darsni interaktiv qilish imkonini beradi. O‘yindagi elementlar (mukofotlar, raqobat, jamoaviy o‘yinchilik va boshqalar) darsga yangi energiya olib keladi va o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Natijada, bu nafaqat darsni qiziqarli qiladi, balki o‘quvchilarning til ko‘nikmalarini va kompetensiyasini samarali ravishda oshirishga yordam beradi.

An’anaviy dars usullari ko‘pincha o‘quvchilarni zeriktiradi va passiv ishtirokni keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, bilimlarni uzoq muddat saqlashga yetarli ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu sababli gamifikatsiya — ya’ni o‘yin elementlarini ta’limga integratsiya qilish — dolzarb pedagogik yondashuv sifatida keng qo‘llanilmoqda.

Nazariy asoslar. Gamifikatsiya tushunchasi ta’limga psixologik va pedagogik jihatdan asoslangan. U quyidagi nazariyalarga tayanadi:

- Motivatsiya nazariyasi (Deci va Ryan) — ichki va tashqi rag‘bat orqali o‘rganish samaradorligini oshiradi;
- Konstruktivizm — o‘quvchi bilimni faol quradi;
- Kommunikativ yondashuv — tilni real vaziyatlarda qo‘llashni ta’minlaydi.

Gamifikatsiyaning asosiy elementlari: ball tizimi, reyting va liderlar jadvali, mukofotlar hamda vaqt bilan cheklangan topshiriqlar hisoblanadi.

Asosiy qism: Lug‘at boyligini oshirishda gamifikatsiya vositalaridan biri Kahoot platformasi bo’lib, u orqali tezkor viktorinalar yordamida yangi so‘zlar o‘rganiladi va vizual (rasm, video) elementlar orqali eslab qolish osonlashadi eng asosiysi esa o‘quvchilar raqobat asosida faol qatnashadi.

Yana bir platforma bu Quizizz bolkib, unda mustaqil ishlash imkonini berishi bilan birga uy vazifasi sifatida qo‘llanilishi mumkin va natijalarni avtomatik tahlil qiladi.

Qiziq platformadan yana biri Wordwall, bu platforma “matching”, “random wheel”, “fill in the blanks” kabi o‘yinlar orqali lug‘atni mustahkamlaydi va o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashadi. Natijada o‘quvchilar yangi so‘zlarni tezroq o‘zlashtiradi hamda ularni nutqda qo‘llay boshlaydi va eng asosiysi uzoq muddatli xotirada saqlaydi.

Grammatik ko‘nikmalarni shakllantirish

[21] Kapp, K. M. (2012). “Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education”. John Wiley & Sons.

Gamifikatsiya vositalari grammatikani o‘rganishda quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- ❖ qoidalarni o‘yin shaklida o‘zlashtirish;
- ❖ ko‘p martalik takrorlash orqali mustahkamlash;
- ❖ xatolar ustida ishlashni qiziqarli qilish.

Misollar: zamonlarni o‘rganishda test o‘yinlari; gap tuzish mashqlari; noto‘g‘ri gapni tuzatish topshiriqlari.

Bu jarayon grammatik aniqlikni oshiradi va nutqiy kompetensiyani mustahkamlaydi, o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantiradi.

Tajriba natijalari shuni ko‘rsatadiki, lug‘at o‘zlashtirish darajasi sezilarli oshadi, grammatik xatolar kamayadi va o‘quvchilarning darsdagi faolligi ortadi, bilimlarni eslab qolish muddati uzayadi.

Amaliy tavsiyalar: O‘qituvchilar uchun:

1) Platformalarni dars maqsadiga mos tanlash;
2) O‘yinlarni haddan tashqari ko‘p ishlatmaslik (me’yorni saqlash);
3) O‘quvchilarning yosh va darajasini hisobga olish;
4) Natijalarni tahlil qilib borish;
5) Rag‘batlantirish tizimini joriy etish.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, raqamli gamifikatsiya vositalari lug‘at boyligini oshirish va grammatik ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali innovatsion vosita hisoblanadi. Kahoot, Quizizz va Wordwall platformalari orqali o‘quv jarayoni interaktiv, qiziqarli va samarali tashkil etiladi. Ular:

- ta’lim sifatini oshiradi,
- o‘quvchilarning motivatsiyasini kuchaytiradi,
- til kompetensiyasini kompleks rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., & Nacke, L. (2011). “From Game Design Elements to Gamefulness: defining “Gamification””. Proceedings of the 15th international academic MindTrek conference: Envisioning future media environments.
2. Kapp, K. M. (2012). “Gamification of Learning and Instruction: Game-Based Methods and Strategies for Training and Education”. John Wiley & Sons.
3. Deterding, S. Gamification in Education.
4. Harmer, J. How to Teach English.
5. Deci, E., Ryan, R. Motivation Theory.
6. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy maqolalar.
7. https://doi.org/10.5281/zenodo.17773658
8. https://gisconf.com/index.php/GTERD/article/view/2704

SHORT-TERM LOAD FORECASTING FOR A UNIVERSITY LOCAL POWER NETWORK

H.M.Valijonova,
National Research University "TIIAME", Tashkent, Uzbekistan

Abstract. The accuracy of an optimization-based energy management system (EMS) is bounded by its input forecasts. This paper develops a short-term load forecasting (STLF) module for a renewable-energy-based local power network using one year of 15-minute smart-meter data (~35,000 observations) from a 30 kW PV-equipped university building. Seven methods are compared; the Random Forest (RF) model is selected, achieving RMSE = 1.9 kW and MAPE = 7.2% with 0.3 s inference on an embedded controller. Within a receding-horizon MILP EMS, RF forecasts recover about 88% of the perfect-information savings, while a naive baseline raises annual cost by 25%.

Keywords: short-term load forecasting; Random Forest; local power network; energy management system; photovoltaic generation; feature engineering.

1. Introduction

The integration of variable renewable generation into distribution-level local power networks has made the temporal balancing of generation and demand a central engineering problem [2, 3]. In a grid-connected building with on-site photovoltaic (PV) generation, the midday solar peak rarely coincides with the morning and evening demand peaks, producing surplus-export and peak-import events within the same day [5, 6]. Optimization-based EMS resolve this mismatch by scheduling flexible loads and storage, but their effectiveness depends critically on forecast quality [1]. Short-term load forecasting (STLF) provides the information foundation for real-time scheduling [7]. This study develops STLF for Building No. 3 of Namangan State Technical University (NSTU), equipped with a 30 kW PV system and 15-minute metering [4], seeking a method that is accurate yet deployable on embedded EMS hardware [8].

2. Methodology

The model uses one academic year (2022–2023) of measurements (~35,040 intervals): main-incomer load, PV output (resampled to 15 min), HVAC and lighting sub-meters, ambient temperature, and calendar flags; 0.8% missing data were interpolated. Time variables were encoded trigonometrically, and the lag-96 load, a rolling 7-day mean, and calendar indicators were added as features. Seven methods were trained and evaluated on a held-out 8-week test set using RMSE, MAE, and the mean absolute percentage error (MAPE):

$$MAPE = (100/N)\cdot\Sigma\ |P_load(k) - P_load(k)|\ /\ P_load(k) \qquad (1)$$

Table 1. Forecasting-method comparison on the NSTU test dataset

Method	RMSE	MAE	MAPE %	Suitability for 15-min EMS
Naive (last week)	3.8	2.9	14.2	Fallback only
Linear regression	3.1	2.3	11.8	Limited nonlinearity
SARIMA	2.7	2.0	10.1	Calendar-sensitive
Random Forest (RF)	1.9	1.4	7.2	Selected: accurate, fast
XGBoost	1.7	1.3	6.5	Higher tuning cost
LSTM	1.8	1.4	6.9	Heavy for embedded
Hybrid RF+SARIMA	1.5	1.1	5.8	Best; sensitivity only

The RF model was selected for its balance of accuracy (MAPE 7.2%), speed (~0.3 s per 24-hour forecast on an ARM controller), and interpretability; its dominant predictors are the lag-96 load, day type, academic calendar, and temperature [1]. XGBoost and the hybrid model give marginally lower error but at higher computational cost (Fig. 1).




Fig. 1. RF forecast vs. measured load with ±RMSE band and residuals

3. Results and Discussion

The RF forecast tracks the measured load closely, with residuals concentrated in the morning ramp (Fig. 1); its MAPE of 7.2% is 52% better than the naive baseline (14.2%). Forecast accuracy was linked to EMS cost through the optimizer's dual variables: each 1 percentage-point improvement in MAPE yields about 0.8–1.2% additional cost saving, and at 7.2% MAPE the EMS recovers roughly 88% of the perfect-information savings [1]. Substituting the naive baseline raises the simulated daily cost from 1.05 to 1.31 USD (+25%), confirming that forecasting is a core EMS component rather than an optional refinement (Fig. 2).




Fig. 2. Sensitivity of annual cost saving to storage capacity and forecasting accuracy

4. Conclusion

Among seven candidates, the Random Forest model offered the best balance of accuracy, efficiency, and interpretability (RMSE 1.9 kW, MAPE 7.2%), 52% better than the naive baseline. Integrated into a receding-horizon EMS, it recovered about 88% of the perfect-information savings, whereas the naive baseline raised annual cost by 25%. An interpretable, embeddable RF forecaster is therefore sufficient for institutional local-network energy management, and forecast accuracy should be treated as a primary design parameter.

References

1. Sehar F., Pipattanasomporn M., Rahman S. An energy management model to study energy and peak power savings from PV and storage in demand responsive buildings // Applied Energy. 2018. Vol. 215. P. 123–134.
2. International Energy Agency (IEA). World Energy Outlook 2023. Paris: IEA; 2023.
3. IRENA. Renewable Power Generation Costs in 2023. Abu Dhabi: IRENA; 2024.
4. World Bank. Uzbekistan Energy Sector Review: Scaling Up Renewable Energy. Washington, D.C.: World Bank; 2022.
5. IEEE Standard 1547-2018. Interconnection and Interoperability of Distributed Energy Resources with Associated Electric Power Systems Interfaces. IEEE; 2018.
6. Eftekharnejad S., Vittal V., Heydt G.T., Keel B., Loehr J. Impact of increased penetration of photovoltaic generation on power systems // IEEE Trans. Power Syst. 2013. Vol. 28(2). P. 893–901.
7. IEA. Electricity Market Report 2024. Paris: IEA; 2024.
8. U.S. Department of Energy. The Smart Grid: An Introduction. Washington, D.C.: US DOE; 2008.

MATEMATIKA YO‘NALISHI TALABALARINI O‘QITISHDA DASTURIY TA’MINOTLARDAN FOYDALANISH

O.U.Axmedov
FarDTU “Oliy matematika” kafedrasi o’qituvchisi
B.A.Mashrabov
FarDTU Dastur injenering yo’nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Maqolada matematika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda zamonaviy dasturiy ta’minotlardan foydalanishning ilmiy-metodik ahamiyati yoritiladi. Dasturiy vositalar matematik tushunchalarni vizuallashtirish, hisoblash jarayonlarini modellashtirish, mustaqil ta’limni tashkil etish hamda talabalarda amaliy va raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish vositasi sifatida tahlil qilinadi. GeoGebra, Maple, MATLAB, Python, Mathematica, Mathcad va LaTeX dasturlarining ta’lim jarayonidagi imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: matematika ta’limi, dasturiy ta’minot, raqamli texnologiya, GeoGebra, Maple, MATLAB, Python, LaTeX, vizuallashtirish, matematik modellashtirish, kompetensiya.

KIRISH

Zamonaviy oliy ta’limda matematika yo‘nalishi talabalarini tayyorlash jarayoni nazariy bilimlarni berish bilan birga, amaliy hisoblash, modellashtirish, algoritmik fikrlash va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishni ham talab etadi. Matematika fanlari o‘z mohiyatiga ko‘ra abstrakt tushunchalarga boy bo‘lgani sababli ularni faqat an’anaviy usullar bilan o‘qitish ayrim hollarda yetarli natija bermaydi. Shu bois ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va mustaqil ta’lim jarayoniga dasturiy ta’minotlarni kiritish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Dasturiy vositalar yordamida funksiya grafigi, fazoviy sirtlar, matritsalar, differensial tenglamalar yechimlari, statistik taqsimotlar va optimallashtirish jarayonlarini ko‘rgazmali tarzda tushuntirish mumkin. Bunday yondashuv talabaning mavzuni faqat eshitib yoki yozib olishini emas, balki uni ko‘rishi, tajriba qilishi, natijani tekshirishi va mustaqil xulosa chiqarishini ta’minlaydi.

DASTURIY TA’MINOTLARNING DIDAKTIK AHAMIYATI

Matematika ta’limida dasturiy ta’minotlarning asosiy didaktik vazifasi abstrakt tushunchalarni ko‘rgazmali, interaktiv va amaliy shaklda ifodalashdan iborat. Masalan, analitik geometriyada fazodagi tekisliklar va sirtlarni uch o‘lchamli ko‘rinishda tasvirlash talabaga obyektlarning o‘zaro joylashuvini aniqroq anglash imkonini beradi. Matematik analizda hosila va integralning geometrik mazmuni dinamik grafiklar orqali tushuntirilsa, mavzuning mohiyati ravshanlashadi.

Dasturiy vositalar o‘qituvchi va talaba faoliyatiga birdek ta’sir ko‘rsatadi. O‘qituvchi murakkab mavzuni qisqa vaqt ichida ko‘rgazmali tarzda bayon qilishi, bir masalaning turli parametrlar ostidagi natijasini ko‘rsatishi mumkin. Talaba esa masalani mustaqil bajaradi, natijani dastur yordamida tekshiradi, xatoliklarni tahlil qiladi va nazariy bilimni amaliy jarayon bilan bog‘laydi. Shu jihatdan dasturiy ta’minotlar ta’lim jarayonida faollik, mustaqillik va ijodkorlikni kuchaytiradi.

ASOSIY DASTURIY VOSITALAR VA ULARNING IMKONIYATLARI

Matematika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda turli dasturiy vositalardan foydalanish mumkin. GeoGebra geometriya, algebra va matematik analiz mavzularini interaktiv o‘rganishda qulay dastur hisoblanadi. Uning yordamida nuqta, vektor, to‘g‘ri chiziq, aylana, konus kesimlari, funksiya grafigi, hosila va integralning geometrik talqinini ko‘rsatish mumkin. Ayniqsa parametrli obyektlarni o‘zgartirib kuzatish talabalarda matematik bog‘lanishlarni mustaqil anglashga yordam beradi.

Maple, Mathematica va Mathcad kabi kompyuter algebra tizimlari algebraik ifodalarni soddalashtirish, tenglama va tengsizliklarni yechish, limit, hosila, integral, qatorlar, differensial tenglamalar va matritsalar ustida amallar bajarishda qo‘llaniladi. Bu dasturlar murakkab hisoblashlarni tez bajarish imkonini bersa-da, ularni nazariy bilim o‘rnini bosuvchi vosita sifatida emas, balki bilimni tekshirish va chuqurlashtirish vositasi sifatida ishlatish maqsadga muvofiqdir.

MATLAB va Python muhiti sonli usullar, chiziqli algebra, differensial tenglamalar, optimallashtirish, ehtimollar nazariyasi va statistik tahlil masalalarida samarali qo‘llaniladi. Python tilidagi NumPy, SymPy, Matplotlib, SciPy va Pandas kutubxonalari talabada algoritmik fikrlash, dasturlash madaniyati va ilmiy hisoblash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. LaTeX esa ilmiy maqola, bitiruv malakaviy ishi, taqdimot va o‘quv materiallarini sifatli rasmiylashtirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

DARS JARAYONIDA QO‘LLASH METODIKASI

Dasturiy ta’minotlarni dars jarayoniga kiritishda avvalo mavzuning o‘quv maqsadi aniqlanishi lozim. Har bir dastur muayyan didaktik vazifa bilan bog‘lanishi kerak. Masalan, matematik analizda funksiya grafigining o‘zgarishini ko‘rsatish uchun GeoGebra yoki Python, chiziqli algebrada matritsa va xos qiymatlarni hisoblash uchun MATLAB yoki Python, differensial tenglamalarda integral chiziqlarni qurish uchun Maple yoki MATLABdan foydalanish mumkin.

Bunday mashg‘ulotni uch bosqichda tashkil etish samarali hisoblanadi. Birinchi bosqichda o‘qituvchi nazariy tushuncha, ta’rif yoki teoremani izohlaydi.

Ikkinchi bosqichda dasturiy vosita yordamida mazkur tushunchaning grafik, hisoblash yoki modellashtirish ko‘rinishi namoyish etiladi. Uchinchi bosqichda talabalar mustaqil topshiriq bajaradi, natijani tahlil qiladi va xulosa yozadi. Bu ketma-ketlik nazariya, amaliyot va raqamli texnologiyani uzviy bog‘laydi.

Masalan, differensial tenglamalar kursida yechimni analitik topish bilan birga, uning grafigi yoki fazaviy portretini Python yordamida qurish mumkin. Ehtimollar nazariyasi va matematik statistikada real ma’lumotlar asosida gistogramma, regressiya chizig‘i va korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblash talabalarning amaliy qiziqishini oshiradi.

KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDAGI O‘RNI

Dasturiy ta’minotlardan foydalanish talabalarda bir necha muhim kompetensiyalarni shakllantiradi. Birinchidan, matematik kompetensiya rivojlanadi: talaba formulalarning mazmunini ko‘radi, natijalarni taqqoslaydi va ularni izohlaydi. Ikkinchidan, raqamli kompetensiya shakllanadi: talaba dasturlar bilan ishlash, elektron resurslardan foydalanish, ma’lumotlarni qayta ishlash va natijani vizual taqdim etishni o‘rganadi.

Uchinchidan, algoritmik tafakkur kuchayadi. Dasturlash muhitida ishlash jarayonida talaba masalani bosqichma-bosqich tahlil qiladi, algoritm tuzadi, kod yozadi, xatolikni aniqlaydi va natijani tekshiradi. To‘rtinchidan, tadqiqotchilik kompetensiyasi rivojlanadi. Talaba dastur yordamida matematik tajriba o‘tkazadi, gipoteza ilgari suradi va ilmiy asoslangan xulosa chiqaradi.

AMALIY TAVSIYALAR

Matematika yo‘nalishida dasturiy ta’minotlardan foydalanish samarali bo‘lishi uchun fanlar kesimida maxsus topshiriqlar bankini shakllantirish zarur. Analitik geometriya uchun 3D grafik topshiriqlar, matematik analiz uchun funksiyalarni vizual tahlil qilish, ehtimollar nazariyasi uchun statistik modellashtirish, differensial tenglamalar uchun sonli yechim va fazaviy portretlar, chiziqli algebra uchun matritsalar ustida kompyuter hisoblash ishlari ishlab chiqilishi mumkin.

Shuningdek, dasturiy vositalar mustaqil ta’lim topshiriqlari bilan bog‘lanishi lozim. Talaba darsda o‘rganilgan mavzuni kompyuterda bajarib, qisqa hisobot tayyorlashi, grafik yoki jadvalni izohlashi, natijani nazariy yechim bilan solishtirishi kerak. Bunda dastur nazariy bilim o‘rnini bosmasligi, balki uni tushuntirish, mustahkamlash va tekshirish vositasi bo‘lishi zarur.

FANLAR KESIMIDA DASTURIY TA’MINOTLARDAN FOYDALANISH NAMUNASI

Fan yoki mavzu	Tavsiya etiladigan dastur	Didaktik maqsad
Analitik geometriya	GeoGebra 3D, Maple	Fazoviy obyektlarni vizual tahlil qilish
Matematik analiz	GeoGebra, Python	Funksiya, hosila va integralni grafik talqin qilish
Chiziqli algebra	MATLAB, Python	Matritsa, determinant va xos qiymatlarni hisoblash
Differensial tenglamalar	MATLAB, Maple	Analitik va sonli yechimlarni solishtirish
Statistika	Python, Excel, R	Ma’lumotlarni qayta ishlash va grafik tahlil qilish
Ilmiy yozuv	LaTeX, Word	Formula va bibliografiyani to‘g‘ri rasmiylashtirish

XULOSA

Matematika yo‘nalishi talabalarini o‘qitishda dasturiy ta’minotlardan foydalanish zamonaviy ta’limning muhim talablaridan biridir. Raqamli vositalar matematik tushunchalarni vizuallashtirish, murakkab hisoblashlarni avtomatlashtirish, nazariy bilimlarni amaliy masalalar bilan bog‘lash va talabalarda mustaqil tadqiqot olib borish ko‘nikmalarini shakllantirish imkonini beradi.

Dasturiy ta’minotlardan foydalanish an’anaviy o‘qitish metodlarini inkor etmaydi, balki ularni boyitadi. O‘qituvchi nazariy bilim, metodik yondashuv va raqamli texnologiyani yagona tizim sifatida tashkil etsa, talabalarda matematik tafakkur, algoritmik fikrlash, raqamli savodxonlik va ilmiy-amaliy kompetensiyalar izchil rivojlanadi. Shu sababli dasturiy vositalarni o‘quv reja, fan dasturlari, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim topshiriqlariga tizimli integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mayer R. E. Multimedia Learning. Cambridge University Press, 2020.

2. Polya G. How to Solve It: A New Aspect of Mathematical Method. Princeton University Press, 2004.
3. Borwein J., Bailey D. Mathematics by Experiment: Plausible Reasoning in the 21st Century. A K Peters, 2004.
4. Higham D. J., Higham N. J. MATLAB Guide. SIAM, 2017.
5. Grätzer G. More Math Into LaTeX. Springer, 2016.
6. Strang G. Introduction to Linear Algebra. Wellesley-Cambridge Press, 2016.
7. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish bo‘yicha me’yoriy-huquqiy hujjatlar va metodik tavsiyalar.

TALABA SHAXSINI KAMOL TOPTIRISHDA PEDAGOGIK ETIKANING AHAMIYATI

Djumanqulov Azamat Abdurahimovich
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrasi o'qituvchisi, p.f.b.f.d.(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada talaba shaxsini har tomonlama kamol toptirishda pedagogik etikaning o'rni va ahamiyati tahlil qilingan. Oliy ta'lim tizimida pedagog va talaba o'rtasidagi munosabatlarning axloqiy asoslari, pedagogning kasbiy fazilatlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonidagi mas'uliyati yoritilgan. Shuningdek, pedagogik etikaning asosiy tamoyillari, jumladan, adolat, hurmat, bag'rikenglik, kasbiy kompetensiya va mas'uliyat kabi jihatlarning talaba shaxsining ma'naviy-axloqiy kamolotiga ta'siri ochib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, pedagogik etikaga rioya etish ta'lim sifati va talabalar tarbiyasini yuksaltirishning muhim omili hisoblanadi.

Kalit so'zlar: pedagogik etika, talaba shaxsi, oliy ta'lim, ta'lim-tarbiya, axloqiy qadriyatlar, kasbiy kompetensiya, pedagogik madaniyat, pedagog mas'uliyati, ma'naviy kamolot, ta'lim sifati.

Bugungi kunda oliy ta'limning sifatini oshirishga intilish, integratsiyalashayotgan mintaqalar uchun ta'lim dasturlari va andazalarini birxillashtirish, "butun umr mobaynida uzluksiz ta'lim" strategiyasini amalga oshirish muhim pirovard maqsadga aylanib bormoqda. Jumladan, respublikada amalga oshirilayotgan ta'lim bazasini takomillashtirish bo'yicha bir necha yil ilgari boshlangan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"ga muvofiq sotsialistik tuzum yillarida shakllangan professional kadrlar tayyorlash tizimidan voz kechib, uni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy yo'lga burish bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda hamda yanada takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Barchamizga ma'lumki, uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillarida ta'limning milliy yo'naltirilganligi, har tomonlama kamol topgan, ma'naviy boy shaxsni tarbiyalashga alohida e'tibor berilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan murakkab va keng ko'lamli vazifalarning muvaffaqiyatli hal etilayotgani ijtimoiy-falsafiy tadqiqotlar sohasidagi muammolarni o'z vaqtida tadqiq etishni ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, axloq muammolarining ilmiy-falsafiy konsepsiyasini yaratish alohida zarurat sifatida maydonga chiqadi.

Talabalarning ta'lim-tarbiyasida o'qituvchining axloqiy fazilatlari ham muhim ahamiyatga ega. Bizningcha, pedagog va talabalar o'rtasida munosabatlardagi axloqiy tamoyillar quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- *ta’lim va tarbiya faoliyati boshidan to oxirgi bosqichgacha mehr-muhabbat va hurmatga asoslanishi*. Pedagog har qanday darajadagi farq yoki kamchilikdan qat’iy nazar, barcha talabalarga hurmat bilan qarashi lozim;
- *yaxshi namuna o‘rnatish*. Pedagog o‘zining so‘zi, xulq-atvori, xatti-harakati va tashqi ko‘rinishi bilan talabalarga o‘rnak bo‘lishi, o‘z bilimi bilan talabalarda bilim olishga intilish va qat’iyatni uyg‘otishi lozim;
- *tushunish va bag‘rikenglik*. Pedagog xarakteri va qobiliyatiga ko‘ra bir-biridan farq qiladigan barcha talabalarni boshqalar kabi tushunishi va bag‘rikenglik bilan yondashishi, zarurat bo‘lganda talaba haqida olingan ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlashi kerak bo‘ladi;
- *teng va adolatli muomala*. Pedagog o‘z kasbi bilan shug‘ullanayotganda, birinchi navbatda, inson huquqlarini hurmat qilgan holda, u talabalarga irqi, tili, dini, siyosiy qarashlari va oilaviy ahvolidan qat’iy nazar, adolatli va teng munosabatda bo‘lishi kerak. Bu talabalarga ta’lim imkoniyatlaridan adolatli foydalanish huquqini beradi va ularning darsga yaxshi tayyorgarlik ko‘rishini ta’minlaydi;
- *talabalarning rivojlanishini nazorat qilish*. Pedagog talabalarning jismoniy, hissiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy rivojlanishini kuzatadi va shunga mos ravishda o‘z talabalari bilan samimiy va ishonchga asoslangan muloqot o‘rnatadi. Darslarda talabalarning o‘zini qulay his etishi ularni darsda faol qatnashishga undaydi. Jismonan va ma’nan sog‘lom, go‘zal axloqli, o‘ziga ishongan, mas’uliyatli shaxsni tarbiyalash uchun zarur sa’y-harakatlarni amalga oshiradi;
- *salbiy psixologik holatlarni aks ettirmaslik*. Pedagog talabalar bilan munosabatda shaxsiy, oilaviy va boshqa sabablarga ko‘ra o’z muammolarini aks ettirmasligi kerak;
- *suiiste’moldan qochish*. Pedagog talabaning jismoniy va ruhiy salomatligiga, fiziologik va ijtimoiy rivojlanishiga hamda ta’lim olishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan harakatlarga yo’l qo’ymaydi. Talabaga muassasa ichida va tashqarisida xavf bo‘lganini payqagach, zarur choralarni ko‘radi va vaziyatni mutasaddilarga xabar qiladi.

Ta’limni kasbga doir axloqiy tamoyillarini amaliy jihatlari quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

- *kasbiy kompetensiya.* Pedagog o’zini hurmatli va sharafli kasb egasi ekanligini anglagan holda harakat qilishi lozim. O‘z burchini talab qiladigan bilim, malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish uchun har qanday ma’lumot, ilmiy va texnologik ishlanmalarni kuzatib, o‘z rivojlanishini davom ettiradi. Ishini yoqtirmagandek taassurot qoldiradigan xatti-harakatlardan qochadi;

- *sog‘lom va xavfsiz ta’lim muhitini ta’minlash.* Pedagog ta’lim va tarbiya muhitida talabalarning salomatligi va xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo‘lgan barcha turdagi elementlarni bartaraf etish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajaradi, ta’lim va tarbiyaning xavfsiz va tartibli o‘tkazilishini ta’minlaydi;
- *ish va auditoriya soatlariga rioya qilish.* Pedagog ish vaqti va auditoriya soatlariga puxta rioya qiladi. Darsga kech kirish, darsni erta tark etish yoki boshqa sabablar bilan dars jarayonini to‘xtatib qo‘ymaydi. Dars vaqtidan unumli foydalanadi;
- *sovg‘a olish.* Pedagog o‘zining kasbiy qaroriga va xolisligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan har qanday sovg‘ani qabul qilmaydi, “O‘qituvchi va murabbiylar kuni” kabi maxsus kunlarda beriladigan nomoddiy ramziy sovg‘alar bundan mustasno;
- *shaxsiy imtiyozlarni taqdim etish.* Pedagog o‘zining kasbiy ta’siridan foydalanib shaxsiy manfaat ko‘rmaydi. Muassasa resurslari, tehnik-uskunalari va jihozlaridan shaxsiy maqsadlarda foydalanmaydi. Qo‘shimcha darsliklar va boshqa vositalar faqat talabalarning rivojlanishini kuzatish uchun tavsiya etiladi. Bundan boshqa har qanday sababga ko‘ra, u foyda uchun so‘rov va yo‘nalishlardan qochadi;
- *xususiy repetitorlik.* Pedagog talabalarga shaxsiy manfaatga asoslangan pullik yoki boshqa imtiyozlar evaziga dars o‘tmaydi, qonuniy istisnolar bundan mustasno.

Jamiyat hayotida o‘z ifodasini topgan sifat o‘zgarishlari, yangilanishlar, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar o‘qituvchilarni o‘z faoliyatiga tanqidiy qarashga undaydi. Zero, talabalarning bilimi, tarbiyasi, dunyoqarashi o‘qituvchining harakati, bilimi, ibrati orqali shakllanadi. Bunday og‘ir va mas’uliyatli muammolarni hal etish o‘qituvchilarga katta vazifalarni yuklaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Рисқиев.Т. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари фалсафий ва тарихий илдизлари. – Тошкент: 2002

2. Кузьмина Л.Н. Курс этики как основа духовного и нравственного становления личности: На примере преподавания в общеобразовательной школе по экспериментальной авторской программе : диссертация ... кандидата педагогических наук . - Москва, 2002. - 198 с.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son. https://lex.uz

4. Mirziyoev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O‘zbekiston. – Toshkent.: O‘zbekiston, 2024.
5. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -Toshkent: O‘zbekiston, 2021

ANDALUSIYA DAVLATCHILIGINING TARIXIY ILDIZLARI: TARTESSOSDAN AL-ANDALUS INQIROZIGACHA

Ashurova Xurshida Sag‘dullaevna
SamDCHTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasi v.b. professori
xurshidashurova01@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Andalusiya mintaqasining qadimgi davrlardan to Al-Andalus xalifaligining qulashigacha bo‘lgan davrdagi ijtimoiy-siyosiy va davlatchilik tarixi tahlil qilinadi. Rasmiy tarixshunoslikdagi an’anaviy qarashlardan farqli o‘laroq, maqolada Andalusiyaning ilk mustaqil davlati bo‘lmish Tartessos sivilizatsiyasi, Rim va Vizigotlar davridagi madaniy o‘ziga xoslik hamda islom sivilizatsiyasining mintaqaga kirib kelishi “arab bosqini” emas, balki chuqur madaniy va mafkuraviy inqilob sifatida ilmiy asoslanadi.

Kalit so‘zlar: Andalusiya, Tartessos, Baetica, Vizigotlar, Al-Andalus, madaniy inqilob, davlatchilik, xalifalik.

KIRISH

Andalusiya tarixi doimo xilma-xil madaniyatlar va murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar chorrahasi bo‘lib kelgan. Umumiy maydoni 87,000 km² dan ortiq bo‘lgan va Iberiya yarimorolining eng janubiy qismida joylashgan bu hudud o‘zining O‘rta yer dengizi ekologik, insoniy va madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tarix fanida Andalusiyaning qadimgi va o‘rta asrlar davri ko‘pincha metropoliyalar (Rim, Vizigot, Kastiliya) nuqtai nazaridan o‘rganilgan. Biroq, zamonaviy tahlillar mintaqa aholisining o‘tmishini xalqning o‘z o‘ziga xosligi va identiteti nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Ushbu maqolaning maqsadi Andalusiyaning ilk davlatchilik poydevorlaridan tortib, Al-Andalus davlatining parchalanishigacha bo‘lgan tarixiy jarayonlarni obektiv ilmiy baholashdan iborat.

Qadimgi davr va Tartessos davlatining paydo bo‘lishi: Andalusiya hududida insoniyatning ilk qadamlari paleolit davriga, xususan, Yevropadagi ilk manzilgohlardan hisoblangan Orce (Granada) hududiga borib taqaladi. Neolit davriga kelib, mintaqada kuchli ijtimoiy tashkilotuvchilikni talab qiluvchi megalitik inshootlar - Los Millares (Almeria) va Cueva de Menga (Malaga) kabi hududlarda domuliform qabrlar madaniyati shakllandi.

Ushbu uzluksiz madaniy evolyutsiya miloddan avvalgi 1200-yillarda Tartessos davlatining tashkil topishi bilan o‘zining cho‘qqisiga chiqdi. Tartessos shunchaki madaniyat emas, balki Andalusiyaning barcha tarixiy shakllarini birlashtirgan, monarxiya shaklidagi boshqaruvga va butun O‘rta yer dengizi bo‘ylab kuchli iqtisodiy ta’sirga ega bo‘lgan ilk geosiyosiy tuzilma - qadimgi G‘arbning birinchi davlati edi. Finikiyaliklar va yunonlar bilan faol iqtisodiy aloqalar olib borgan bu davlat, Alalia (mil.avv. 535 y.) jangidan so‘ng Kartagenaning kuchayishi oqibatida chuqur inqirozga yuz tutdi.

Rim kolonizatsiyasi va Baetica madaniy markazi: Kartagena o‘rnini egallagan Rim imperiyasi mil.avv. 206-yilda Turdetaniya (qadimgi Andalusiya) hududini egalladi. Rim mustamlakachiligi harbiy kuch va kelishuvlar asosida kechgan bo‘lsa-da, Baetica provinsiyasi aholisi Rimning soxta erkinliklari sharoitida ham o‘zining kuchli madaniy identitetini saqlab qoldi. Baetica G‘arbiy Rim sivilizatsiyasidagi eng kuchli madaniy va intellektual markazga aylandi. Rim tizimi inqirozga yuz tutgach, V asrdan boshlab german xalqlari, xususan, Vandallar va Vizigotlar Andalusiya hududiga bostirib kirdi. Uch asrlik bu davr doimiy qirg‘inlar va qo‘zg‘olonlar bilan o‘tdi. Andalusiya shaharlari Vizigot monarxiyasining teokratik va markazlashtiruvchi siyosatiga qarshi doimiy mustaqillik kurashlarini olib bordi.

Al-Andalus: Madaniy va mafkuraviy inqilob. Rasmiy tarixshunoslikda chuqur singib ketgan “arab bosqini” tushunchasi jiddiy tarixiy o‘rganishlarga bardosh bera olmaydigan yanglish yondashuvdir. 711-yilda boshlangan jarayon aslida uzoq davom etgan ichki ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar (trinitar va unitar xristianlar

o‘rtasidagi kurash) natijasida Andalusiya jamiyatining yangi, ilg‘or islom sivilizatsiyasini tanlashi orqali yuz bergan madaniy va mafkuraviy inqilob edi.

756-yilda Abd-al-Rahmon I tomonidan asos solingan amirlik va keyinchalik Umaviylar xalifaligi davrida Andalusiya fan, falsafa, san'at va texnologiyada dunyoning eng ilg‘or davlatlaridan biriga aylandi. Bu yerda turli etnik guruhlar o‘rtasida O‘rta yer dengizi madaniyati doirasida kuchli sinkretizm shakllandi. Biroq, 976-yilda Al-Hakan II vafotidan so‘ng, ichki kurashlar, Al-Mansurning harbiy fanatizmi va turli ijtimoiy guruhlar o‘rtasidagi nizolar xalifalikning Taifalarga bo‘linib ketishiga olib keldi. Ijtimoiy-iqtisodiy parchalanish tashqaridan Kastiliya harbiy bosimining ortishi fonida davlatning mudofaa tizimini butunlay zaiflashtirdi.

Xulosa qilib aytganda, Andalusiya xalqining ilk davlatchilik qadamlari Tartessos kabi murakkab sivilizatsiya bilan boshlangan bo‘lsa, keyingi davrlarda Rim va Vizigot bosqinlariga qarshi muttasil kurashlar bilan davom etdi. Al-Andalus davrida esa mintaqa quruq harbiy istilo emas, balki organik ijtimoiy-madaniy inqilobni boshidan kechirdi. Xalifalikning qulashi mintaqani uzoq muddatli qorong‘u feodal istilosi - Kastiliya zulmi ostida qolishiga zamin yaratdi va bu holat Andalusiya milliy shaxsiyatini shakllantirishda fojiali, ammo burilish nuqtasi bo‘lib xizmat qildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. I. Olagüe. La Revolución Islámica en Occidente. Fundación Juan March. Barcelona 1974.
2. A. Medina. Historia de Andalucía. 2 tomos. Biblioteca de Ediciones Andaluzas. Sevilla.
3. VV. AA. Historia de Andalucía. 9 tomos. Edit. Planeta. Barcelona 1983.
4. Enciclopedia de Andalucía. 10 tomos. Edit. Andalucía. Granada 1979.

ANDALUSIYA MILLIY ONGINING SHAKLLANISHI: KASTILIYA KOLONIZATSIYASIDAN TO ZAMONAVIY UYG‘ONISHGACHA

Ashurova Xurshida Sag‘dullaevna

SamDCHTI "Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari" kafedrasi v.b. professori
xurshidashurova01@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada Kastiliya tojining Andalusiyani harbiy bosib olishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy oqibatlari tahlil etiladi. Andalusiya milliy identitetining shakllanish omillari, XV-XVIII asrlardagi feodal monarxiyaga qarshi xalq isyonlari, XIX asrdagi kantonalistik harakatlar va XX asrda Blas Infante yetakchiligidagi tarixiy millatchilik jarayonlari yoritilgan. Andalusiyaning "ezilgan millat" sifatidagi maqomi uning ijtimoiy kurashlar va madaniy meros sintezi asnosida kelib chiqqanligi ilmiy dalillanadi.

Kalit so'zlar: Andalusiya milliy ongi, Kastiliya bosqini, Blas Infante, kantonalizm, repressiya, tarixiy millatchilik, o'zlikni anglash.

KIRISH

Ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, biror xalqning identifikatsiyasi nafaqat uning o'tmishi, balki shu o'tmish va hozirgi holatning kelajak sari yo'naltirilgan o'zaro bog'liqligi asosida shakllanadi. XIII asrdan boshlab Kastiliya xristian qo'shinlari tomonidan Andalusiyaning bosib olinishi nafaqat geosiyosiy o'zgarish, balki butun bir xalqqa nisbatan o'tkazilgan madaniy genotsid, yerlarni tortib olish va ekologik inqirozning boshlanishi bo'ldi. Ushbu maqola Andalusiya xalqining Ispaniya markazlashgan davlati siyosatiga qarshi necha asrlik chidamliligi, qarshilik harakatlari hamda XIX-XX asrlarda milliy ong va millatchilik tushunchalarining ijtimoiy harakatlar orqali qayta uyg'onish tarixiga bag'ishlanadi.

Kastiliya tajovuzi va Andalusiyaning mustamlakaga aylanishi: Andalusiyaning qurolli bosib olinishi (XIII asrda Guadalquivir va 1492-yilda Granada) xalqni erkinliklaridan mahrum etdi. Bosqinchilar "Xoch va Qilich" vositasida Andalusiya aholisiga yot bo'lgan huquqiy, siyosiy va diniy tizimni majburan joriy qildi. Minglab andalusiyaliklar Inkvizitsiya sudi tomonidan qatl qilindi, yuz minglab odamlar quvg'inga uchradi yoki tog'larga yashirinishga majbur bo'ldi.

Tarixiy manbalar guvohlik beradiki, Kastiliya tojining zulmi mutlaq assimilatsiyaga qaratilgan edi. Til, din va urf-odatlar taqiqlandi. Dushman nafaqat jamiyatni, balki hudud ekologiyasini ham o‘zgartirdi: partizanlarni boshpanasiz qoldirish uchun yuz minglab gektar qadimiy o‘rmonlar yoqib yuborildi. Iqtisodiy tizim qulab, eng unumdor yerlar shimoldan kelgan yirik feodallar (latifundistlar) o‘rtasida taqsimlandi.

Shunga qaramay, xalq jim qarab turmadi. 1499-1502-yillarda Alpujarra va Albaicinda, 1567-1572-yillarda Granadada (Aben Humeya boshchiligida) va 1641-yilda Andalusiyani mustaqil davlatga aylantirishga qaratilgan Medina Sidonia gersogi fitnalari Andalusiya qarshilik ruhining o‘lmaganini ko‘rsatdi. XVIII asrga kelib Burbonlar monarxiyasi davrida Andalusiyaning ijtimoiy ahvoli o‘ta og‘ir tus oldi. Vazir Pablo de Olavide ta’kidlaganidek, andalusiyaliklar “Yevropadagi eng baxtsiz insonlar”ga aylangan edi.

Andalusiya uyg‘onishi: XIX asr ijtimoiy-siyosiy kurashlari.

XIX asrda kapitalizmning o‘ziga xos tarzda kirib kelishi Andalusiyani faqat xomashyo yetkazib beruvchi, arzon ishchi kuchi bazasiga aylantirib qo‘ydi. Kunlik ishchilarning (jornaleros) radikallashgan kurashlari Andalusiya identitetining kuchli belgisi bo‘lib xizmat qildi. 1857-yilda Utrerada, 1861-yilda Lojada Perez del Alamo boshchiligida ko‘tarilgan dehqonlar isyonlari va nihoyat 1868-yil 4-dekabrda Kadisda boshlangan “Barrikadalar qo‘zg‘oloni” mintaqada erkinlik va adolatga bo‘lgan kuchli tashnalikni namoyon qildi.

1873-yilgi Kantonalist inqilobi tarixda alohida o‘rin tutadi. Bu davrda “Despeñaperrosda Andalusiya davlatining mustaqillik bayrog‘i ko‘tarildi”. 1883-yilda Antequerada ishlab chiqilgan “Andalusiya kantonlarining federal konstitutsiyasi” loyihasi yarim asrlik milliy-ozodlik nazariyasining huquqiy ifodasi bo‘lib, Andalusiyaning millat sifatidagi tasdig‘i edi. Ayni davrda A. Machado y Alvarez (Demófilo) kabi olimlar tomonidan Andalusiya etnik-madaniy identitetini ilmiy asoslash ishlari boshlab yuborildi.

Tarixiy millatchilik va modernizatsiya jarayonlari. XX asr boshlarida Andalusiya milliy harakati Blas Infante yetakchiligida aniq siyosiy konturlarga ega bo‘ldi. 1918-yilda Rondada bo‘lib o‘tgan majlisda Andalusiya bayrog‘i va madhiyasi tasdiqlandi. 1918-1920-yillardagi “Andalusiya bolshevik uch yilligi” hamda 1931-yilda Ikkinchi Respublika davrida “Andalusiya Erkin Davlati” talabi o‘rtaga tashlandi. Biroq, 1936-yilgi fashistik isyon va Blas Infantening Sevilyada o‘ldirilishi (11-avgust) bu jarayonlarni qon bilan bostirdi.

Franko diktaturasi davridagi qattiq senzura va iqtisodiy ezilishga qaramay, 1977-yil 4-dekabrda ko‘chalarga chiqqan millionlab andalusiyaliklar o‘zining tarixiy xotirasini unutmaganligini isbotladi. “Nación Andaluza” va boshqa siyosiy tuzilmalarning paydo bo‘lishi Andalusiyaning ezilgan millat sifatida o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqiga ega ekanligi konseptini amaliyotga joriy qildi.

Xulosa qilib aytganda, Andalusiya shunchaki Ispaniya davlatining jo‘g‘rofiy yoki ma’muriy parchasi emas. U necha asrlik madaniy boylik, repressiya yillari va uzluksiz sinfiy hamda ijtimoiy kurashlar asosida toblangan o‘ziga xos tarixiy millatdir. Andalusiyaning bugungi kunda o‘z identitetini talab qilishi uning adolatsiz tarixiy mustamlakachilik munosabatlariga, shuningdek, qishloq xo‘jaligidagi latifundizm[22] va davlat markazchiligiga bo‘lgan uzluksiz qarshiligining mantiqiy natijasidir. Andalusiya milliy ongini anglash nafaqat tarixiy adolatni, balki xalqning ijtimoiy kelajagini ta’minlashning muhim shartidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Blas Infante. La verdad sobre el complot de Tablada y el Estado Libre de Andalucía. Editorial Aljibe. Granada 1979.

[22] Latifundizm - qishloq xo‘jaligiga yaroqli ulkan yer maydonlarining juda oz sonli yirik yer egalari (latifundistlar) qo‘lida to‘planishi tizimi. Andalusiya tarixida ushbu tizim Kastiliya toji tomonidan bosib olingan yerlarning mahalliy aholidan tortib olinib, yirik feodal mulklarga aylantirilishi bilan tavsiflanadi. Bu jarayon mintaqada o‘ta kuchli ijtimoiy tengsizlikni yuzaga keltirib, mahalliy dehqonlar va kunlik ishchilar (jornaleros)ning yersizlanishiga hamda uzoq davom etgan qashshoqlik va sinfiy kurashlarga zamin yaratgan.

2. Isidoro Moreno. Andalucía: Subdesarrollo, Clases Sociales y Regionalismo. Editorial Manifiesto. Madrid 1977.

3. J.A. Lacomba. Regionalismo y Autonomía en la Andalucía Contemporánea (1835-1936). Caja de Ahorros El Monte. Granada 1988.

4. VV.AA. El siglo de Blas Infante. Biblioteca de ediciones andaluzas. Sevilla 1981.

5. Revista Nación Andaluza. Granada.

CHEVARCHILIKKA OID TERMINLARNING POLISEMANTIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Gulasal Ergashovna
Denov tadbirkoelik va pedagogika instituti
Xorijiy til va adabiyoti quyi kurslar
kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tili tikuvchilik va chevarchilik terminologiyasida uchraydigan polisemantik (ko'p ma'noli) xususiyatlar tahlil qilinadi. Chevarchilik leksikasi asrlar davomida xalq amaliy san'ati va kundalik hayot ta'sirida rivojlanib kelgan boy tizimdir. Tadqiqot davomida ma'lum bo'ldiki, ko'plab professional so'zlar nafaqat tor doiradagi texnik tushunchalarni, balki metaforik va metonimik ko'chishlar natijasida kengroq ijtimoiy-madaniy ma'nolarni ham ifodalaydi. Maqolada ushbu terminlarning semantik strukturasi, leksikografik tavsifi va ularning giper-giponimik munosabatlar bilan bog'liqligi qisqacha yoritilgan.

Kalit so'zlar: polisemiya, chok, andaza, metafora, mato, kiyim,leksika, struktur

Annotation: This article examines the polysemantic (multiple-meaning) characteristics of terminology used in the tailoring and sewing vocabulary of the Uzbek language. The lexicon of tailoring and sewing represents a rich linguistic system that has evolved over centuries under the influence of traditional handicrafts and everyday life. The research shows that many professional terms denote not only

specialized technical concepts but also broader socio-cultural meanings that have developed through metaphorical and metonymic semantic shifts. The article briefly discusses the semantic structure of these terms, their lexicographic description, and their connection with hypernymic-hyponymic relationships.

Keywords: polysemy, stitch, pattern, metaphor, fabric, clothing, lexicon, structure.

Har qanday tilning soha leksikasi, xususan, milliy hunarmandchilik terminologiyasi o‘sha xalqning moddiy madaniyati va tarixini o‘zida aks ettiradi. O‘zbek tilshunosligida hunarmandchilik leksikasi, jumladan, chevarchilik terminlarining strukturaviy va semantik jihatlari turli davrlarda tadqiq etilgan. Biroq globallashuv va tilning ichki imkoniyatlari kengayishi natijasida professional terminlarning polisemantik (ko‘p ma’noli) tabiati va ularning tizimli aloqadorligini mukammal o‘rganish hamon dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Terminologiyada an’anaviy qarashlarga ko‘ra, termin bir ma’noli (monosemantik) bo‘lishi lozim[1]. Ammo jonli til kontekstida va sohaviy leksikaning rivojlanish jarayonida **polisemiya (ko‘p ma’nolilik)** tabiiy hodisa sifatida bo‘y ko‘rsatadi. Chevarchilik sohasidagi ko‘plab terminlar ham vaqt o‘tishi bilan yangi ma’no qatlamlariga ega bo‘lib, nafaqat harakat yoki buyumni, balki jarayon natijasini, shakliy o‘xshashlikni yoki funksional aloqadorlikni ifodalashga xizmat qilmoqda.

Ushbu tadqiqotning maqsadi - o‘zbek tili chevarchilik terminologiyasidagi polisemantik so‘zlarni aniqlash, ularning ma’no ko‘chish turlarini tizimlashtirish va ushbu leksik birliklarning lisoniy tabiatini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning materiallar bazasini o‘zbek xalq shevalari lug‘atlari, chevarchilik sohasiga oid o‘quv adabiyotlari va jonli muloqotda qo‘llaniladigan professional korpus tashkil etdi. Shuningdek, S.M. Abramzon va S. Mutallibov kabi olimlarning turkiy xalqlar madaniyati va etnografiyasiga oid fundamental asarlaridagi soha leksikasi manbalar bilan qiyoslandi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, chevarchilik terminlarida ko‘p

ma’nolilik asosan uchta usul orqali yuzaga keladi: **metafora, metonimiya** (aloqadorlik) va **funksional ko‘chish**.Quyidagi uchta usulga oid quyidagi misollarni ko’rib chiqamiz.

1. *Chok* – uning asosiy ma‘nosi bu matolarning biriktirilgan joyi, chizig‘i bo‘lsa, polisemantik ma‘nosida esa, uning tikish usuli, tikuv turi (Metonimiya) (masalan, to‘g‘ri chok, yo‘rma chok) kabi bir qancha tikish usullari misol bo‘la oladi.

2. *Andoza* – bu biror bir kiyimni tikishdan oldin uni bichimi kerak bo‘ladi. Kiyim bichish uchun qog‘oz yoki kartondan tayyorlangan namuna bu andoza deyiladi. Bundan tashqari uning bir qancha ma‘nolari ham mavjud. Biror ishda mezon, o‘rnak, andoza kabilar (Metafora)ko‘chma ma’noda keladi.

3. *Mag‘iz* - Kiyim chetiga tikiladigan ingichka qayirma mato, jiyak Biror narsaning mohiyati, ichki mazmuni.Bu shakliy-funksional)

4. *Yoqa* – chevarchilikda bu so’z kiyimning bo‘yin qismi hisoblanadi. Daryo, soy yoki yo‘lning cheti, sohili (umumiy tilda) bu metafora misol bo’ldi.

“Chok” termini: Ushbu so‘z o‘zbek tilida kuchli polisemantik strukturaga ega. Bir tomondan u umumiy giperonim (umumlashtiruvchi nom) bo‘lib, tikuvchilikdagi barcha biriktirish turlarini anglatadi. Ikkinchi tomondan, “Matoni chokidan so‘tdi” gapida u konkret moddiy chiziqni ifodalasa, “Bugun yangi chok turini o‘rgandim” jumlasida u mahorat va uslub (giponimik ma’no) kasb etadi.

“Yoqa” termini: Chevarchilikda kiyimning ma’lum bir qismini anglatsa, tilning umumiy qatlamida daryo yoqasi, yo‘l yoqasi kabi geografik tushunchalarni bildiradi. Bu yerda makon va chetda joylashish semasi yetakchilik qiladi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, chevarchilik terminologiyasida polisemiyaning mavjudligi til tejamkorligi qonuniyati bilan bog‘liq. Yangi paydo bo‘lgan tushunchalar uchun har doim ham yangi so‘z yaratilmaydi, balki mavjud so‘zning ma’no doirasi kengaytiriladi. Akademik adabiyotlarda terminlarning bir ma’noliligi qat’iy talab sifatida qo‘yilsa-da, amaliyotda buni cheklab bo‘lmaydi. Masalan, “To‘g‘ri chok” yoki “Yo‘rma chok” birikmalari tarkibidagi chok so‘zi ham jarayonni, ham ushbu jarayonning moddiy mahsulini bildiradi [4]. Bu holat o‘zbek

tilshunosligida tushunchalarning giper-giponimik (jins-tur) munosabatlari kontekstida ham qiziqarli ilmiy munozaralarni keltirib chiqaradi. Chevarchilik terminlari ixtisoslashgan sohadan umumiste'mol tiliga ko'chganda o'zining tor texnik ma'nosini yo'qotib, konnotatib (emotsional-bo'yoqdor) ma'nolar kasb eta boshlaydi (masalan, andoza olmoq, to'g'ri chok urmoq).

Sohaviy affikslar va morfologik shakllarning semantik-struktura xususiyatlari ham ushbu terminlarning polisemantik tabiati shakllanishida muhim rol o'ynaydi [5]. Hunarmandchilik leksikasini, xususan, tikuvchilik terminlarini tadqiq etish o'zbek tili terminologik tizimini tartibga solish va izohli lug'atlarni boyitishda muhim poydevor bo'la oladi.

Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Chevarchilik terminologiyasi qotib qolgan tizim emas, balki jonli ravishda rivojlanib, ma'no taraqqiyotini boshidan kechirayotgan polisemantik tizimdir.

Sohadagi ko'p ma'nolilik asosan metaforik va metonimik ko'chishlar asosida, tilning ichki semantik imkoniyatlari hisobiga yuzaga keladi.

Terminlarning polisemantik xususiyatlarini o'rganish o'zbek tili izohli va terminologik lug'atlarini mukammallashtirishda, shuningdek, sohaviy darsliklar tilini shakllantirishda muhim amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Danilenko, V. P. (1977). Russkaya terminologiya: Opyt lingvisticheskogo opisaniya. Moskva: Nauka.
2. Abramzon, S. M. (1971). Kirgizi i ix etnogeneticheskie i istoriko-kulturnye svyazi. Leningrad: Nauka.
3. Mutallibov, S. (1959). Morfologiya va leksika tarixidan qisqacha kuzatishlar. Toshkent: Fan.
4. Ergashovna, M. G., & Xoliqulovna, B. R. M. (2025). Translation Methods AND Challenges OF Sewing Terminology. *American Journal of Pedagogical and Educational Research*, *36*, 52-54.

5. Ergashovna, M. G., & Mehhamtosh Xoliqulovna, B. R. (2023). EXPLAINED EXTENSIVE AND INTENSIVE LISTENING. *Journal of Innovafion in Education and Social Research*, *1*(4).

6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati (2006-2008). 5 jildlik. Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.

7. Hojiyev, A. (2002). O‘zbek tili so‘z yasalishi tizimi. Toshkent: O‘qituvchi.

8. Ergashovna, M. G., & Narzulloyevna, O. S. (2023). OUTLINE THE MAIN PRINCIPLES OF TEACHING YOUNG LEARNERS AND TEENAGERS.

PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARIDA XOMASHYO XARAJATLARINI OPTIMALLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI

Zakirov A.A
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Iqtisodiyot va menejment kafedrasi assistenti

Annotatsiya: Mazkur tezisda paxta-to‘qimachilik klasterlarida xomashyo va materiallar xarajatlarini optimallashtirishning iqtisodiy ahamiyati hamda ustuvor yo‘nalishlari tadqiq etilgan. Tadqiqot obyekti sifatida “Beruniy Cluster” MChJ va “Agro To‘rtko‘l tekstil cluster” MChJ faoliyati tahlil qilinib, xomashyo xarajatlarining ishlab chiqarish samaradorligiga ta’siri baholangan. Tahlillar natijasida xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, logistika tizimini takomillashtirish, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash va raqamli boshqaruv texnologiyalarini joriy etish xarajatlarni kamaytirishning muhim omillari ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: xomashyo ta’minoti, xarajatlar, paxta-to‘qimachilik klasteri, iqtisodiy samaradorlik, optimallashtirish, logistika, material sig‘imi, resurs tejamkorlik.

Jahon iqtisodiyotida to‘qimachilik sanoati yuqori resurs talab qiluvchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. Ishlab chiqarish tannarxida xomashyo va materiallar

xarajatlari odatda 50–70 foiz ulushni tashkil etadi. Shu sababli xomashyo ta’minoti va undan samarali foydalanish korxonalarning raqobatbardoshligi hamda moliyaviy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik sanoatida klaster tizimining rivojlanishi natijasida paxta xomashyosini yetishtirish, qayta ishlash va tayyor mahsulot ishlab chiqarishning yagona texnologik zanjiri shakllandi. Natijada mamlakatda paxtani ichki qayta ishlash darajasi 2016-yildagi 35 foizdan 2024-yilda 95 foizdan ortiq darajaga yetdi. Shu bilan birga, to‘qimachilik mahsulotlari eksporti 2024-yilda 3,5 mlrd AQSh dollaridan oshdi.

Biroq tarmoq korxonalarining iqtisodiy samaradorligi ko‘p jihatdan xomashyo va materiallar xarajatlarini boshqarish darajasiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Beruniy Cluster” MChJda 2018–2024-yillar davomida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 86,7 mlrd so‘mdan 266,2 mlrd so‘mga yetib, 3,07 martaga oshgan. Shu davrda xomashyo va materiallarga sarflangan xarajatlar 65,1 mlrd so‘mdan 111,4 mlrd so‘mgacha yoki 1,71 martaga oshgan. Natijada korxonada material qaytimi sezilarli yaxshilangan. Xususan, 2018-yilda har 1 so‘mlik xomashyo xarajatiga 1,33 so‘mlik mahsulot to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 2,39 so‘mga yetgan. Bu esa xomashyo resurslaridan foydalanish samaradorligi qariyb 80 foizga oshganligini ko‘rsatadi.

“Agro To‘rtko‘l tekstil cluster” MChJda esa boshqa holat kuzatiladi. Mazkur korxonada 2018–2024-yillar davomida mahsulot ishlab chiqarish hajmi 107,9 mlrd so‘mdan 182,5 mlrd so‘mga yoki 1,69 martaga oshgan bo‘lsa, xomashyo va materiallar xarajatlari 76,9 mlrd so‘mdan 146,8 mlrd so‘mgacha yoki 1,90 martaga ko‘paygan.

Natijada material qaytimi 1,40 so‘mdan 1,24 so‘mgacha pasaygan. Bu esa ishlab chiqarish jarayonida xomashyo va materiallardan foydalanish samaradorligi pasayganligini anglatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Beruniy Cluster” MChJda o‘zgaruvchan xarajatlar tarkibida xomashyo va materiallar ulushi 2018-yildagi 85,12 foizdan 2024-yilda 64,40 foizgacha kamaygan. Aksincha, “Agro To‘rtko‘l tekstil cluster” MChJda ushbu ko‘rsatkich butun davr davomida 89–94 foiz oralig‘ida saqlanib qolgan.

Iqtisodiy nuqtai nazardan bunday holat bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi:

- aylanma mablag‘larning xomashyo zaxiralarida ortiqcha band bo‘lishi;
- korxona likvidligi va to‘lov qobiliyatining pasayishi;
- innovatsion loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlarining cheklanishi;
- ishlab chiqarish tannarxining ortishi;
- eksport bozorlarida raqobatbardoshlikning pasayishi.

Xalqaro tajribada xomashyo xarajatlarini optimallashtirishning eng samarali yo‘nalishlari sifatida Lean Manufacturing, Just-in-Time (JIT), Supply Chain Management (SCM) va ERP tizimlari keng qo‘llaniladi. McKinsey Global Institute tadqiqotlariga ko‘ra, raqamli ta’minot zanjiri texnologiyalarini joriy etish natijasida xomashyo zaxiralari hajmi o‘rtacha 20–30 foizga, logistika xarajatlari esa 15–20 foizga qisqaradi.

Shuningdek, paxta-to‘qimachilik sanoatida hosil bo‘ladigan chiqindilarni qayta ishlash ham muhim iqtisodiy samara beradi. Mutaxassislarning hisob-kitoblariga ko‘ra, paxta tozalash va yigirish jarayonlarida hosil bo‘ladigan chiqindilarning 30–40 foizini qayta ishlash orqali qo‘shimcha daromad manbalari shakllantirilishi mumkin.

Shu munosabat bilan paxta-to‘qimachilik klasterlarida xomashyo xarajatlarini optimallashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

1. Xomashyo zaxiralarini boshqarishning raqamli monitoring tizimlarini joriy etish.
2. Logistika va ombor xo‘jaligini avtomatlashtirish.

3. Chiqindilarni qayta ishlash asosida ikkilamchi mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish.
4. Energiya va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy qilish.
5. Mahalliy va xorijiy yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli shartnomalar tuzish.
6. Material sig‘imini kamaytiruvchi innovatsion ishlab chiqarish texnologiyalaridan foydalanish.

Xulosa qilib aytadigan bo’lsak, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari paxta-to‘qimachilik klasterlarida xomashyo va materiallar xarajatlari ishlab chiqarish tannarxining asosiy qismini tashkil etishini ko‘rsatdi. “Beruniy Cluster” MChJ misolida xomashyo xarajatlari ulushining 85,12 foizdan 64,40 foizgacha qisqarishi ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligining sezilarli o‘sishiga xizmat qilgan.

“Agro To‘rtko‘l tekstil cluster” MChJda esa xomashyo xarajatlarining yuqori darajada saqlanib qolishi korxona samaradorligini cheklovchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Shu sababli paxta-to‘qimachilik klasterlarida xomashyo xarajatlarini optimallashtirishning asosiy yo‘nalishlari sifatida resurslardan oqilona foydalanish, logistika tizimini takomillashtirish, chiqindilarni qayta ishlash hamda raqamli boshqaruv texnologiyalarini keng joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Sanoat va to‘qimachilik tarmog‘i ko‘rsatkichlari, 2018–2024 yy.
2. O‘zbekiston To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati uyushmasi hisobotlari. Toshkent, 2024.
3. Porter M.E. *Competitive Advantage*. New York: Free Press, 1985.
4. OECD. *Textile and Apparel Manufacturing Outlook*. Paris, 2023.
5. McKinsey Global Institute. *Supply Chain Digital Transformation Report*. 2023.
6. Christopher M. *Logistics and Supply Chain Management*. Pearson Education, 2022

MATNNING TARKIBIY ELEMENTLARI VA ULARNING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Oripova Kamolaxon Erkinjon qizi
Qo‘qon Davlat Universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti
o‘qituvchisi (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn, matn birliklari hamda badiiy matnda muallifning vazifasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Matnning lingvistik mohiyati, uning tarkibiy birliklari (gap, murakkab sintaktik butunlik, abzas) va ularning o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari yoritildi.

Kalit so‘zlar: matn, matn birliklari, gap, murakkab sintaktik butunlik, abzas, badiiy matn, muallif, diskurs.

Аннотация. В данной статье рассматриваются текст, единицы текста и функции автора в художественном тексте с научно-теоретической точки зрения. Анализируется лингвистическая природа текста, его структурные единицы (предложение, сложное синтаксическое целое, абзац) и особенности их взаимосвязи.

Ключевые слова: текст, единицы текста, предложение, сложное синтаксическое целое, абзац, художественный текст, автор, дискурс.

Abstract. This article examines text, text units, and the role of the author in literary texts from a scientific-theoretical perspective. It analyzes the linguistic nature of text, its structural units (sentence, complex syntactic unity, paragraph), and their interrelations.

Keywords: text, text units, sentence, complex syntactic unity, paragraph, literary text, author, discourse.

Tilshunoslikda matn tilning eng yirik kommunikativ birligi sifatida e’tirof etilib, u inson tafakkuri, nutq faoliyati hamda axborot almashinuvi jarayonida muhim o‘rin egallaydi. Matn orqali shaxsning fikri, hissiyoti, munosabati va maqsadi muayyan tizim asosida ifodalanadi. Shu bois matnni o‘rganish masalasi lingvistika, stilistika, pragmatika hamda matnshunoslik yo‘nalishlarining asosiy tadqiqot obyektlaridan biri hisoblanadi. Matn nafaqat grammatik jihatdan bog‘langan gaplar yig‘indisi, balki mazmuniy yaxlitlikka, mantiqiy izchillikka va kommunikativ tugallikka ega bo‘lgan murakkab nutqiy tuzilmadir. Unda til birliklarining o‘zaro munosabati, uslubiy xususiyatlari hamda muallifning kommunikativ niyati namoyon bo‘ladi.

Matn tushunchasi ilmiy adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. O‘zbek tilining izohli lug‘atida “matn” so‘zi arab tilidan o‘zlashgan eskirgan kitobiy birlik sifatida izohlanib, “tekst” atamasi bilan ma’nodosh ekanligi qayd etiladi. Lug‘atda “tekst” tushunchasiga yozilgan, ko‘chirilgan yoki chop etilgan badiiy, ilmiy hamda rasmiy asarlar, nutq va hujjatlar yoki ularning ma’lum bir qismi sifatida ta’rif berilgan. Shuningdek, mazkur atama musiqa asarlarining she’riy asosini ham anglatishi mumkinligi ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, poligrafiya sohasida yirik shrift turlaridan biri ham “tekst” deb nomlanadi. Ushbu izohlardan kelib chiqib, matn asosan yozma shaklda ifodalangan nutq birligi sifatida talqin qilinadi. O‘zbek tilining yangi tahrirdagi izohli lug‘atida ham shu mazmun saqlanib qolgan bo‘lib, matn “nutqning yozuvdagi ifodasi” sifatida tavsiflanadi.

Matn tushunchasi ilmiy manbalarda turlicha izohlanadi. Lug‘aviy jihatdan u yozuvda yoki bosma shaklda yaratilgan mualliflik asari, hujjat yoki bosma nashrning asosiy mazmuniy qismini (rasm, chizma va izohlarsiz) anglatadi [O‘TIL.1;23]. Biroq zamonaviy tilshunoslikda matnni faqat yozma shakl bilan chegaralash ilmiy asosga ega emasligi ta’kidlanadi, chunki insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiya ham yozma, ham og‘zaki shakllarda amalga oshadi. Shu sababli matn faqat grafik ifoda bilan emas, balki nutqiy faoliyatning har qanday shaklida yuzaga keladigan yaxlit kommunikativ birlik sifatida qaraladi.

Xalqaro lingvistika an’analarida “diskurs” termini ham keng qo‘llaniladi. Dastlab u “matn” tushunchasi bilan sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa, keyinchalik yozma va og‘zaki kommunikatsiya farqlanishi asosida “matn” yozma nutqqa, “diskurs” esa og‘zaki nutqqa nisbatan qo‘llanila boshladi. Ushbu atama fransuzcha *discours* — “nutq, so‘zlash” ma’nosini bildiradi va bugungi kunda turli fan sohalarida keng qo‘llaniladigan ko‘p ma’noli termin sifatida shakllangan.

Matn o‘zining yaxlit tizimiga ega bo‘lgan murakkab kommunikativ tuzilma sifatida muayyan tarkibiy qismlardan, ya’ni birliklardan tashkil topadi. Tilshunoslikda matnni shakllantiruvchi birliklar va ularni ajratish mezonlari masalasi uzoq vaqtdan beri ilmiy munozaralarga sabab bo‘lib kelmoqda. Dastlab qaralganda, matn birliklarini aniqlash oddiy ko‘rinishi mumkin, biroq amaliy va nazariy tahlillar bu jarayonning murakkab ekanligini ko‘rsatadi.

Boshqa bir guruh tilshunoslar esa aksincha, gapni matnning asosiy qurilish materiali sifatida e’tirof etadilar. Chunki matnning mazmuniy yaxlitligi, uning borliq bilan bog‘liqligi va kommunikativ ma’nosi aynan gaplar orqali yuzaga chiqadi. Shu sababli gapning matn tizimidagi o‘rni va matn hosil qilishdagi funksiyasini inkor etish ilmiy jihatdan asosli emas.

Strukturaviy jihatdan abzaslar turlicha bo‘lishi mumkin: sodda gapli, qo‘shma gapli, periodik nutq shaklidagi, superfrazali sintaktik butunlikdan iborat hamda

ko‘chirma-o‘zga gapli abzaslar. Bundan tashqari, aralash tuzilishga ega abzaslar ham uchraydi. Xulosa qilib aytganda, matnning asosiy lingvistik birliklari sifatida gap va murakkab sintaktik butunlikni ko‘rsatish mumkin. Abzas esa matnning grammatik birligi emas, balki yozma nutqda fikrni ajratish va kompozitsiyani tashkil etish uchun xizmat qiluvchi subyektiv-grafik vosita hisoblanadi.

Umuman olganda, matn — bu oddiy gaplar yig‘indisi emas, balki muallif maqsadi asosida tashkil etilgan, ichki mantiq va mazmuniy yaxlitlikka ega bo‘lgan murakkab kommunikativ birlikdir. Uning har bir tarkibiy elementi umumiy g‘oyani ifodalash va o‘quvchiga ta’sir qilishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
2. Galperin I.R. *Text as an Object of Linguistic Research.* — Moskva: Nauka, 1981.
3. Gvozdev A.N. *Sovremennyy russkiy literaturnyy yazyk.* — Moskva, 1961.
4. Matnshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent, 2010.

STRUCTURAL UNITS OF TEXT AND THEIR FUNCTIONAL CHARACTERISTICS

Oripova Kamolakhon Erkinjon kizi
Kokand State University
Lecturer (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada matn, matn birliklari hamda badiiy matnda muallifning vazifasi ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Matnning lingvistik mohiyati, uning tarkibiy birliklari (gap, murakkab sintaktik butunlik, abzas) va ularning o‘zaro bog‘lanish xususiyatlari yoritildi.

Kalit so‘zlar: matn, matn birliklari, gap, murakkab sintaktik butunlik, abzas, badiiy matn, muallif, diskurs.

Аннотация. В данной статье рассматриваются текст, единицы текста и функции автора в художественном тексте с научно-теоретической точки зрения. Анализируется лингвистическая природа текста, его структурные единицы (предложение, сложное синтаксическое целое, абзац) и особенности их взаимосвязи.

Ключевые слова: текст, единицы текста, предложение, сложное синтаксическое целое, абзац, художественный текст, автор, дискурс.

Abstract. This article examines text, text units, and the role of the author in literary texts from a scientific-theoretical perspective. It analyzes the linguistic

nature of text, its structural units (sentence, complex syntactic unity, paragraph), and their interrelations.

Keywords: text, text units, sentence, complex syntactic unity, paragraph, literary text, author, discourse.

In linguistics, text is recognized as the largest communicative unit of language, playing a significant role in human cognition, speech activity, and the process of information exchange. Through text, an individual's thoughts, emotions, attitudes, and intentions are expressed within a specific system. Therefore, the study of text is considered one of the primary research objects of linguistics, stylistics, pragmatics, and text linguistics. A text is not merely a collection of grammatically connected sentences; rather, it is a complex speech structure characterized by semantic integrity, logical coherence, and communicative completeness. It reflects the interrelations of linguistic units, stylistic features, and the communicative intentions of the author.

The concept of text is interpreted in various ways in scholarly literature. In the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language, the word “matn” is described as an archaic literary unit borrowed from Arabic and noted to be synonymous with the term “text.” The dictionary defines “text” as a written, copied, or printed literary, scientific, or official work, speech, document, or a specific part thereof. It is also indicated that the term may refer to the poetic basis of musical compositions. Furthermore, in the field of printing, one of the large font types is also called “text.” Based on these explanations, text is mainly interpreted as a speech unit expressed in written form. The revised edition of the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language retains this meaning and describes text as “the written expression of speech.”

The concept of text is explained differently in scholarly sources. Lexically, it refers to the main meaningful part of an author's work, document, or printed publication created in written or printed form (excluding illustrations, diagrams, and explanatory notes) [O‘TIL.1;23]. However, modern linguistics emphasizes that restricting the notion of text solely to written form lacks scientific justification, since communication among people takes place in both written and spoken forms. Consequently, text is regarded not merely as a graphic representation but as an integrated communicative unit that emerges in any form of speech activity.

From the perspective of syntax, although the sentence is recognized as the fundamental unit, text is interpreted as a higher-level structure, namely a suprasyntactic whole. It is formed through the semantic and logical connection of several sentences and possesses its own grammatical, semantic, and pragmatic regularities. Therefore, equating text with a word combination or a sentence is not

scientifically justified. Scholarly literature also highlights the necessity of distinguishing among the concepts of “text,” “speech,” and “context” [Text Linguistics.3;12].

In international linguistic traditions, the term “discourse” is also widely used. Initially, it was employed as a synonym for “text,” but later, with the distinction between written and spoken communication, “text” came to refer primarily to written speech, whereas “discourse” was applied to spoken communication. The term originates from the French word discours, meaning “speech” or “conversation,” and today it has become a polysemous term widely used across various fields of study.

As a complex communicative structure possessing an integrated system, a text consists of certain constituent elements or units. In linguistics, the issue of identifying the units that form a text and the criteria for distinguishing them has long been a subject of scholarly debate. At first glance, determining textual units may appear simple; however, theoretical and practical analyses demonstrate the complexity of this process.

Another group of linguists, on the contrary, recognizes the sentence as the primary building material of a text. They argue that the semantic integrity of a text, its connection with reality, and its communicative meaning are realized precisely through sentences. Therefore, denying the role of the sentence within the textual system and its function in text formation is not scientifically justified.

List of references:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. — T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.
2. Galperin I.R. *Text as an Object of Linguistic Research.* — Moskva: Nauka, 1981.
3. Gvozdev A.N. *Sovremennyy russkiy literaturnyy yazyk.* — Moskva, 1961.
4. Matnshunoslik asoslari (o‘quv qo‘llanma). — Toshkent, 2010.
5. Beaugrande, R. de, & Dressler, W. U. (1981). *Introduction to text linguistics*. London: Longman.

MUNDARIJA

Pardayeva D.N. Umumta’lim maktab o‘quvchilarini sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanib o‘qitish metodikasi (6-sinf informatika va axborot texnologiyalari darsligi misolida) 3
Абдуғафаров А.Р., Эшдавлатов И.А. Мунтазам тазйиқ ва зўравонлик қурбонларини жамиятга қайта интеграция қилишда профилактика инспекторлари фаолиятининг илмий-ҳуқуқий ва ижтимоий талқини 6
Ўрақов Ж.Р., Эшдавлатов И.А. Профилактика инспекторларининг мунтазам тазйиқ ва зўравонликка учраган шахсларга нисбатан ижтимоий реабилитация ва ижтимоий мослаштириш чора-тадбирларини амалга ошириш масалалари 10
Ўрақов Ж.Р., Исақов М.М. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси соҳасида мувофиқлаштириш фаолиятини такомиллаштириш 14
Сиддиков У.Р. Тенденции развития фермерских хозяйств передовых странах и меры по внедрению в условиях республики Узбекистан 19
Ўрақов Ж.Р., Абдурасулов Т.Ш. Профилактика инспекторларининг фоҳишалик билан шуғулланнишни олдини олишда умумий ва махсус профилактикасини қўллаш чора-тадбирларини амалга ошириш фаолияти 23
Ўрақов Ж.Р., Охунжонов М.А. Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси субъектлари фаолияти самарадорлигини баҳолаш тизими 26
Ўрақов Ж.Р., Қурвоналиев С.Ў. Вояга етмаганларга нисбатан содир этиладиган зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар профилактикасини такомиллаштириш 30
Ўрақов Ж.Р., Қурвоналиев С.Ў. Вояга етмаганларга нисбатан содир этиладиган зўравонлик билан боғлиқ ҳуқуқбузарликлар: тушунчаси, сабаблари ва профилактика масалалари 34
Umarova I.H., Zaripova G.A., Xayriyeva G., Jumanov Sh.N. Kasbiy ta’lim tizimida dual ta’limning afzalliklari 37
Абдуғофаров А.Р., Очилов М.Ш. Латент жиноятчилигининг пайдо бўлиши ва унинг ҳуқуқий оқибатлари 41
Ўрақов Ж.Р., Очилов М.Ш. Латент жиноятчилигининг криминологик тавсифи ва уларнинг профилактикасини такомиллаштириш масалалари 44
Muzaffarova M.M. Interdisciplinary perspectives in political linguistics: bridging linguistics and political science 47
Furkatova N.F. Maxmudxo'ja Behbudiy faoliyatida milliy o'zlikni shakllantirish masalalari 49
Боборахимов А.Б., Эсиргапов С.А. Ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шарт-шароитларни бартараф этиш фаолияти 53
Ruzmatova G.K. Anekdot matnlarida implikaturaning pragmatik funksiyalari va kulgi mexanizmini shakllantirishdagi o‘rni 57
Umbarova Y.K. Metaphor in english and uzbek languages 61
Aripov D.N. O‘zbekiston va Afg‘onistonning siyosiy va iqtisodiy munosabatlari: tarixiy tahlil 64
Aripov D.N. Markaziy Osiyoda xavfsizlik va O‘zbekiston-Afg‘oniston siyosiy hamkorligi 67
Tursunboyev Sh.Sh. Tashqi iqtisodiy faoliyatda samaradorlik: bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash rejimining afzalliklari 71
Ibodov X.I., Iminov A.A. Yoshlar o'rtasida kiberjinoyatlarni oldini olish va unga qarshi kurashish 74

Ibodov X.I., Iminov A.A. Yoshlar o'rtasida kiber jinoyatlarni ortib borishi unga qarshi kurashishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati 78
Нишонбоева Г. Ўзбек тўй-ҳашамларида маданий меъёрларнинг намоён бўлиши 82
Makhmanov L.S., Gadayev A.G. FGF-23 ва бошқа биокимёвий кўрсаткичларнинг гемодиализ беморлари яшовчанлигига таъсири 86
Rizayev J.A., Maxmonov L.S. Гемодиализ беморларида яшовчанликни баҳолашда марказий веноз катетер ва диализга оид омилларнинг ўрни 89
Tugizova I. Photosynthetic pigment content of Taraxacum Officinale L. 91
Tojiyeva M.A. Texnik oliy ta'lim muassasalarida tillarni parallel o'rgatish asosida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari 93
Jo'rayeva M.A. Kichik biznes sub'ektlarining rivojlanish bosqichlari 95
Masadiqova B.X. A comparative study of proverbs reflecting the concept "Native country" in uzbek and english languages 102
Masadiqova B.X. A comparative study of lexical units expressing the concept "Native country" (on the basis of the uzbek and english languages) 106
Bo'riyeva Sh.G'. O'zbek xalq maqollarida oilaviy qadriyatlarning aks etishi 110
Madartov B.Q. To'qimachilik sanoatida integratsiyalashgan ishlab chiqarish tizimlarining iqtisodiy ahamiyati va ularda kapital qo'yilmalar hisobining xususiyatlari 113
Do'stova M. Bamiya (Abelmoschus Esculentus L.) o'simligining dorivorlik xususiyatlari 117
Турсунов И.С. Перспективы развития цифровых технологий и уголовного права в новом узбекистане 120
Xonimov Sh.B. Yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy xurujlarning ob'ektiga aylanib qolishi sabab va oqibatlari 123
Абдухолиқова Ф.А. Савдо хизматларини такомиллаштиришнинг аҳоли бандлигини таъминлашдаги ўрни 127
Кувандиков Ш.О., Абдухаликова К.А. Логистика хизматлари ривожининг мамлакат иқтисодиётига таъсири 132
Ashurova G. Yuqumli kasalliklarning oldini olish 135
Абилов Ф.Н. Ҳудудларда камбағалликни қисқартиришнинг инновацион йўналишларини такомиллаштиришнинг афзалликлари 139
Abduxalikova K.A. Transport logistika xizmatlarini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati 143
Muradova S.Z., Fayzullayeva Sh., Fazlitdinova M. Symbolic and mythological meanings of hydronyms in uzbek folklore 147
Xoliyarova N. Axborot qaydlarining semantik xususiyatlari 151
Murodova M.F. Treninglarni tashkil etish metodikasi va baholash mezonlari 156
Abdug'afforova M.Sh. STEAM asosidagi o'quv jarayonini loyihalash va modellashtirish 158
Ismatova S.T. Lug'at boyligini oshirish va grammatik ko'nikmalarni shakllantirishda raqamli gamifikatsiya vositalari (kahoot, quizizz, wordwall) 161
Valijonova H.M.. Short-term load forecasting for a university local power network 167
Axmedov O.U., Mashrabov B.A. Matematika yo'nalishi talabalarini o'qitishda dasturiy ta'minotlardan foydalanish 171
Djumanqulov A.A., Talaba shaxsini kamol toptirishda pedagogik etikaning ahamiyati 176

Ashurova X.S., Andalusiya davlatchiligining tarixiy ildizlari: Tartessosdan Al-Andalus inqirozigacha 179
Ashurova X.S., Andalusiya milliy ongining shakllanishi: Kastiliya kolonizatsiyasidan to zamonaviy uyg‘onishgacha 182
Mirzayeva G.E., Chevarchilikka oid terminlarning polisemantik xususiyatlari 185
Zakirov A.A., Paxta-to‘qimachilik klasterlarida xomashyo xarajatlarini optimallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari 189
Oripova K.E., Matnning tarkibiy elementlari va ularning lingvistik xususiyatlari 193
Oripova K.E., Structural units of text and their functional characteristics 193